

“O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI” fanidan O‘QUV MATERIALLARI (MA‘RUZALAR T O‘PLAMI) (2015-2016)

1-mavzu. “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanlarining predmeti, ob’ekti, maqsadi vazifalari.

REJA:

1. “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining predmeti va tadqiqot ob’ekti.
2. “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining qonuniyatlari va kategoriyalari.
3. “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti”ning fan sifatida shakllanishi.
4. “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi.

XX asr so‘nggida dunyo xaritasida mustaqil O‘zbekiston paydo bo‘ldi. Uch ming yillik milliy davlatchilik tariximizda o‘z mustaqilligining navbatdagi istiqbol tsivilizatsiyasiga qadam qo‘yildi. Qadamning tarixan tub sifat mohiyati 1991 yil 31 avgustda e‘lon qilingan mustaqil O‘zbekiston davlatining konstitutsiyaviy maqomida aniq shakl va mundarija kasb etdi. Mustaqil O‘zbekiston xalqi o‘z oldiga **“insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish”dek, konstitutsiyaviy maqsadni** qo‘ydi. Milliy davlatchiligimizning boy va ibratli tarixida ilk bor ana shunday maqomga ega tsivilizatsiyalashgan davlat barpo etish va uning negizida adolat, qonuniylik tamoyillariga tayanuvchi zamonaviy demokratik jamiyatni shakllantirishdek, asriy orzu-umid imkoni yuzaga keldi hamda uning konstitutsiyaviy-huquqiy asos-zaminlari yaratildi.

Milliy demokratik taraqqiyotning o‘zimizga xos, o‘zimizga mos strategiyasi belgilab berilgan *“o‘zbek modeli”ning mashhur besh tamoyili*, tamoyillarning ilmiy-amaliy yaxlit mundarijasi milliy davlatchiligimizning yangidan tiklanish va rivojlanish jarayonlari hamda bosqichlari mazmunini, xarakterini, tabiatini, ya‘ni **aniq demokratik maqomini** tayin etdi.

Xo‘sh, ushbu jarayonlar va bosqichlar, umuman, yaxlit, mushtarak siyosiy-demokratik pirovard-maqsadning ibtidosi, yo‘li, amaliyoti hamda aniq samaralari qanday bo‘ldi, bo‘layapti? Pirovard - maqsadning nazariy-uslubiy, g‘oyaviy, ilmiy va amaliy, shuningdek, konstitutsiyaviy-huquqiy asos-bazalari takomili nimalardan iborat? O‘zbekiston istiqbol va taraqqiyot andozasi negizida to‘plagan milliy demokratik rivojlanishning o‘ziga xos tarixiy tajribasi xususiyatlari qanaqa? Ular mazmun va maqomi umumdemokratik tsivilizatsiya talablariga to‘la mos kelyaptimi yoki yo‘qmi? Agar tanlangan yo‘l umuminsoniy qadriyatlarining tsivilizatsiyaviy mushtarakligidan iborat umumdemokratik madaniyatning talab-ehtiyojlariga to‘liq mos kelayotgan bo‘lsa, uning sir-asrori nima va sabab-oqibatlari qanday? Mustaqil davlatimizning jahon demokratik hamjamiyatida munosib o‘rin tutishi yo‘lidagi sa‘y-harakatlari kutilgan natijasini beryaptimi? Mustaqillikni yanada mustahkamlash, milliy tiklanish jarayonlarini demokratik g‘oyalar va ular amaliyoti bilan to‘liq ta‘minlash, tub islohotlar hamda yangilanishlarni demokratik yanada chuqurlashtirish orqali jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratik liberallashtirish, ijtimoiy taraqqiyotning oliy belgisi, ko‘rinishi bo‘lmish adolatli, ochiq fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq taqdirilomon vazifalar ko‘lamining nazariy-amaliy istiqbollari qanaqa? Zamonaviy jahoniy tafakkur tsivilizatsiyasiga asoslangan milliy siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma‘naviy-g‘oyaviy nazariy falsafaning Prezident Islom Karimov demokratik ta‘limoti bilan uzviy mushtarakligidan iborat yaxlit kvintessentsiyasi mustaqil O‘zbekistonda kechayotgan qizg‘in demokratik jarayonlarda

qanday amaliy ijrosini topmoqda? Umuman, O'zbekistonning o'z istiqlool va demokratik taraqqiyot yo'li hamda uni yanada takomillashtirish istiqbollari qanday? Va hokazo...

Savollar jiddiy ilmiy-nazariy va amaliy aniq javoblarni talab qiladi. **Ularni yaxlit mushtaraklikda aynan "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani maxsus o'rganadi.**

Fan yuzaga kelishining ijtimoiy, siyosiy-ma'rifiy ehtiyoji, eng avvalo, istiqlool o'laroq, tanlangan milliy rivojlanish yo'lining demokratik maqsad-maqomida, konstitutsiyaviy mazmun-mundarijasidadir.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, O'zbekiston o'z istiqlool va taraqqiyot yo'lini demokratik dunyo tsivilizatsiyasi talablari hamda tartib-qoidalari, umumbashariy tamoyillari asosida belgiladi. U o'z maqomini **dunyoviy davlat** shaklida belgilab, *insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga*, uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini belgilashga kirishdi. **Shu ulug' maqsad yosh mustaqil davlatni bozor iqtisodiyotiga o'tishdek erkin demokratik taraqqiyot yo'lini tanlashga olib keldi. Bu yo'l** halokati muhaqqaq bo'lmish qonli inqilobiy "sakrash"lar asosida emas, balki **bosqichma-bosqich,uzviy tadrijiy rivojlanish** bo'ldi. Har qanday *"izm"lardan, mafkuraviy tazyiqlardan xoli bu yo'l* demokratik barqaror yo'l sifatida **iqtisodiyotni Siyosatdan ustun qo'yilishini taqozo etdi.** Ma'muriy-buyruqbozlikdek totalitar, g'ayridemokratik tuzumdan demokratik huquqiy tsivilizatsiyaga asoslangan tizimga o'tishdek, qismatning murakkab chorahalarida butun mas'uliyat va tashabbusni ongli ravishda o'z zimmasiga olgan **davlatning bosh islohotchilik maqomi** aniq belgilab olindi. Bu o'tish bosqichidek og'ir davrda jamiyatda siyosiy-ma'naviy barqarorlikni, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, muqarrar tub islohiy yangilanishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, odamlar ongi hamda dunyoqarashini o'zgartirish, ularda demokratik qadriyatlar madaniyatini tarbiyalab, shakllantirish imkonini yuzaga keltirdi. **Eng muhimi - jamiyat o'tish bosqichiga xos turli ijtimoiy larzalardan xoli bo'ldi.**

Davlatning bosh islohotchilik maqomi davlat va jamiyat qurilishi tamoyillarini konstitutsiyaviy to'g'ri belgilash orqali hokimiyat bo'g'inlari har birining faoliyat doirasini aniq belgilab, ular o'rtasidagi kelishmovchiliklarning oldini olishga kafil bo'ldi. **Mustaqil davlat Asoschisi va Yo'lboshchisi I.A.Karimovning ham davlat boshlig'i, ham hukumat raisi sifatidagi konstitutsiyaviy maqomi aynan ana shu maqsad - davlatning bosh islohotchilik vazifasiga to'liq safarbar etildi.**

Demokratiyaning bosh talabi bo'lmish **qonun ustuvorligini** ta'minlash, unga to'liq erishish konstitutsiyaviy maqsad qilib belgilandi. Zotan, **demokratik jamiyatda inson huquqlari va erkinliklari, avvalo, Konstitutsiya hamda qonun ustunligi bilangina ta'minlanadi. Qonun oldida hamma teng. Bu demokratiyaning oddiy talabi.**

Ma'lumki, *bozor - iqtisodiyot demokratiyasi* hisoblanadi. Iqtisodiy erkinlik, mulkning turli shakllarda mavjud bo'lishi va raqobat asosida erkin rivojlanishi **iqtisodiyot demokratiyasining asosi** hisoblanadi. Mulkining shaklidan qat'i nazar mulk egasi erkin va ozod. U o'z manfaatlaridan kelib chiqqani holda, raqobat bozorida ishtirok etadi.

Iqtisodiyot demokratiyasi bo'lgan bozorga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida jamiyatning muayyan ijtimoiy qatlami, shubhasiz, **aniq yo'naltirilgan kuchli ijtimoiy himoyaga** tabiiy muhtojlik sezadi. *Demokratik davlat va demokratik jamiyat ana shu muqarrar muhtojlik o'laroq, kam ta'minlangan odamlarni, oilalarni, xususan, ko'p bolali oilalarni, qariyalarni, nogironlarni o'z ijtimoiy himoyasiga oladi.* Bu yolg'iz demokratik davlat va uning negizida demokratik jamiyat barpo qilish sari yuz tutgan o'tish bosqichidagi rivojlanayotgan mamlakatlar uchungina emas, ayni paytda, rivojlangan yirik demokratik davlatlar, ularning batartib va barqaror ijtimoiy Siyosati uchun ham aslida xos jihatdir.

Xalq hokimiyatchiligi bo'lgan demokratiya O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaxlit mundarijasini tashkil etdi. Asosiy Qonunning Muqaddimasidan so'nggi 128-moddasigacha davlatimizning demokratik maqomi aniq huquqiy ifodasini topgan. Konstitutsiya - milliy demokratiyaning yuridik ko'zgusi. Unda umuminsoniy demokratik qadriyatlar, xalqaro huquq normalari, shuningdek, inson huquqi davlat huquqidan ustun qo'yilgan. Zotan, haqiqiy demokratik davlat huquqiy tajribasidagina inson huquqlari, erkinliklari, inson manfaatlari eng yuksak va eng

ustun qadriyat hisoblanadi. Demokratik davlat va jamiyat, avvalambor, inson manfaatlari, huquqlari va erkinligi uning tinch-totuv hayoti, kelajagini tashkil etish, himoya qilishdek, ulug'vor insonparvar maqsadlarga xizmat qiladi. O'zbekiston o'z Yo'l boshchisi rahbarligida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot ko'ndalang qo'ygan, qo'yayotgan ana shu masalani demokratiyaning fuqarolarning teng huquqliligi, inson huquqlarining ustuvorligi, xalqning erkin xohish-irodasi, hokimiyat organlarining saylab qo'yilishi, ularning saylovlarga bo'ysinishi, hokimiyat tarmoqlarining taqsimlanganligi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlar oldida hisob berishga burchliligi, umuminsoniy qadriyatlar hamda xalqaro huquq normalarining ustunligi kabi asl tamoyillariga qarab, to'g'ri hal qildi, hal qilmoqda, kundalik faoliyatga omilona tadbir etmoqda.

Ma'lumki, har qanday jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi printsiplar (xalq hokimiyatchiligi, qonun ustuvorligi, Qonun oldida barchaning tengligi, inson huquqining davlat huquqidan ustunligi va b) qatorida kamida uchta mezon mavjud. Ular:

a) xalqning qarorlar qabul qilish jarayonlaridan xabardorligi, ushbu jarayonlarda ongli faol ishtirok etishi;

b) hukumat qarorlari, qonunlar ijrolari xalq tomonidan nazorat qilinishi (jumladan, jamoatchilik nazorati);

v) oddiy fuqarolarning davlatni, jamiyatni boshqarishda ongli faol ishtiroki.

Ha, adolat va demokratiyani tepadan turib, maxsus farmon yoxud dekret bilan o'rnatib bo'lmaydi. Bu butun xalqning, har bir fuqaroning birdek mushtarak ishtirokini taqozo etadi. Ana shunga erishgan davlat va jamiyatgina, ushbu haqiqatni teran anglagan, demokratik tsivilizatsiya kashf etgan, asrlar sinovidan o'tgan, demokratik dunyoning bugungi talablariga xizmat qiladigan, tanlab-saralab olingan milliy qadriyatlar va umuminsoniy tajribalar tabiiy uyg'unlashgan jamiyatgina demokratik maqom kasb etadi.

Konstitutsiyaviy tamoyillarga qat'iy rioya etish asosida yuqoridagi universal mezonlarning demokratik amaliyoti O'zbekiston ijtimoiy hayotida demokratiya talablari va printsiplarini to'la qaror toptirish, davlat, jamiyat hamda davlat idoralari ishini demokratik tamoyillar negizida tashkil etish imkonini berdi. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi (Oliy Majlis), ijro etuvchi (Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari) va sud tizimidan iborat uch mustaqil bo'g'ini bir-birini tiyib turish, nazorat qilish va bir-birining ishiga aralashmaslik maqomida konstitutsiyaviy tashkil etildi.

Demokratik davlat va jamiyatda ijtimoiy hayot ko'p partiyaviylik, fikrlarning xilma-xilligi, plyuralizm (jumladan, siyosiy va mafkuraviy plyuralizm) asosida rivojlanadi. Demokratiyaning bu qoidasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida muhrlab qo'yilgan

Zotan, har qanday demokratiya, avvalo, g'oyalar, qarashlar demokratiyasidan, demak, tafakkur, dunyoqarash, ong demokratiyasidan boshlanadi. Bu demokratiyaning ma'naviy talabi, ayni paytda, ma'naviyatning demokratik talabi. Tafakkurni, dunyoqarashni, ongni demokratlashtirmay turib, davlatni, jamiyatni demokratlashtirib bo'lmaydi. Qonun va qonun talablari kamsitilib kelingan muhitda shakllangan jamiyat, tarbiyalangan inson uchun, shubhasiz, demokratik umuminsoniy qadriyatlarga ko'nikish, uning qat'iy talablari, qonun-qoidalariga bo'ysinib, ularga rioya etib yashash haddan tashqari og'ir, mushkul. Ko'nikish jarayoni qiyin kechmoqda. Demokratiyaga o'tish bosqichida bu tabiiy hol. Bu erda muqobil yo'l yo'q. Aks holda, umumbashariy taraqqiyotning tsivilizatsiyalashgan umumdemokratik yo'lidan chetga chiqib, qismatning yanada og'ir muammolari girdobida qolib ketish, hatto, g'arq bo'lish mumkin. **Tsivilizatsiyalashgan yagona najot yosh mustaqil davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot muammolarini umumtan olingan demokratik tamoyillarga qarab to'g'ri, oqil belgilashda, kundalik hayotimizga ushbu tamoyillarni ongli tadbir eta olish san'atida. Shunday saodatga O'zbekistonda erishildi, erishilmoqda.**

Inkor qilish kayfiyatidan bunyodkorlik kayfiyatiga, odamlar dunyoqarashini boshqarishdan ularning ongi-tafakkurini demokratik o'zgartirish, demokratik boyitish yo'liga o'tgan, sof demokrat mazmun-mundarija kasb etib, unga xizmat qilayotgan jamiyat hayotini demokratik yangilashga, jamiyatu xalqni ulug' demokratik maqsadlar yo'lida yakdilu yaktan etib, adolat muqaddasligiga

ishontirib, unga da'vat qiluvchi, ruhlantiruvchi *milliy g'oya* (**O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat**), ma'naviyat demokratiya bilan uyg'unlashtirildi.

Ana shu tariqa yangi insonparvar demokratik huquqiy o'zbek davlatchiligi yuzaga keldi va erkinlik, ozodlik, adolat uning demokratik mezoniga aylandi.

O'zbekiston demokratik jamiyat barpo etish jarayonlarini yanada tubdan isloh qilishga qaratilgan **"Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari"** siyosiy qurilish dasturini ishlab chiqib, uning amaliy ijrosini to'liq ta'minlashga kirishdi. Jamiyatni demokratik yanada isloh qilish maqsadida hayotning barcha sohalarini, jumladan, siyosiy va iqtisodiy jabhani, davlat hamda jamiyat qurilishi jarayonlarini **erkinlashtirish** bosqichiga kirishdi. Bu - alohida mavzu.

Ayni paytda, **demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ettita maqsad-vazifalardan** iborat *bosh yo'nalishlari yaxlit kontsepsiya - siyosiy dastur maqomida ishlab chiqildi*. Ular ijrosi boshlab yuborildi. Bu haqda dasturimizning so'nggi ma'ruzasida maxsus to'xtalamiz.

Xulosa:

1. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'z milliy davlatchiligining yangi demokratik bosqichiga qadam qo'ydi.

2. Asosiy Qonunda mustaqil davlatning konstitutsiyaviy maqomi aniq belgilandi va u O'zbekiston xalqining bosh maqsadi, deb hisoblandi (**"insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish"**).

3. Mustaqil demokratik davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, jamiyatda Konstitutsiya va Qonun ustunligi, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bosh qoida, deb aniq belgilandi.

4. Demokratik tsivilizatsiyagagina xos bo'lgan boshqaruvning Prezidentlik instituti joriy etildi. Hokimiyat uch mustaqil bo'g'inga ajratildi. Boshqaruvning bo'lak demokratik institutlari tashkil etildi. Demokratik saylov va odil sudlov tizimlari shakllandi.

5. Inson huquq va erkinliklari muqaddas, inson huquqlari davlat huquqidan, xalqaro huquq normalari milliy huquq normalari ustidan ustuvor, deb topildi. Qonun oldida barcha teng bo'ldi. *"Kuch - qonun adolatida"* tamoyili kuchga kirdi.

6. Qonun ustuvorligi, demokratik tamoyillari qaror topib, xalq uchun erkin hayot, farovon turmush sharoitini yaratish - tub demokratik islohotlarning tamal toshiga aylandi.

7. Odamlar dunyoqarashi o'zgardi. Demokratiya va adolat, haq-huquq va erkinlik xalqning qarorlar, qonunlar qabul qilish jarayonlariga ongli faol ishtirok etish, ular ijrolarini amaliyotda nazorat qilish, oddiy odamlarning davlatni, jamiyatni boshqarishda qatnashishi odat tusiga aylandi.

8. Jamiyatda demokratik, siyosiy va huquqiy ongni yuksaltirish, odamlar ijtimoiy faolligini kuchaytirish orqali xalq hokimiyatchiligi instituti faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan tub demokratik islohotlar qizg'in davom ettirilmoqda va kutilgan aniq samalarini bermoqda.

9. Demokratik printsiplar jamiyat hayotining taqdirilomon mohiyatiga aylanmoqda. Demokratik jamiyat barpo etish jarayonlari va bosqichlarini milliy istiqbolning demokratik mumtoz g'oyalari bilan mafkuraviy-ma'naviy ta'minlash davom etmoqda.

10. O'zbekistonda demokratik islohotlar nazariyasi va amaliyoti Islom Karimov siyosiy teran falsafasi o'laroq, mustaqil milliy demokratik ta'limotni yuzaga keltirdi. Va u umumdemokratik dunyo siyosiy ta'limotining ajralmas uzviy tarkibiga aylanib, uni boyitdi, boyitmoqda.

11. **Eng muhimi** - O'zbekiston o'zi uchun demokratik tsivilizatsiyani kashf qildi va shu tsivilizatsiya makonida yashashdek saodatga erishdi va h.k.

Ana shu tarixiy ob'ektiv omillar va yana boshqa qator qadriyatlar, qizg'in demokratik yangilanish jarayonlari O'zbekistonda ushbu fan yuzaga kelishining ijtimoiy-siyosiy ehtiyojiga aylandi. **Ehtiyoj qondirildi**. Bashariyat tsivilizatsiyasining tarixan boy demokratik tajribalariga tayangan, O'zbekistonning o'z milliy xususiyatlari, an'analari, mentaliteti, o'ziga xos istiqbol yo'li qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish bilan bog'liq konstitutsiyaviy maqsadning nazariy-amaliy tahlili, tahliliy umumlashmasi, ilmiy-amaliy xulosalari barcha uchun, shubhasiz, ibratlidir.

Fanning predmeti. Jahon demokratik tsivilizatsiyasi yutuqlari, Prezident Islom Karimov siyosiy ta'limoti silsilasida O'zbekiston xalqining konstitutsiyaviy maqsadlaridan biri bo'lgan

insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish, uning negizida demokratik fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish bilan bog'liq milliy tiklanishning tub islohiy-strategik jarayonlari va bosqichlari, O'zbekistonning istiqlol va o'ziga xos demokratik taraqqiyot yo'li kontseptsiyasi, uning amaliy tajriba hamda saboqlari, tarixan g'oyat qisqa davrda shakllangan milliy demokratik qadriyatlar, teran siyosiy qarashlar, real demokratik milliy madaniyat tsivilizatsiyasining nazariy-amaliy asos-samaralari, yakunlari, jamiyatda sodir bo'lgan, bo'layotgan qizg'in va izchil ijtimoiy demokratik hodisa hamda voqealar, ular o'rtasidagi sabab-oqibat dialektikasi, botiniy mantiqiy aloqalar uzviyligi *"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti"* fanining **predmeti** hisoblanadi.

Fanni o'qitishning maqsadi - dunyoviy O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish g'oyasi, tarixiy takomil bosqichlari, istiqlol davri jarayonlari bilan bog'liq nazariy-amaliy muammolarni tizimiy-tahliliy umumlashtirish orqali insonparvar dunyoviy huquqiy davlat barpo etish negizida demokratik adolatli, ochiq jamiyatni qurishning, shakllantirishning nazariy-amaliy tajribalari va qonuniyatlarini ochib berish.

Vazifasi - milliy qadriyatlarning umuminsoniy qadriyatlar bilan bevosita uzviyligi, xalqaro huquqning ustunligi negizida inson huquqlari, erkinliklari hamda manfaatlari himoyasiga xizmat qiluvchi, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta'minlangan, xalq hokimiyatchiligi tamoyiliga asoslangan adolatli demokratik jamiyat talablarining mustaqil O'zbekiston davlatchiligi maqomiga uyg'unligi haqiqati o'laroq, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish, uning asosida ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlari hamda bosqichlarining Prezident Islom Karimov siyosiy falsafasiga tayangan nazariy kontseptual g'oyalari, ularning amaliy aniq ijrolari tajribasi va saboqlarini teran o'rganish, ijodiy chuqur o'zlashtirish orqali talabalarda jamiyat hayotining barcha jabhalarida kechayotgan tub taqdirilomon demokratik islohiy yangilanishlar, qizg'in demokratik o'zgarishlar, jamiyatda asl demokratik tsivilizatsiya madaniyatining shakllanishi jarayonlariga ongli faol ishtirok etish, jarayonni yanada sersamar bo'lishiga imkon qadar hissa qo'shishga intilish, unga erishish ko'nikmasini tarbiyalash fanning **asosiy maqsadi** hisoblanadi.

Mazkur fan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi **o'z ilmiy-nazariy va amaliy usullariga** ega. *Ular:*

- *tahliliy, tahliliy-umumlashma usul;*
- *tarixiy usul;*
- *qiyosiy-tipologik usul;*
- *dialektik usul va b.*

Tahliliy, tahliliy-umumlashma usul O'zbekistonda qizg'in kechayotgan demokratik yangilanishlar jarayonlari va bosqichlarining umummushtarak qonuniyatlarini, har bir jarayon, har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari, maqsad hamda vazifalarini, ularning ilmiy-nazariy, ya'ni kontseptual mazmun-mundarijasini, amaliy ijrolari samaralarini, g'oya bilan uning amaliyoti dialektikasini o'rganish, anglash, ijodiy umumlashtirish, ilmiy-amaliy asoslangan muayyan xulosalar orqali jarayon yoxud bosqichning yanada sersamar bo'lishini ta'minlovchi yangi g'oyalar zahirasi hamda ularni amaliyotga aniq joriy etish usul va vositalarini kashf etish imkonini beradi. Natijada talabada ijtimoiy-siyosiy murakkab demokratik jarayonlarning botiniy mohiyatlarini, ichki uzviy qonuniyatlarini mustaqil anglash, mushohada qilish, tahlil etish, umumlashtirish, tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kerak bo'lsa, jarayonni tezlashtirish, yanada samarador bo'lishiga xizmat qiluvchi tashkiliy-ijodiy tashabbus ko'rsatish rag'batini uyg'onadi.

Tarixiy usul vositasida, talaba, avvalo, demokratiya tushunchasi, uning boy nazariy-tarixiy asoslari, ko'p ming yillik amaliyoti, o'tmish mutafakkirlarning demokratiya nazariyasi va takomili bilan bog'liq rang-barang siyosiy-huquqiy qarashlari, g'oyalari, ta'limotlari bilan tanishish, nazariy bilim-savijasini oshirish imkoniga ega bo'ladi. Ayni paytda, talaba demokratik jahon tsivilizatsiyasi tarixi, klassik nazariy tafakkurning rivojlanish va takomil bosqichlari, demokratik tsivilizatsiyaning zamonaviy qadriyatlari, umuminsoniy tamoyillari hamda talablari, ularning amaliy ijrolari tajribalari-yu saboqlari bilan chuqur tanishadi, ularni hurmat qilish va ularga rioya etish, hayoti, faoliyatini demokratik madaniyatdek sog'lom, muqaddas, odil qadriyat asosida tashkil etish,

yashash, ishlash ko'nikmasini o'zlashtiradi. Zotan, jamiyat demokratiyasi va demokratik jamiyat har bir individning demokratik tsivilizatsiyasi mahsulidir.

Qiyosiy-tipologik usul orqali talaba demokratik madaniyat va tsivilizatsiya rivojlangan davlatlar hamda jamiyatlarning shakllanish va taraqqiyot tajribalarini qiyosiy chuqur o'rganish, tipologik umumlashtirish orqali ularning mustaqil O'zbekiston demokratik hayotida, maqomida qay tarzda namoyon bo'layotgani qonuniyatlarini, omillarini teran anglab olishga muvaffaq bo'ladi. Umumtan olingan jahoniy demokratik qadriyatlaru tamoyillari talablariga O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik davlat va demokratik jamiyat amaliyoti qay tarzda javob beradi, ayni paytda, shakllanayotgan demokratik jamiyatning o'ziga xosu o'ziga mos milliy xususiyatlari nimada, degan savollarga aynan ana shu qiyosiy-tipologik usul aniq ilmiy-amaliy javoblar beradi. Xulosani esa talabaning o'zi chiqarib olaveradi.

Dialektik usul talabaga demokratik tsivilizatsiya va uning shakllanish, rivojlanish, takomillashish qonuniyatlarini, o'rganishga, ularning amaldagi ro'yoblari xususiyatlarini ijodiy - tahliliy o'zlashtirishga, jarayonga ongli faol ishtirok etish, uni yanada takomillashtirish imkoniyatlarini izlash, topish amaliyotiga yordam beradi va h.k.

Fanni o'qitishning nazariy-metodologik asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlar, I.A.Karimovning teran shakllangan siyosiy ta'limoti, o'tmish mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy qarashlari, jahon demokratik tsivilizatsiyasining qadim va zamonaviy ilmiy-nazariy g'oyalari, mushtarak amaliy tajriba hamda saboqlari xizmat qiladi.

Mazkur fan Siyosatshunoslik, falsafa, sotsiologiya, tarix, iqtisod, huquqshunoslik, ma'naviyat asoslari, milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, mantiq, dinshunoslik singari ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bevosita aloqada O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish jarayonlari hamda bosqichlarining, yosh mustaqil davlat va jamiyatda demokratik tsivilizatsiya shakllanishining o'ziga xos nazariy-amaliy muammolarini insonparvar demokratik huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyati maqomlarida tadqiq etadi, ilmiy-tahliliy umumlashtiradi, demokratik yangilanishlar jarayonlarini yanada rivojlantirish, uning nazariy-amaliy asoslarini yanada takomillashtirish bilan bog'liq yangi-yangi g'oyalar zahiralari kashf etadi, ularni amalga oshirish mexanizmlarini taklif etadi. Shu maqomi bilan ushbu fan ko'proq Siyosatshunoslik, sotsiologiya va huquqshunoslik fanlariga yaqin turadi.

Jumladan, **Siyosatshunoslik** fani demokratik jamiyat qurilishi jarayonlari, avvalo, siyosiy hodisa ekanligi haqiqatidan kelib chiqqan holda, siyosiy ta'limotlar, siyosiy institutlar va ularning funktsiyalari, siyosiy tizim va siyosiy rejim, ularning takomili, tarkibiy qismlari, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy plyuralizm, ko'ppartiyaviylik, siyosiy huquqlar, siyosiy hokimiyat, siyosiy manfaatlar, siyosiy rahnamo, siyosiy elita, shaxs va Siyosat, siyosiy ijtimoiylashuv singari jamiyat siyosiy hayotining turli jihatlarini hamda sohalarini hozirgi istiqlolcha siyosiy jarayonlar va siyosiy sohani erkinlashtirish qonuniyatlari-silsilasida o'rganish, o'rgatish asosida O'zbekistonda insonparvar demokratik huquqiy davlat hamda jamiyat tizimini shakllantirishning siyosiy xususiyatlari, omillari, asos-manbalarini tahliliy umumlashtiradi. Siyosiy tub islohotlarning aniq samaralarini belgilab, ularning takomillashuv istiqbolini bashorat qiladi.

Huquqshunoslik fani davlat va jamiyatning konstitutsiyaviy-huquqiy tizimini, tizim nazariyasi hamda amaliyotini o'rganadi. Huquqiy davlat, uning yuridik maqomi, asoslari va funktsiyalari, davlatning konstitutsiyaviy - huquqiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish ham shu fan vazifasiga kiradi va h.k.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani bilan **Siyosatshunoslik** fani o'rtasidagi uzviylik, avvalo, demokratik jamiyatning aslida siyosiy maqsad, siyosiy hodisa ekanligida. Demak, demokratik jamiyat qurishning nazariyasi va amaliyoti ham mamlakat siyosiy hayotining uzviy nazariy-amaliy voqeligi, ob'ekti va sub'ekti hisoblanadi. Siyosiy hayot, siyosiy tizim, siyosiy rejim, jamiyat va davlatning barcha siyosiy institutlari demokratik maqom kasb etsa, ularning huquqiy asoslari demokratiya talablari va tamoyillari negizida tashkil etilsa, jamiyatda siyosiy plyuralizm, ko'ppartiyaviylik, siyosiy erkinlik bo'lsa, demak, u jamiyat va davlat mohiyatan demokratik bo'ladi. Boz ustiga, O'zbekiston xalqining demokratik davlat barpo

etish, demokratik ochiq fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdek konstitutsiyaviy maqsadi ham aslida davlat va jamiyatning bosh siyosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

Fanning Sotsiologiya fani bilan uzviyligi, avvalo, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi jarayonlarining nazariy, ko'proq amaliy jihatlarini ijtimoiy fikr chig'irig'idan o'tkazib turilishida, jarayonlarga jamoatchilikning ongli munosabati va ishtiroki darajasini aniqlashda, jarayonga baho berishda, uni yo qo'llab-quvvatlash yoki inkor etishda, jarayonni takomillashtirishda bevosita namoyon bo'ladi.

Fanning Huquqshunoslik bilan aloqasi, eng avvalo, O'zbekistonda shakllantirilayotgan demokratik jamiyatning yaratilgan, yaratilayotgan teran konstitutsiyaviy-huquqiy asos-bazasida. Aynan Konstitutsiya o'z yaxlit maqom-mundariyasi bilan g'irt demokratik mazmun kasb etishi shart. Shundagina uning asosida qabul qilinadigan qonunlar ham, ular ijrosi ham sof demokratik ruh, sof demokratik shakl, mazmun-mundarija kasb etadi. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning shunday demokratik huquqiy asos-bazasi mavjud va bu milliy demokratik taraqqiyot yo'lining umumtan olingan, barcha qat'iy rioya qiladigan siyosiy-huquqiy ko'nikmasiga aylandi.

"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani turdosh ijtimoiy-gumanitar fanlardan farqli o'laroq, insoniyat demokratik tsivilizatsiyasining tarixiy tajribalariga asoslangan holda, respublikamiz demokratik rivojlanish yo'lining o'ziga xos jihatlari ibratida O'zbekiston xalqining odil fuqarolik jamiyati qurish yo'lida insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishdek konstitutsiyaviy maqsad qay darajada bosqichma-bosqich amaliy ijrosini topayotganligi haqiqatini, qonuniyatlari, tajribasini ilmiy-nazariy jihatdan yaxlit mushtaraklikda tadqiqiy umumlashtiradi.

Ushbu fan ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida aynan shu maqomi bilan ajralib turadi. U jamiyatda mavjud ijtimoiy hodisalar va voqealar, ular mutanosibliigi hamda uzviyligi bilan aloqador demokratik jarayonlarning yaxlit tizimiy va tarkibiy mushtarak majmuidan iborat.

2 – mavzu. Demokratik jamiyat to'g'risidagi dastlabki qarashlar va uning rivojlanish bosqichlari.

REJA:

1. Markaziy Osiyodagi dastlabki ijtimoiy-siyosiy qarashlarning
2. shakllanishi. Avestoda "Odil jamiyat" to'g'risidagi qarashlar.
3. IX-XVI asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy muhit. "Odil jamiyat" to'g'risidagi qarashlar.
4. Amir Temurning siyosiy va odil jamiyat to'g'risidagi qarashlari.
5. XVI-XIX asrning birinchi yarmida, XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy hayot.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlarning umumiy zahirida O'zbekiston hududida yashab ijod etgan buyuk mo'tafakkirlarning xizmatlari benihoya katta. Ular o'zlarining ilmiy, tarixiy, badiiy asarlarida jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlari masalasiga doir qimmatli fikrlarni yozib qoldirganlar.

Buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ular yashagan davr bilan bog'lab o'rganish lozim. Chunki ularning dunyoqarashi o'sha davrdagi siyosiy tartiblar, davlatni idora qilish usullari, halqlar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ta'sirida shakllangan.

Markaziy Osiyo hududida siyosiy qarashlar eramizdan bir necha ming yillar avval vujudga kelgan bo'lib, u o'sha davrda hukmron bo'lgan siyosiy g'oyalar, diniy-siyosiy mifologiya shaklida rivojlandi. Dastlabki diniy ta'limotlar otashparastlarning muqaddas kitobi "Avesto"da mujassamlashgan holda yoritilgan. U Markaziy Osiyo halqlarining kadimgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, ijtimoiy-falsafiy fikrlarining muhim tomonlarini o'zida ifodalaydi.

Feodalizm jamiyati va davlatida zardushtiylik g'oyalari o'rnini islom g'oyalari egallaydi. Bu davrda ijtimoiy va siyosiy hayot islom dini ta'sirida rivojlanib, turli g'oyaviy-siyosiy oqimlar, maktablar kelib chiqqan.

Markaziy Osiyo hududida vujudga kelgan siyosiy qarashlar haqida turli davrlarda yashagan olimlar, shoirlar va tarixchilarning arab, fors, turk tillarida yozilgan "Avesto", "Nimon-ut-Tavorix", "Go'zida", "Devon un-Nasab" kabi asarlarida kimmatli ma'lumotlar beriladi. Jaloliy, Bannotiy, Narshaxiyning qator tarixiy asarlarida, "Temurnoma", "Temur tuzuklari", "Boburnoma" kabi tarixiy-badiiy asarlarda ham Markaziy Osiyo halqlarining siyosiy hayotiga doir muhim fikrlar yozib qoldirilgan. Urxun-Enisey yozuvlari, shuningdek kadimgi turk va eron halqlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti masalalari o'z aksini topgan Firdavsiyning "Shohnoma", Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Xojibning "Qo'tadgu bilig", Axmad Yugnakiyning "Hibat-ul-Haqoiq", Alisher Navoiyning "Tarixi mulo'qi Ajam" asarlari ham tariximizdagi siyosiy qarashlarni o'rganishdagi asosiy manbalardir.

Siyosiy fikrlarning vujudga kelishi va rivojlanishida

Islom dini ham muhim manbalardan biri hisoblanadi. Arabiston yarim orolida islomning paydo bo'lishi va uning boshqa hududlarga tarqalishi shu halqlar tarixida yirik tarixiy voqea bo'ldi. U yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga o'tishni bildirardi. Siyosat va siyosiy masalalar shariat (Qur'on asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy va fukorolik qonuniyat va qoidalari majmui)da o'z aksini topgan. Shariat ikki qismga - ibodiy va siyosiy qismlarga bo'linadi. Ibodiy tomoni o'zgarmaydi ammo siyosiy tomoni jamiyat o'zgarishi va rivojlanib borishiga moslashib boraveradi. Musulmonlar sonining ko'payishi va yangidan yangi davlatlarda islomning qabul qilinishi natijasida hamma uchun tushunarli bo'lgan qoidalar to'plamiga zarurat paydo bo'ladi.

Markaziy Osiyo hududida siyosiy fikrlarning rivojlanishiga IX-X asrlarda hukmronlik qilgan somoniylar sulolasining ta'siri juda katta edi. Bu davrda markazlashgan kuchli feodal davlatini o'rnatishga harakat qilingan.

Somoniylar hukmronligi yillarida mamlakatda siyosiy hayot jonlangan edi. Bu yillarda davlat ishlari ancha tartibga solindi. Ayniqsa, davlat qurilishi sohasida katta o'zgarishlar qilingan. Biroq somoniylar hukmronligi sharoitida siyosiy hayot o'zining murakkab va ziddiyatli muammolariga ega edi. Qabilalar o'rtasida o'zaro ko'rashlar, viloyatlarning markazga bo'ysunmasligi, halq qo'zg'olonlari, bosqinchilik harakatlari to'xtovsiz davom etdi. Mehnatkash halqning huquqsizligi, ularning hayotida chuqur iz qoldirdi. lekin shunga qaramay, somoniylar davri Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi ulug' mo'tafakkirlarni etishtirgan edi.

Ushbu davr adabiyoti uch tilda - arab, fors va turkiy tilda yaratildi. Markaziy Osiyo tarixiga doir deyarli barcha adabiyotlarda ushbu davr o'z salmog'i, mazmuni jihatidan Uyg'oniish davri deb ataladi. Uyg'oniish davri madaniyatining o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1.Dunyoviy ma'rifatga intilish;
- 2.Tabiatga qiziqish, tabiatshunoslik ilmlarining rivoji;
- 3.Insonni ulug'lash, komil insonni tarbiyalash;
- 4.Universallik-qomusiylik, barcha narsa bilan qiziqish.

Markaziy Osiyoda davlat va jamiyatni yuritish masalalariga Abu Nosir Muhammad ibn Muhammad ibn o'zluk ibn Tarxon Forobiy benihoya katta hissa qo'shgan bo'lib, u 260 xijriy (873-874) yilda Forob shahrida tug'ilgan. Ma'lumki, IX asrlarda, ya'ni Forobiy yashab ijod qilgan davrda Markaziy Osiyo Arab halifaligining bir qismiga aylantirilgan edi. G'oyaviy dunyoda esa islom siyosiy mafkurasi hukmronlik qilib, maktab, madrasa va maschitlarda fors, arab va turk tillarida yozilgan diniy kitoblar o'qitilar edi. Arab halifaligining markaziy shaharlari Bag'dod va Damashqda ilm fan boshqa shaharlarga nisbatan ancha taraqqiy qilgan. Shuning uchun ham Forobiy boshqa ko'p zamondoshlari kabi arab tilini, chuqur o'rganadi. o'z davrining etuk entsiklopedik olimi darajasiga ko'tariladi.

Forobiy ko'plab xorijiy tillar, jumladan kadimgi yunon tilini ham o'rganib, ular orqali Aflotun, Arastu kabi buyuk mo'tafakkirlarning ilmiy merosidan bahramand bo'ladi. U riyoziyot, tibbiyot

kabi tabiiy fanlar bilan bir vaqtda falsafa, mantiq, siyosat, davlat haqidagi ijtimoiy fan sohalari bilan ham shug'ullandi va o'zining yuzdan ortiq ilmiy asarlarini avlodlarga meros qoldirgan.

Forobiyning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy mavzudagi merosi juda boy bo'lib, u o'zining qator asarlarini ana shu muhim ijtimoiy masalalarga bag'ishlaydi. Mo'tafakkirning jamiyat, davlat, huquq, siyosat, adolat, ta'lim, va tarbiya haqidagi g'oyalari, qarashlari «Baxtga erishish haqidagi traktat», «Urush va tinch-totuv yashash haqida», «Jamiyatni o'rganish haqidagi kitob», «Davlat arboblari haqidagi aforizmlar», "Fozil odamlar shahri" kabi asarlarida o'zining chuqur ifodasini topgan.

Forobiy jamiyat, davlat va huquq masalalarini o'rganishda ko'p jihatdan ushbu masalalarning nazariy, umumiy falsafiy asoslarini tushuntirishga harakat qiladi. U o'zining asarlarida jamiyatning kelib chiqishi, davlatning paydo bo'lishi, uning shakli, davlat arbobi va uning vazifasi, ular oldiga qo'yilgan asosiy talablar, davlatni idora etish usullari haqida o'zining chuqur falsafiy-siyosiy qarashlarini bayon qiladi.

Forobiy o'z asarlarida bir qator muhim ijtimoiy masalalarni yoritishga urinadi, bular:

1. Ijtimoiy hayot haqidagi fan va uning vazifasi;
2. Inson jamoasining vujudga kelishi, tarkibi va turlari — bu sohadagi turli fikrlar;
3. Shahar - davlat jamoasining hayoti va fazilati, davlatning faoliyati va uni boshqarish;
4. Insonning jamiyatdagi o'rni va vazifasi, aqliy, axloqiy kamoloti masalalari;
5. Davlat jamoasining maqsad va vazifalari, insonni baxt-saodatga erishtirishning usul va yo'l-yo'riqlari.
6. Forobiy inson tomonidan jamiyatda yashash uchun sodir qilinadigan harakatlarni ikkiga bo'ladi:
7. Adolatli, haqiqiy aqlga muvofiq harakatlar. Bu harakatlar orqali haqiqiy baxtga erishish mumkin.
8. Adolatsiz, maqsadga muvofiq bo'lmagan harakatlar, ular baxtsizlik keltiradi.

Forobiy jamiyat siyosiy hayotida davlat apparati tomonidan olib boriladigan ishlarga alohida e'tibor beradi. Uningcha, davlat boshlig'i va davlat xizmatchilari boshqaruv san'atini yaxshi bilishlari kerak. Forobiy ana shunday boshqaruv kishilari baxtga, tinchlikka olib boradi, bunday davlatda boshqaruv adolatlidir, aksincha, baxtsizlikka, urush va qirg'inliklarga olib boradigan boshqaruv adolatsizdir, deb hisoblaydi. U ideal (fozil) shaharlar, ya'ni ideal shahar davlatlari va ideal bo'lmagan shahar davlatlari xususida ham fikr yuritadi. U fozil shahar eng adolatli va ma'rifatli rais-rahbarni o'zida mujassamlashtirgan donishmand tomonidan boshqarilib, bu davlat - shahar aholisining o'zaro ko'maklashuviga, bir-biriga yordam berishiga asoslanadi, deb hisoblaydi.

Uning fikricha, boshqaruv (idora) san'ati ikki qismdan iborat bo'ladi: nazariy va amaliy. Nazariy qismi - boshqaruvning asosiy usul va qonuniyatlari haqidagi bilim bo'lsa, amaliy qism - davlatni idora qilishdir. Ularning har ikkisi ham siyosiy amaliyot, tajriba va kuzatuv natijasida erishiladi.

Forobiy davlatning kelib chiqishi kabi masalalarga to'xtalib, ularga javobni ilohiyotdan emas, balki mavjud jamiyatdan izlaydi. Mo'tafakkir inson tabiatan shunday yaratilganki, u doimo biri ikkinchisiga nisbatan dushmanlikka emas, balki ittifoqda, aloqada munosabatda bo'lishga intiladi, degan fikrni yoklab chikadi. Xuddi shu o'zaro intilish, harakat asosida davlatning kelib chiqishini e'tirof etadi. Forobiy jamoani katta kichikligiga ko'ra uch turga bo'ladi:

1. Buyuk jamoa - dunyodagi barcha halqlarning birlashuvi;
2. O'rta jamoa - bir halq yoki millatni birlashtiruvchi jamoa;
3. Kichik jamoa - alohida bir shahar davlatini birlashtiruvchi jamoa;

Forobiyning fikriga ko'ra, halqlar bir-birlaridan tabiiy odatlari, axloqlari hamda fe'l-atvori va tili bilan farq qiladi. Forobiy halqlarning fe'l-atvori, odat va axloqlarining shakllanishida jug'rofiy muhitning ta'sir kuchiga yuqori baho beradi.

Forobiyning aytishicha, odamlarning eng takomillashgan jamoasi - bu shahar davlatlaridir. Qishloqlar shaharlardan keyinda turuvchi va shaharlarni ozik-ovqatlar bilan ta'minlovchi jamoalar

hisoblanadi. Bu erda biz Aflotun va Arastuning shahar-davlatlar (polislar) haqidagi ta'limotlarining Forobiy siyosiy qarashlariga ta'sirini ko'ramiz.

Forobiy shahar - davlatlarni ikki toifaga bo'ladi:

1.Al - Madina al - Fozila.

2.Al - Madina al - Johiliya.

Yuqorida ta'kidlanganidek, u fazilatli va fazilatsiz shahar - davlatlarning mavjud bo'lishligini e'tirof etadi. Uning fikricha, agarda barcha shahar aholisi o'zaro birlikda, ittifoqda yashab, bir-birlariga yordam ko'rsatsalar, bunday shaharlar fazilatlidir. Ushbu masalada Forobiy ilgari, barcha halqlar o'zaro tinch-totuv va dustlik asosida yashasalar, er yuzida tinchlik o'rnatilishiga ishonch bilan qaraydi, deb hisoblaydi.

Forobiy fazilatli va fazilatsiz shaharlar haqida yozar ekan, u mavjud feodal davlatlardagi adolatsizliklarni, tengsizliklarni qoralab, davlat boshliqlarini va barcha fuqaroni yaxshi ish qilishga, o'zaro yordam asosida yashashga da'vat qiladi. Forobiy o'z asarlarida davlat atamasini ishlatmaydi. Ammo u shahar jamoalari deganda, shahar davlatlarni nazarda tutadi. Davlatning kelib chiqish sabablarini odamlarning jamoa bo'lib yashash ehtiyojlaridan deb biladi. Davlatning shakli masalalariga ham to'xtalib, shoh donishmand va o'z lavozimiga loyiq bo'lishini e'tirof etadi. Bu bilan Forobiy taxt otadan bolaga meros bo'lib qolishini qoralaydi.

Forobiy o'zining siyosiy qarashlarida yakka hokimlik davlat shaklidan voz kecha olmaydi. Uning fikriga ko'ra davlat boshlig'i har tomonlama etuk shaxs bo'lishi lozim, ammo bu erda shuni aytish kerakki, Forobiy yakka hokimlik to'g'risida gapirar ekan uning oldiga 12 talabni qo'yadi. Ideal davlat boshlig'i haqiqatni sevuvchi, uning uchun ko'rashuvchi, boylikka xirs qo'ymagan, adolatsizlik va jabr - zulm qiluvchilarga qarshi ko'rashuvchi, botir, jasur, kurkmas bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Shu narsa e'tiborga molikki, Forobiyning o'zi ham ana shu 12 fazilatning hammasi yagona bir kishida bo'lishiga shubhalanib, davlatni bir kishi emas, balki bir necha kishilar boshqarishi kerak, degan g'oyani ilgari suradi. Bu erda biz Forobiyni yakka hokimlik shakli doirasida cheklanib qolmasdan, balki o'z davridan ilgari ketganini ko'ramiz.

Abu Rayxon Muhammad ibn Axmad al Beruniy 360 xijriy (973 melodiy) yilida Qiyot shahrining atrofidagi qishloqlarning birida dunyoga kelgan. Uning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi Markaziy Osiyo xonliklari o'rtasida feodal tarqoqlik va islom siyosiy mafkurasi hukmronlik qilaetgan bir zamonda shakllandi. Beruniy yoshligidanok ilm-fanning turli sohalarini egallash bilan mashg'ul bo'lgan. U 16 yoshida globus yasab ilm- fan ahllarini xayratlantirgan edi.

U «Minerallar» asarida kishilarning ehtiyojlari turli tuman va ko'p bo'lishi, fakt bir necha kishilar uyushmasigina uni qondirishi mumkinligini, ana shuning odamlar shaharlar yaratishga intiladilar, deb hisoblagan. Beruniy odamlar jamoa bo'lib yashashining asosiy qoidalari o'zaro yordam, bir-birlari bilan tinch-totuv yashash, umumiy manfaat uchun ishlashga asoslangan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Barcha halqlarning tinch-totuv yashashligi g'oyasini ilgari surib, turli millatga mansub bo'lgan kishilar o'zaro totuvlikda yashaganlaridagina ularning hayoti mazmunli va barakali bo'lishi haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Har qanday nizo-janjallar, toj-taxt talashish, zo'ravonlik, bosqinchilik harakatlariga qarshi turgan buyuk olim, mamlakatlar va davlatlar o'rtasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini olib borish g'oyasini ilgari so'rgan.

Beruniy davlat va huquqning paydo bo'lishi va ularning vazifalari masalalarini Forobiy kabi ehtiyojdan deb biladi. Boshqacha qilib aytganda, odamlar ijtimoiy adolatli tartib, qoida o'rnatish uchun davlatga birlashadilar, degan fikrda bo'ladi. Beruniy davlatning shakli masalasida esa mamlakatni shohlar-mutlak hokimlar emas, balki ma'rifatparvar shohlar boshqarishi keraqligi haqidagi g'oyani ilgari suradi.

Beruniyning siyosiy-huquqiy qarashlari, yuqorida kurib chiqqanimizdek, eng ilg'or va chuqur insoniy qoidaga asoslanadi. U insonni uning tafakkurini ulug'lab, shohlar va qonuniyatlar ana shu xazrati inson uchun xizmat qilishi hamda uni bosqinchilardan himoya qilishi kerak, degan g'oyalarni ilgari suradi. Beruniy fikricha hokim o'z fikri va qarorlarida qat'iy bo'lishi, shohning o'zi ham "yaratuvchilik ongiga " ega bo'lishi kerak. Odil hokimning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik va adolat o'rnatishdan iboratdir. Beruniy sinf va

tabaqalar to'g'risida ham fikr bildirib, ular asosida boylik va nasl-nasabning ulug'ligi emas, balki biron-bir mashg'ul ot va vazifa etmog'i kerak, deydi.

Abu Ali ibn Sino 908 yilda Afshona (hozirgi Pyoshku noxiyasi) qishlog'ida tug'ilgan, uning ismi Xusayn bo'lib, 5 yoshga tulganida ota-onasi Buxoro shahriga kuchib boradi. Ibn Sino yoshligida ilmi nujum, riyoziyok, mantiq, ritorika va fikx (huquq) masalalarini chuqur o'rganadi. 999 yilda Buxoro Koraxoniylar tomonidan bosib olinganidan keyin, u Urganch shahriga ketishga majbur bo'ladi.

Ibn Sino Sharqda «ash-Shayx» yoki «ar-ra'is» degan tahallus bilan mashhur bo'lgan bo'lsa, G'arbda Avitsena nomi bilan taniladi, uning hayoti, dunyoqarashi haqida adabiyotlarda turlicha qarashlar mavjud. Ibn Sinoning siyosiy qarashlari Abbosiylar halifaligining siyosiy tushkunlikka uchragan hamda xonliklar, bekliklar o'rtasida o'zaro urushlar kuchaygan bir zamonda shakllanadi. Mamlakat hayotida ruy beraetgan siyosiy tushkunlik mo'tafakkirni yoshlik yillaridanok turli shaharlarda, xonliklarda sarson-sargardonlikda yurishga majbur etadi.

O'sha davrda Urganch shahrida «Ma'mun akademiyasi» mavjud bo'lib, unda Abu Rayxon al Beruniy, Abu Saxl al Masixiy, Abdul - Xayr al Hamar kabi ko'plab olimlar ijod qilaetgan edilar. Ibn Sino ular bilan yaqindan tanishib, Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun saroyida xizmat qiladi

Maxmud G'aznaviy Xorazmda mashhur bo'lgan barcha olimlarni o'z saroyiga taqlif qiladi. Ibn Sino bunga rozi bo'lmasdan, Xorazmdan chiqib ketishga majbur bo'ladi. Bundan g'azablangan Sulton Maxmud G'aznaviy atroflarga chopar yuborib, olimni ushlab saroyga olib kelishni buyuradi. Mo'tafakkir Maxmud G'aznaviydan yashirilib (1015-1024), Hamadonda to'xtaydi. Hamadon hokimi Shams ad-Dauli esa uni o'ziga vazir qilib tayinlaydi. Ibn Sino bevosita davlat arbobi sifatida davlat ishlarini boshqarish bilan mashg'ul bo'ladi. Ammo Ibn Sinoning taraqqiyparvarona fikrlari davlat mahkamasidagi mulozimlarning reaktсион guruhlariga ma'qul kelmaydi. Natijada u vazirlikdan chetlashtiriladi. Ibn Sino Hamadondan Isfaxon shahriga (1024-1037) ketadi. Isfaxon shahrida o'zining qator asarlarini yozadi. Ulug' mo'tafakkir 1037 yilda 56 yoshida Hamadon shahrida vafot etadi.

Ulug' haqimning sotsial tabaqalar, davlat, huquq, qonuniyat va qoidalar to'g'risidagi fikrlari ko'p jihatdan Forobiy qarashlariga o'hshab ketadi. Undagi ijtimoiy siyosiy dunyoqarashning shakllanishiga, shubhasiz, Yunon olimlari Aflotun, Arastu, Sukrot dunyoqarashlari ham ta'sir qilgan.

Ibn Sino qarashlarida e'tiborga molik narsa - bu ideal davlat to'g'risidagi g'oyadir. Uning fikriga ko'ra, ideal davlat tepasida ma'rifatparvar shoh turishi kerak. Jamiyat a'zolarining barchasi foydali mehnat bilan shug'ullanishlari lozim. U insonlarni jamiyatdagi tutgan o'rni va vazifalariga qarab uch guruhga ajratadi: a) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug'ullanuvchilar; b) bevosita xom ashyo, zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lganlar; v) davlatni qo'riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlashni ta'minlovchi harbiylar.

Ibn Sino jamiyatni davlatsiz, qonun-qoidasiz tasavvur qila olmaydi. U o'zining «Risolai tadbiri manzil» asarida yozgan ediki, «agar hamma odamlar shoh sultonlardan iborat bo'lsa, yoki hammalari oddiy mehnatkash bo'lsalar edi, ularga rahbarlik qiluvchi sultonlar, xonlar bo'lmasa edi, bunday hollarda ularning barchalari halok bo'lgan bulur edilar.» Mo'tafakkir jamiyatdagi moddiy tengsizlikni e'tirof etib odamlarning hammalarini boyib ketishlariga va, aksincha, kambag'allashib ketishlariga qarshi chikadi. Uningcha, agarda hamma jamiyat a'zosi birdek boylikka, mulkka ega bo'lsalar u holda bir kishini ikkinchi kishiga yordam ko'rsatishi bir-birini rag'batlantirilishi tugatiladi. Aksincha odamlarning hammasi yo'qsillarga aylansalar, bunday holda, ular ocharchilikdan qirilib ketadilar.

Shunday qilib, Ibn Sino jamiyat a'zolarini nihoyatda boyib va aksincha, kambag'allashib ketishlariga qarshi. U odamlarni o'zaro hamjihatlikda, bir-birlariga yordam ko'rsatish qoidalariga asoslanib yashashga da'vat qiladi. Demak, Abu Ali ibn Sino ham ilg'or g'oyali kishilar kabi halqlar va davlatlar o'rtasida tinchlik bo'lishini, zolim shohlar o'rnida adolatli, ma'rifatparvar shohlar mamlakatni boshqarishini, shuningdek, jamiyatda ilm-fan taraqqiy etishini orzu qilgan.

XIV asrning o'rtalariga kelib, dunyoni larzaga solgan mug'ullar hukmronligiga qarshi Xurosonda boshlangan ozodlik harakati Movarounnaxrga etib keladi.

Mug'ullar hukmronligining mag'lubiyatga uchrashishiga mahalliy aholining ozodlik uchun olib borgan ko'rashlari asosiy sabab bo'ldi. Ana shu ko'rashda o'z halqining raxnamosi, buyuk sarkarda Amir Temur juda katta xizmat qildi. Uning butun hayoti va faoliyati zulm va zuravonlikka qarshi ko'rash, xonlar va beklar o'rtasidagi qirg'in-barot urushlarga chek qo'yish hamda kuchli markazlashgan davlatni o'rnatish uchun ko'rash bilan bog'liqdir. Uning nomi fakat Turonga emas, balki butun dunyoga yoyildi. U uzbek halqining buyuk davlat arbobi va sarkardasi sifatida shuxrat kozondi va jaxon taraqqiyparvar kuchlari kalbidan mustaxkam joy oldi.

Amir Temur o'z imperiyasini tuzishga kirishar ekan, u Samarkanddan boshqa shaharlar va mamlakatlarni birma-bir ishg'ol qila boshlaydi. Bu haqda "Temur tuzuklari" va «Zafarnoma»da uning zafar yurishlari haqida hikoya qilinadi. Temurning zafar qozonishida «uch yillik yurish», «byosh yillik yurish», «etti yillik yurish» lari mashhurdir. Amir Temur davlatini idora qilishda kuchli va ko'p sonli qo'shin kuchiga tayangan va uning yordamida o'zi boshqargan davlatning hududlarini kengaytirishga muvaffaq bo'lgan.

Amir Temur uzga mamlakatlarni o'z davlatiga qo'shib olishda kengash, maslaxat, tinchlik yo'lini taklif etgan. Masala tinchlik bilan hal bo'lmasligiga ko'zi etgandagina, kuch asosida ish ko'rgan. U o'zining ana shu jihatlari bilan boshqa bosqinchi shohlardan, hukmdorlardan farq qiladi.

Amir Temur nomi bilan bog'liq bo'lgan uning siyosiy qarashlari «Temur tuzuklari», «Tuzo'qi Temuriy», "Temuriyning boshidan kechirganlari" kabi nomlar bilan Sharq va G'arbda mashhur bo'lgan. Juda ko'p xorijiy tillarga tarjima qilingan.

«Temur tuzuklari» Temur kodeksi, ya'ni Amir Temurning davlati va uni idora qilish me'yorlari, qoidalarining to'plamidir. Undan biz O'rta asrlardagi hukmron siyosiy qarashlar, qoidalar, qonuniyatlar va ular haqidagi qarashlarni o'rganamiz.

Temur o'z «Tuzuklari» da aniq va ravshan qilib, davlatni idora qilishda o'n ikki qoidalariga asoslanganligini hikoya qiladi. Temur o'z imperiyasini tuzishda va uni boshqarishda yangi diniy mafkurani yaratmasdan islomni tanlaydi. Asosiy qonuniyat qilib esa shu din zaminida vujudga kelgan shariatni qabul qiladi va uni himoyalaydi. Buyuk imperiyani mustaxkam mafkura va qonuniyat-qoidaga asosan idora etish Temurning naqadar savodli, tadbirkor va qudratli soxibkiron ekanligidan dalolat beradi.

Ikkinchi muhim qoida esa davlatning, mamlakatning ustunlarini tashqil qilgan turli tabaqalar va toifalar bilan birgalikda bamaslaxat ish qurish, siyosatni yurgizish bo'ldi. Temurning ulug'ligi, kuchli siyosatchi ekanligi shundaki, u fakat kuchiga emas, balki birinchi navbatda, halqqa tayangan holda davlatni boshqaradi. Muhim ishlarni ular bilan kengashgan holda olib boradi. «Ikkinchisi shulkim,- deb yozadi u,- un ikki tabaka va toifadagi kishilar bilan mamlakatni zabtg etdim, ularni idora qildim. Davlat, saltanat ustunlarini o'shalar bilan kuvvatlab, majlislarimni shular bilan ziynatladim». Soxibkiron o'z vorislariga vasiyat qilar ekan, jamiyatni turli tabaqalarga va toifalarga bulinishi va ularning tutgan o'rinlari muhim ekanligini, davlatni boshqarish ularsiz mumkin emasligiga ishora qiladi.

Uchinchi qoidada Amir Temurning maslaxat, tadbirkorlik, faollik va xushyorlik, ehtiyotkorlik bilan ganim qo'shinlarini engganini, boshqa davlatlarni o'z Imperiyasiga qo'shib olgani haqida fikr yuritiladi. Gap shundaki, Amir Temur uchun tadbirkorlik, kengash bilan ish qurish, ehtiyotkorlik bu qonuniyat edi.

Turtinchi qoida davlat ishlarini saltanat qonuniyatlariga asoslangan holda boshqarish to'g'risida fikr yuritiladi. Unda Temur va uning mulozimlari qonuniyatchilikka asoslangan holda ish ko'rganligi, amirlar, vazirlar, sipoxlar o'z lavozimida va martabasiga ko'ra ish yuritganligi kayd etiladi.

Byoshinchisi - amirlar va sipoxlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish, ularga izzat va xurmat ko'rsatish, martaba va unvonlarini hurmatlash.

Amir Temur ular turmushidan xabardor bo'lib, mablag'ni ayamagan.

Shuning uchun ham amirlar unga jon-dilidan xizmat qilganlar. Ularning kaxramonliklari natijasida soxibkiron janglarda g'olib chiqqan.

Oltinchisi - adolat va insof bilan ish qurish. Soxibkiron gunoxkorga ham, begunoxga ham raxm-shafkat qilgan. «Haqkoniyat yuzasidan hukm chiqardim», - deb yozadi Temur.

Etinchisi - saidlar, ulamoyu mashoyix, oqilu-donolar, muxandislar, tarixchilarni e'tiborli shaxslar deb izzat va xurmat qilgan. Ular bilan suxbatda bo'lgan hamda ulardan maslaxat suragan. Aksincha, buzuk, ogzi shalok, giybatchi odamlarni o'z majlisiga yaqinlashtirmagan. Ularning gapiga kulok solmagan.

Sakkizinchisi - azmu jazm bilan ish tutgan, ya'ni biror ishni amalga oshirishga qaror qilgan bo'lsa, unga butun vujudi bilan kirishib, oxiriga etkazgan.

To'qqizinchisi - raiyat (oddiy halq) xol-axvolidan doimo ogox bo'lgan. Ularning ulug'larini oga qatorida, kichiklarini esa farzand o'rnida ko'rgan. Har shahar va qishloqning urf-odatiga, qonuniyat va qoidalariga xurmat bilan qaragan. Ulardan xabardor bo'lish uchun tarixchi-xabarchilarni yozma ravishda turli halqlar hayotidan xabardor qilib turishlarini talab qilgan. Hokimlar, sipoxlar tomonidan raiyatga jabru sitam etkazilgan bo'lsa, ularni adolat va insof yuzasidan jazolagan.

O'ninchisi - turk, tojik, arabu ajamning turli toifalaridan o'z panoxiga kirgan kishilarga xurmat bilan qaragan. Dustlik qilgan kishilarga nisbatan muruvvat, exson, izzatu ikrom haqqini ado etgan.

Kimki dushmanlik qilib, keyin po'shaymon bo'lib, tavba qilgan bo'lsa, dushmanligini unutgan. Unga muruvvat ko'rsatgan.

O'n birinchisi — farzandlar, karindoshlar, oshna-ogayni, kuni-qo'shnilar va ular bilan dustlashgan kishilarni davlat martabasiga erishganda ham unutmagan. Ularga hamma vaqt birdek izzat va xurmat ko'rsatgan. Dust, dushman bilan kelishib yashagan.

O'n ikkinchisi - dust, dushmanligiga qaramay, har joyda ham sipoxlarni xurmat qilgan, agar dushman sipoxlardan qaxramonlik ko'rsatib Temurga nisbatan qilich ko'targan bo'lsa ham unga muruvvat qilgan. lekin o'z soxibiga xienat qilib, unga dushmanlik qilganlarga nisbatan murosasiz bo'lgan.

Amir Temurning siyosiy qarashlari uning o'z davri uchun kanchalik muhim o'rin olgan bo'lsa, bu qarashlarda ilgari surilgan g'oyalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Davlatlar yashab kelaётgan va ular orasida o'zaro munosabatlar davom etayotgan hozirgi sharoitda Temurning siyosiy qarashlaridan foydalanish, u ta'riflab bergan va o'zi bevosita amal qilgan qoidalarga asoslanib ish qurish muhim ahamiyatga ega.

O'rta Osiyoda siyosiy qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishida ulug' mo'taffakir, shoir va davlat arbobi Mir Alisher Navoiyning xizmatlari kattadir. Uning butun hayoti va ko'rashi mehnatkash halq manfaatlariga bilan uyg'unlashib ketgan.

Alisher Navoiyning siyosiy qarashlari uning davlat arbobi sifatidagi faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Xusayn Boykaro saroyida hukm so'rgan tartib-qoidalar, davlatni idora qilish usullari, amir va beklarning toj-taxt uchun olib borgan foijali harakatlari, oddiy halq ommasining ayanchli axvoli bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil masalalar Navoiyning siyosiy qarashlarida muhim o'rin egallaydi.

Navoiyning siyosiy qarashlarida ifodalangan g'oyalar hozirgi kunimiz uchun ham kattaahamiyatga ega. Bu qarashlarda siyosat, siyosiy hayot va siyosiy munosabatlarning shunday masalalari bayon qilinganki, ularda hozirgi kunda jamiyatni siyosiy rivojlantirishning ko'pgina masalalariga javob topish mumkin.

Alisher Navoiyning siyosiy qarashlari uning davlat ishlarini boshqarish jarayonida, ayniqsa, chuqurlashib bordi. U davlat ishlariga kirishar ekan, birinchi galda halqning tinch hayotini buzgan shahzodalar va amalparastlar o'rtasida taxt uchun ketayotgan qon to'kishlarning oldini olish va bu bilan mamlakat siyosiy hayotida ruy berayotgan siyosiy tarqoqlikka chek qo'yishga o'rinadi. Navoiy shaxzoda Yodgor Muhammadning fitnasini fosh qilib, uni bartaraf etadi va bu bilan mamlakatda yuz berishi mumkin bo'lgan qirg'inning oldini oladi. Amaldorlarning jabru sitamiga qarshi Xirot mehnatkashlari bilan o'zi muzoqara olib boradi hamda aybdor amaldorlarni davlat ishlaridan chetlatib, ularni jazolaydi. Bu esa isyonning bostirilishiga va yuzlab kishilar konining to'qilmasligiga olib keladi.

Xusayn Boykaro tomonidan . vazirlikka tayinlangan Navoiy mamlakatning tinchligi va osoyishtaligi uchun ko'rashadi. U oldindan orzu qilayotgan orzularini, istaqlarini, ya'ni mamlakatda sodir bulayotgan kirgishshklarning oldini olish, mehnatkashlarning hayotini yaxshilash, taraqqiyparvar kuchlarni kullab-kuvvatlash, qisqacha qilib aytganda, mamlakatda adolatli tartibni o'rnatish uchun barcha imkoniyatlarni ishg soladi.

Alisher Navoiy siyosiy ongining shakllanishi va rivojlanishini nisbiy ravishda ikki davrga bo'lsak bo'ladi. Birinchi davr - bu Alisherning yoshlik yillaridan tortib, toki vazirlikdan iste'fo bergan davrigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga olsa, ikkinchi davr esa -vazirlikdan iste'fo bergan vaqtdan boshlab, toki umrining sunggi kunlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Birinchi davrning harakterli tomoni shundaki, bu vaqtda shoir hali mamlakatda adolatsiz podsho o'rniga adolatli podsho kelishiga va baxtli jamiyatga erishishi mumkinligiga ishonadi hamda uni amalga oshirish uchun ko'rashadi. Bu ko'rash yo'lida u vazirlik lavozimigacha bo'lgan davlat ishlarida xizmat qilib, mamlakatda tinchlik o'rnatish, obodonchilik ishlarini yanada rivojlantirish, taraqqiyparvar kuchlarni kullab-kuvvatlash kabi ishlarni amalga oshiradi. Bu davrda shoir ma'rifatparvar shoh tarafdori bo'ladi. lekin shoir siyosiy ongining muhim boskichini ikkinchi davr tashqil etadi.

Navoiy katta siyosiy ko'rash yo'lini bosib utib, boy tajribaga ega bo'lganidan keyin ijtimoiy-siyosiy qarashlarida yanada ilgarilash yuz beradi. Mo'tafakkir feodal davlati va huquqining tor doiralarida cheklanib olmasdan va, shuningdek, fakat o'z vatanida markazlashgan adolatli davlatni barpo etish g'oyasida qolib ketmasdan, yanada ilgarilab, butun dunyoda yagona markazlashgan adolatli davlat bo'lishi, uning tepasida esa adolatli shoh turishi kerak, degan g'oyagacha etib boradi. Shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari rivojlanishida katta taraqqiyot yuz berib, u mavjud dunyodan, davlatdan xayolan o'zilgan holda, utopik xayollar asosida butun bir xayoliy davlat - «Saddi Iskandariy» dostonidagi Iskandar davlatini yaratadi. Iskandar davlati utopik davlat bo'lib, Navoiy unda o'zining siyosat, davlat, huquq haqidagi istak va orzularini, g'oyalarini mujassamlashtirgan holda bergan.

Navoiyning fikricha, kelajakda butun dunyoda adolatsiz davlatlar tugatilib, ularning o'rniga yagona markazlashgan davlat tashqil topishi kerak.

XIX asrining ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida butun Turkiston chorizm tomonidan bosib olindi. Bu erda chorizm o'zining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirdi, ya'ni bu ulkani o'zining xom ashyo bazasiga aylantirdi. Chor amaldorlari mustamlaka aholisini asoratga solishning o'ta vaxshiyona usullarni kullashga va shu yo'l bilan bu erda o'zining hukmronlik siyosatini saqlab qolishga harakat qildi. Ular ulkada boshqarishning shunday ma'muriy vositalarini ishg soldilarki, okibatda mahalliy aholi o'zining barcha ijtimoiy va siyosiy huquqlaridan, o'zlarining tili - davlat tili mavqeidan maxrum bo'ldi.

Chor xukumatining mustamlakachilik siyosati shu kadar vaxshiyona tus oldiki, bu xol halq ommasining ozodlik uchun ko'rash harakatlari boshlashiga sabab bo'ldi. Bu harakatlarga mustamlakachilik zulmidan azob tortgan aholining turli tabaqalarini birlashtirdi, ammo bu harakatlar juda tarqoq bo'lib, ulkani mustamlakachilik zulmidan kutkarishga ojiz edi.

Mustamlakachilik zulmiga va o'sha davrda hukmronlik qilgan siyosiy munosabatlarga norozilik kayfiyatlari O'zbekiston hududida yashagan va ijod qilgan unlab buyuk mo'tafakkirlarning siyosiy qarashlarida o'z ifodasini topgan. Ular ulkada hukm so'rgan ijtimoiy adolatsizlikning har qanday ko'rinishlariga qarshi ko'rash olib borish zarurligini chuqur anglab etdilar va keng halq ommasining ozodlik, erkinlik hamda tenglik yo'lidagi orzu-istaqlarini o'z asarlari orqali ifoda qilib berdi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida O'zbekiston hududida vujudga kelgan siyosiy qarashlarda Axmad Donish (1827-1897) alohida o'rin egallaydi. Uning siyosiy qarashlari, xususan, Buxoro amirligi sharoitida mavjud bo'lgan siyosiy tartiblar va harakatlarni, davlat boshqaruvi va to'zilishini, amirlik olib borgan ichki va tashqi siyosatning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Axmad Donish Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy hayotni Rossiya bilan takkoslab, ular orasida juda katta farq borligini ko'rsatadi. Bu farq, ayniksa, davlat ishlarining tashqil etilishi va

boshqarish sohasida nihoyatda keskin bo'lib qolayotganini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham u Buxoro amirligida davlat to'zishini islox qilish zarur deb hisoblaydi. U o'zining tuzgan loyihalarida davlat bir guruh kishilarga emas, balki butun halq manfaatiga xizmat qilishi kerak, degan g'oyani asoslashga harakat qiladi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida O'zbekiston da siyosiy fikrlarning rivojlanishiga Muhammad Xuja Bexbudiy (1879-1919) juda katta hissa qo'shgan. Uning siyosiy qarashlari jadidlik harakati va uning faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston da 1905 yilga kelib jadidlik nomi bilan ma'lum bo'lgan harakat vujudga kela boshladi. Ma'rifatparvarlik g'oyasi asosida shakllangan bu harakat asta-syokin siyosiy tus ola boshladi va ulkaning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb eta bordi. Bu davrda A.Avloniy, Fitrat, Bexbudiy kabi ma'rifatparvarlar katta faoliyat olib borganlar. Muhammad Xuja Bexbudiy ana shu harakatning tashqilotchisi va yo'lboshchilaridan biri sifatida uning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Jadidlar harakati musulmon aholining ko'pchilik qatlamlarini o'z saflarida birlashtirgan bo'lib, ular tub sotsial-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy o'zgarishlar qilish talablari bilan chiqqan edilar.

Ular Turkistonning Rossiyadan ajralib chiqishini va uning mustaqil davlat sifatida ichki va tashqi siyosat olib borishi lozimligini himoya qildilar. Ular Turkistonda Turkiya davlatidagi kabi ijtimoiy-siyosiy tartiblar o'rnatishga harakat qildilar.

M.Bexbudiy musulmon partiyasini tuzish ishiga juda kuchli qiziqish bilan qaradi. U ro'znomalarning muharrirlariga hamda uning o'quvchilariga murojaat qilib, bunday partiyaning himoya qilish to'g'risida targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarurligini kayta-kayta ta'kidlagan edi. «Shuroi Islom» tashqiloti tomonidan amalga oshirilgan tadbirlarda M. Bexbudiy faol ishtirok etdi. U omma orasida targ'ibot ishlarini olib borish bilan birga, Turkistonning mustaqilligi uchun ko'rash yo'lida kat'iy turib harakat qildi.

3-mavzu. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning “O'zbek modeli”.

REJA:

1. Demokratik jamiyat qurishning turli xil modellari.
2. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda “O'zbek modeli” va uning tamoyillari.
3. Demokratik jamiyat qurishning modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqqan O'zbekiston uchun eng asosiy, bosh masala milliy davlatchilik poydevorini barpo etish, mustaqillikning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratish edi. Mazkur masalaga mustaqillikka erishgan barcha mamlakatlar turli davrlarda duch kelishgan va ular bu masalani turlicha hal etishgan. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy taraqqiyotning «Shved modeli», «Amerika modeli», «Yapon modeli» kabi tushunchalar ishlatilmoqda. Mazkur tushunchalar zahirida muayyan mintaqa yoki mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotida siyosiy-iqtisodiy islohotlarni qaysi yo'l bilan, qay yo'sinda amalga oshirilishi bilan bir-biridan farqlanadi.

Jumladan, «Amerika modeli»da bozor munosabatlari nihoyatda liberalligi bilan xarakterlansa, «Yapon modeli» iqtisodiy munosabatlarda davlatning etakchi o'rnini bilan belgilanadi. «Shved modeli»da iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi ustuvordir.

Shuningdek, Sharqiy Evropa mamlakatlarining o'z modeli, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi modellar ham o'ziga xos jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, milliy davlatchilik poydevorini barpo etish, mustaqil taraqqiyot yo'lini belgilab olish maqsadida rivojlangan mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganib, mamlakatimizning tarixiy-milliy xususiyatlari va geografik-demografik shart-sharoitlariga mos bo'lgan o'ziga xos modelni yaratish zarur edi. Sobiq totalitar tuzumdan juda ko'plab iqtisodiy,

ijtimoiy, muammolar meros bo'lib, o'tganligiga qaramasdan, respublika rahbariyati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz taraqqiyotining o'ziga xos yo'lini aniq belgilab oldi.

Bu yo'ldagi dastlabki eng asosiy vazifa: «Eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimini, unga muvofiq bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlarini tugatish, shuningdek, yangi davlatchilikning siyosiy-huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini yaratish»¹ edi.

Mazkur vazifani sobitqadamlik bilan hal etish natijasida eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimining ustunlari bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlari barham toptirildi. Jumladan, Sobiq Kommunistik partiyaning yakka hokimligiga chek qo'yildi. Joylardagi ijroiya hokimiyatining eski tizimi tugatildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlangan keng ko'lamli islohotlar mamlakatimiz taraqqiyotining strategik maqsadi – demokratik huquqiy davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli fuqarolik jamiyati qurishga qaratilgan edi.

Mazkur islohotlar mamlakatimiz rahbari I.A.Karimov tomonidan yaratilgan beshta tamoyilga asoslanib, amalga oshirila boshlandi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiyot siyosat ustidan hukmron bo'lishi, u har qanday mafkuradan ozod bo'lishi lozim. Iqtisod o'z qonuniyatlariga asoslanib rivojlanishi kerak;

- Iqtisodni boshqarishda, ayniqsa yangi bozor iqtisodiyotiga o'tilayotganda, davlat bosh islohotchi bo'lib, uning boshqaruv tizimini qo'ldan chiqarmaslik kerak;

- Konstitutsiya va qonunning ustunligi. Unga barcha barobar, hayotimizning turli sohasida rioya etishi kerak;

- Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi eng muhim vazifadir;

- Bozor iqtisodiyotiga o'tish shoshma-shosharliksiz, bosqichma-bosqich amalga oshirilmog'i lozim.²

Mazkur tamoyillar «O'zbek modeli» sifatida jahonda e'tirof etilgan O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lining g'oyaviy-nazariy negizi bo'lib xizmat qildi.

Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorlik tamoyili jahon tajribasida sinalgan erkin bozor iqtisodiyotining ob'ektiv qonunlari ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab beradi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmalari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkin iqtisodiy faoliyat yuritishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki, iqtisodiyotning siyosat va mafkuradan ustuvorligi, iqtisodiy faoliyat erkinligi barpo etilayotgan adolatli fuqarolik jamiyatining moddiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Yangi demokratik jamiyatga va bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning bosh islohotchilik vazifasi mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy islohotlarni tashkil etish va amalga oshirishda tashabbuskor bo'lishni nazarda tutadi. Bu tamoyil avvalo, mamlakatimiz taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan bo'lib, milliy davlatchiligimiz tarixiy tajribasiga asoslanadi. O'zbek davlatchiligi taraqqiyotining barcha davrlarida davlat jamiyat hayotini tashkil etuvchi, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi etakchi kuch bo'lgan. Davlatga va uning rahbariga katta ishonch va hurmat bilan munosabatda bo'lish o'zbek xalqining turmush tarzidagi muhim siyosiy qadriyat bo'lib kelgan. Milliy davlatchiligimizdagi mazkur an'ana mustaqillik sharoitida o'zining mantiqiy ifodasini topdi va yangi mazmun bilan boyitildi. Tarixan qisqa muddat ichida mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy-siyosiy islohotlar davlatning bosh islohotchilik rolini yaqqol ko'rsatib berdi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning murakkabligini hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash zarurki, bu o'tish davrida bir qator salbiy holatlar, jumladan, ishsizlik, qonunbuzarlik, jinoyatchilik kabilar yuzaga kelganda davlatning tartibga solish, nazorat qilish va boshqarishdagi roli yanada ortadi. Garchi fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan davlatning vazifasi biroz qisqarsada, lekin

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсажасида: хавфсизликка таъдид, барсарорлик шартлари ва тарассиёт кафолатлари. -Т. Ўзбекистон, 1997. 152-бет.

² Каримов И.А. Ўзбекистон иетисодий ислоотларни чуеурлаштириш йўлида. -Т. Ўзбекистон. 1995. 11-б.

jamiyatdagi ijtimoiy bo'hronlarni oldini olishda, ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirishda, ijtimoiy adolatni qaror topishida davlatning o'rni va roli saqlanib qolaveradi.

Konstitutsiya va qonun ustunligi tamoyilining mohiyati mamlakatimiz hayotining hamma sohalarida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonunga itoatkorlikni shakllantirishdan iboratdir. Bu tamoyilni davlatimiz rahbari I.A.Karimov shunday ifodalaydi: «Butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunga asoslanmog'i zarur. Iqtisodiy o'zgarishlar sanalgan, amaliy kuchga ega bo'lgan qonunga tayangandagina, bu o'zgarishlar sezilarli natijalar berilishi muqarar bo'lishi mumkin»³

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunning ustunligi huquqiy davlatning asosiy belgisi sanaladi. Garchi, huquqiy davlat nazariyasi G'arbiy Evropada XVII-XVIII asrlarda yaratilgan, degan fikr mavjud bo'lsada, huquqiy davlat an'analari milliy davlatchiligimiz tarixiy tajribasida o'rta asrlardayoq mavjud bo'lgan. Jumladan, o'zbek davlatchiligining buyuk namoyondasi Amir Temur o'zi barpo etgan juda katta davlatni «Kuch adolatdadir» degan shior bilan idora etgan. Temur davrida maxsus tuzuklarga amal qilingan. Ana shu tuzuklarda jamiyat a'zolarining axloq-odob qoidalari, mansabdor shaxslar va hukmdorlarning burchlari, davlat va qo'shinni boshqarish qoidalari aniq ifoda etilgan.

Qonun ustuvorligi tamoyili, avvalo davlatning asosiy qonuni hisoblangan Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlashni nazarda tutadi. Bu tamoyil mamlakatimiz Konstitutsiyasining 15-moddasida quyidagicha ifodalangan: «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar»⁴.

Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish tamoyili ham o'zbek davlatchiligi an'analarga hamda milliy qadriyatlarimizga mos bo'lib, bu tamoyil mohiyati shundan iboratki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlat aholini ijtimoiy himoya qilishni o'z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish doimo murakkab jarayon bo'lib, bu davr o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shunday sharoitda aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlarini o'z himoyasiga olish davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zaif va yordamga muxtoj kishilarga mexr va muruvvat ko'rsatish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash xalqimiz turmush tarzidagi qadimiy an'ana, azaliy milliy qadriyat sifatida davlatchilik tajribasida ham o'z ifodasini topgan. Masalan, buyuk davlat arbobi Amir Temur o'z «Tuzuklarida» davlatni boshqarishda o'n ikkita qoidaga amal qilgan. Shu qoidalarda, jumladan: - Davlat, saltanat ustunlarini, aholining barcha qatlamlari bilan quvvatlash va ularning manfaatlarini himoya qilish;

Mamlakatdagi demografik shart-sharoitlarni, aholining turmush darajasini hisobga olib, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlat aholini ijtimoiy himoya qilish orqali kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirmoqda.

Ra'iyat ahvolidan ogoh bo'lish, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rish⁵.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, o'tish tamoyili milliy xususiyatlarimizga, o'zbek davlatchiligi an'analarga mos bo'lib, bu tamoyil o'tish davrining murakkab xarakterini hisobga olgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni puxta o'ylab, ijtimoiy larzalarsiz, tadrijiy tarzda amalga oshirishni taqozo etadi.

«O'zbek modeli»ni bugungi kunda demokratik jamiyat barpo etish muhim o'ziga xos modeli ekanini dunyoning juda ko'plab siyosatshunos etakchi olimlari o'rganmoqda va uni tahlil qilmoqdalar¹. Masalan, rossiyalik tadqiqotchilar Gafarli M.S., Kasaev A.G., germaniyalik L.Levitin, Rossiya Fanlar Akademiyasining akademigi F.Burlatskiy uni yuksak baholashgan.

³ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоётларни чуқурлаштириш йўлида. -Т.: «Ўзбекистон», 1995

⁴ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т. Ўзбекистон. 1992. 11-бет

⁵ «Темур тузуклари». -Т., Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991.53-54,6

¹ Каранг: Гафарли М.С., Касаев А.Г.. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – таракқиёт асоси. Т.: Ўзбекистон, 2001. –430 б.

Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. Т.: Ўзбекистон, 2000. 368-б.

Дональд Карлайл Ўзбекистон Ўрта Осиё, истиқболдаги ўтмиш ва ҳозирги замон ва бошқалар.

«KPSS» deb atalmish aslida esa ulkan bir hududni o'z qo'lida ushlab turgan partiya-davlat mashinasining so'nggi s'ezdida (1990 yil iyul) ham Prezidentning masalaga jiddiy e'tibor berganligi O'zbekistonning mustaqillik e'lon qilganligi shunchaki bir his-hayajonni to'kib solish emas, balki ortga qaytmaydigan strategik maqsad yoki akt ekanligining yorqin isboti hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, 1991 yilning 31 avgust kunida O'zbekiston Respublikasi mutloq mustaqilligining e'lon qilinishini unga qadar amalga oshirilgan o'ziga xos siyosiy tayyorgarlik, umumxalq safarbarlikning qonuniy natijasi va keng miqyosli demokratik o'zgarishlar uchun sharoit yaratgan buyuk tarixiy voqea deb qarash to'g'ri bo'ladi. Aynan shundan e'tiboran, O'zbekistonning mustaqilligi, hududimizdagi barcha tarkibiy qismlarda; ya'ni davlat hokimiyatining quyidan yuqorigacha barcha bo'g'inlari, er osti va er usti resurslari, davlat boshqaruvi muassasalarining barcha tarmoqlari, millatning moddiy va intellektual salohiyati va tashqi aloqalarning barcha yo'nalishlarida tanho hokimligi e'lon qilinganligi amalda to'la milliy mustaqillikni bildirar edi. Uning xalqaro munosabatlarda sub'ektlar oladi. Endilikda O'zbekistonga nisbatan dunyodagi barcha davlatlari to'laqonli mustaqil sub'ekti sifatida va tub manfaatlarining birdan bir rasmiy ifodachisi ekanligini tan olgan o'zaro samarali munosabatlar o'rnatishga munosib xalqaro siyosatning mustaqil, daxlsiz sub'ekti sifatida munosabat bildirishlari uchun zarur huquqiy-siyosiy asos yaratildi. Mustaqil davlatimiz g'oyalarining nazariy va huquqiy asoslarini yaratish hamda uning shakllanishida – sobiq ittifoqda birinchi bo'lib, 1990 yil 24 martda (12-chaqiriq Oliy Sovetining birinchi sessiyasi) O'zbekistonda Prezidentlik institutini ta'sis etish to'g'risidagi qarori bo'lgan edi. Ma'lumki, o'sha sessiyada I.A.Karimov O'zbekiston SSRning Prezidenti etib saylangan edi. Mamlakatimizda Prezidentlik institutining ta'sis etilishi nafaqat davlatchiligimiz milliy g'oyasini, balki xalqimizning bosqichma-bosqich siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurashning o'ziga xos yo'nalishining boshlanishi ham edi.

Prezidentlik institutining tashkil etilishi uzoq yillar mobaynida Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy sohalarida to'planib qolgan muammolarni hal etishning birdan-bir to'g'ri echimi edi.

Ma'lumki, dunyo davlatchiligi tarixiy rivojlanishida boshqaruvning asosan ikki shakli – monarxiya va respublika usullari mavjud. Respublika boshqaruvi o'z navbatida parlamentar va prezidentlik respublikalari ko'rinishlariga ega. Prezidentlik Respublikasi hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan davlat boshqaruvi shaklidir. 2000 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, BMTga a'zo 192 davlatdan 146 tasida Prezident lavozimi mavjud¹.

Ularning aksariyat ko'pchiligi prezidentlik respublikalari hamdir. Bular AQSh, Argentina, Braziliya, Meksika, Frantsiya, Rossiya Federatsiyasi va boshqalardir.

Davlatchilik g'oyalarining nazariy asoslari va ularning shakllanishi jarayonlarini prezidentlik institutining ta'sis etilishi haqida batafsil fikr yuritishimizning asosiy sababi – Prezidentlik hokimiyatining manbai xalq ekanligi to'g'risidagi tarixiy tajribaning O'zbekistonga mos va zarurligi hamda davlat boshqaruvidagi eng samarali shakli ekanligining o'z isbotini tapayotganligi bilan belgilanadi.

Prezident I.A.Karimov aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarurligiga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bu mexanizm eng avvalo, jamiyatni erkinlashtirish orqali fuqarolarning har bir saylovga mamlakat taqdiri uchun siyosiy tanlash sifatida taqozo etadi. Odamlar o'z manfaatlari va maqsadlarini amalga oshirish, haq-huquqlarini himoya qilish uchun saylovlarda ishtirok etish zarurligini anglashi zarur bo'ladi.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, uning ehtiyojlarini qondirishda davlat qurilishi, boshqaruv tizimi va jamiyatni erkinlashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu borada Prezident I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq mamlakatning uzoqqa yo'naltirilgan maqsadlarini aniq va ravshan ifodalab berdi va davlat vakolatlarini asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich nodavlat va jamoat tashkilotlari zimmasiga o'tkazish, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarining ya'ni mahallalarning rolini oshirib borish orqali demokratik jarayonlarni

¹ Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғат. Тошкент – 2000. 41-б.

chuqurlashtirish zarurligini aytgan edi. Ana shu tamoyilning o'zi fuqarolarning bir jihatdan erkinligi va ozodligini ta'min etsa, ikkinchi tomondan o'z hayotlarini izga solishga, demak-ki, jamiyatni boshqarishga ishtiyoqini kuchaytiradi. Shaxs o'zini jamiyat hayotining hamma sohalariga daxldor, uning oldida burchli va mas'uliyatli ekanligini anglab boradi.

Prezident I.A.Karimov milliy taraqqiyot tamoyillarini ishlab chiqar ekan, O'zbekistonning birinchi navbatda insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlat bo'lishiga katta umid bog'lamoqda. Bugungi bosqichda u demokratik institutlar faoliyatlari ko'lamlarini kengaytirish, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish va siyosiy madaniyatini oshirish, jamiyatda manfaatlar, turli xil qarashlar, siyosiy va e'tiqodiy raqobatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, jamoat birlashmalarining hozirgi bosqichdagi ijtimoiy mavqeini oshirish, siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiy hayotni erkinlashtirish, davlat qurilishini erkinlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, hokimiyat bo'linishi printsipining insoniyat tomonidan umume'tirof etilgan tamoyillarini amalda qo'llash, davlat hokimiyati organlarining vakolatini nodavlat va jamoat tashkilotlariga o'tkazish masalalarini strategik vazifa darajasida anglashi kerak bo'ladi.

Agar O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatga mansub turli dunyoqarash va turmush tarziga ega bo'lgan aholi yashaydigan, 10 dan ortiq diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, ko'p millatli mamlakatda millatlararo murosa muhitini yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar jiddiy ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, jamiyatda turli diniy va g'oyaviy qarashdagi aholi tabaqalari intilishlarini uyg'unlashtirish, ularni mamlakat taraqqiyotini belgilaydigan g'oya atrofida birlashtirib, yo'naltirish favqulodda katta salohiyat taqozo etishi ravshan. Ayni chog'da umumiy fikrlarga kelish har bir inson erkinligi, shaxsiy talablari va rag'batini bo'g'ish hisobidan bo'lmasligi ham zarur. Zero, inson ilohiy va tabiiy qismatiga ko'ra mutlaq betakror hodisadir. Shu boisdan, ulug' allomalarimiz ham mazkur masalaga alohida urg'u berib insonga berilgan muqaddas huquqlardan biri ixtiyoriy tanlov, me'yoriy muvozanatga intilish va haqni o'z rag'batiga ko'ra topa bilish salohiyati ekanligini alohida ta'kidlaganlar. Holbuki, millatidan, irqidan va dunyoqarashidan qat'iy nazar, mamlakat fuqarosi o'z ehtiyojlarini qondirish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lishi, o'z hayotini ixtiyoriy tanlov asosida yo'lga qo'yilishi, jamiyatda barqarorlik muvozanatini saqlash, murosaga kelish va bir-birini tushunish, o'zaro hamjihatlik va demokratik ishtirok makonini qaror toptirish uchun keng ko'lam yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni yana bir bor ta'kidlash joizki, yurtimizda mustaqillikning birinchi kunlaridan e'tiboran, uning izchil va shuning bilan bir qatorda o'ziga xos va mos demokratiyalashish bilan chambarchas bog'liq ekanligini, barcha sohalarida xalqning mutloq suvereniteti tamoyili qaror topishi, va nihoyat, ularning barchasi ijtimoiy jarayonlarda qaysi millat yoki konfessiyaga mansubligidan qat'iy nazar xalqning faol ishtirokini taqozo etishi xalqimiz va siyosiy rahbariyat tomonidan endilikda chuqur his etilmoqda.

O'zbek davlatchiligining o'ziga xos milliy xususiyatlaridan biri bo'lgan, davlatchilik taraqqiyotining inqilobiy sakrashlarni chetlab, tadrijiy tarzda takomillashib borganligini Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlari bilan asoslashimiz maqsadga muvofiqdir: «Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni, sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni G'arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning iptidoiy va yovvoyi shakli» deb atashganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi»⁶ degan fikrlarning naqadar asosli ekanligini ijtimoiy taraqqiyot ham ko'rsatib turibdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan yangi asosda tiklana boshlagan milliy davlatchiligimiz o'zining demokratik siyosiy maqomiga ega bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotda tadrijiy rivojlanib kelgan milliy davlatchilikning qonuniy davomi sifatida namoyon bo'ldi.

⁶ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истисеболининг асосий тамойиллари -Т.: Ўзбекистон. 1995. 10-11 бетлар.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li bo'lgan «O'zbek modeli» mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyot dasturi bo'lib, bu dastur ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning g'oyaviy-nazariy negizini tashkil etadi. Mazkur islohotlar mustaqillik yillarida bir nechta bosqichlarni bosib o'tadi. Jumladan, islohotlarning dastlabki bosqichida eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tugatildi va milliy davlatchilikning siyosiy-huquqiy poydevori barpo etildi. Keyingi bosqichda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning huquqiy asosi yaratildi, iqtisodiyotning barqarorlashuviga erishildi. Islohotlarning navbatdagi bosqichida davlatimiz rahbari I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli dasturiy asarida belgilab berilgan olti ustuvor vazifalar oshirila boshlandi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish;

Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish;

Jamiyatimiz kelajagini belgilab beruvchi kadrlar siyosati;

Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish;

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash;

Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz dahlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash;⁷

Jamiyatning siyosiy hayotini erkinlashtirish avvalo, aholining siyosiy faolligini kuchaytirishni, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni taqozo etadi.

Iqtisodiyot sohasini yanada erkinlashtirish vazifasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy erkinliklarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlashni o'z ichiga qamrab oladi.

Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish masalasida o'z haq-huquqlarini taniydigan, mustaqil fikrlay oladigan, imyon-irodasi, e'tiqodi mustahkam, shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtiradigan, erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishni, mamlakatimizning kelajagini ta'minlovchi etuk mutaxassislar etishtirishni taqozo etadi.

Aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barcha bosqichlariga, «O'zbek modeli»ning mazmuni va mohiyatiga mos bo'lgan muhim bir mezon bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash iqtisodiy islohotlarning mazkur bosqichiga xos bo'lib, bunda bozor infratuzilmasini rivojlantirish, eksportga moslashgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, moliya va bank tizimi faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlash mazkur bosqichdagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifa jahondagi globallashtirish sharoitida, turli mintaqalardagi vaziyatning keskinlashuvi O'zbekistonning suveriniteti va barqaror taraqqiyotiga xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarga munosib javob qaytaradigan xavfsizlik tizimlarini yaratishni taqozo etadi. Mazkur bosqichda bunday tizim yaratildi.

O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos yo'li bo'lgan «O'zbek modeli» mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ijodiy rivojlantirilmoqda.

Umuman, «O'zbek modeli» O'zbekistonning o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot yo'li bo'lib, bu yo'l mamlakatimizning tarixiy – milliy xususiyatlarini, geografik va demografik shart-sharoitlarni hisobga olgan, respublikaning bosh, strategik maqsadi sari yo'naltirilgan, islohotlarning har bir bosqichida ijodiy rivojlanib boruvchi dasturi-amaldir.

⁷ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоёда. -Т.: Ўзбекистон. 1999. 15-19 бетлар.

4 – mavzu. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda "o'tish davri"ning zarurligi va o'ning xususiyatlari.

REJA:

1. "O'tish davri" tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.
2. Prezident Islom Karimov tomonidan O'zbekistonning "evolyutsion tadrijiy" asosida demokratik jamiyatga o'tishga doir nazariy kontseptsiyasining ishlab chiqilishi.
3. "O'tish davri"ning ahamiyati.

O'tmish, bugun va kelajak bir-biriga tutashgan bunday tarixiy paytlarda mustaqillik davrini kechirayotgan har bir davlat bir tomondan, demokratiya borasida jahon xalqlari orttirgan boy tajriba hamda undan millat manfaatlari yo'lida foydalanishni, ikkinchi tomondan esa, uni o'ziga xos noyob bir sharoitda joriy etish bilan bog'liq muammoga duch kelganligini tarixiy tajribalar ko'plab mamlakatlar misolida tasdiqlagan.

O'tish davri ijtimoiy-siyosiy fanlar mavzulari tizimidagi dolzarb masalalar qatorida turadi. Chunki, mamlakatlar o'zlarining yuksak taraqqiyot darajalariga ma'lum oraliq bosqichlarini bosib o'tmasdan erisha olmaydilar. Ana shu «oraliq» bosqichni o'rganish na faqat nazariy, shuningdek amaliy ahamiyatga ham egadir. Ammo, u mustaqil mavzu sifatida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy adabiyotlarda ilmiy jihatdan juda kam o'rganilgan. Buning asosiy sababi, uning aniq «mezoni»ni va boshlanishi nuqtasi bilan «poyoni» (oxirgi muhlati) masalasini aniq belgilash murakkabligicha qolmoqda. Bundan tashqari ba'zi olimlar, jamiyat taraqqiyoti to fuqaroviy jamiyat darajasiga ko'tarilguncha, faqat «o'tish davri»ni o'z boshidan kechiradilar, u uzluksiz jarayon, - deb hisoblasa, yana birlari «o'tish davri»ning muhlati va mohiyatidan ko'ra, undagi jarayonlarni o'rganish «muhimroq» - ekanligini ta'kidlaydilar. Xullas, O'zbekistonda demokratik jamiyatga o'tish davri ham mukammal o'rganishga ehtiyoj etilib kelmoqda. Chunki, uning boshlanishi va oxirgi «poyoni»ning mezonlarini aniqlamasdan turib, jamiyat hayotida sodir bo'ladigan yoxud sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlar haqida aniq kontseptual g'oyalarni ishlab chiqish ham mumkin emas. Bu jarayonlar nega turli mamlakatlarda turlicha sodir bo'ladi? Ularning muhlati nega har bir davlatda turli xil vaqtlarda davom etadi? O'tish davrida kuchlar nisbati qanday holatda bo'ladi? degan savollarga javobni faqat demokratik jarayonlar bilan hamohanglikda mustaqil mavzu sifatida o'rganish orqaligina javob berish mumkin bo'ladi. Bu jarayon barcha mamlakatlar uchun xosdir. Chunki jahonning eng taraqqiy etgan mamlakatlari ham uni o'z boshidan kechirmoqdalar.

Shu ma'noda uni o'rganish bugun «o'tish davri»ni o'z boshidan kechirayotgan O'zbekiston uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Negaki, uni o'rganish biz qurayotgan jamiyatda sodir bo'ladigan jarayonlar darajalari to'g'risida aniq tasavvurlarga va unga etib borish yo'llarini aniqlash imkonini beradi.

O'tish davri barcha davlatlarning yuksak taraqqiyotiga erishish uchun xos bo'lgan jarayonida sodir bo'ladigan o'ziga xos «oraliq» muhlat hisoblanadi.

U har qanday davlat uchun umumiy qonuniyatdir. Chunki davlatlar vujudga kelishi bilanoq, birdaniga yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi, balki har bir davlat eng avvalo, shakllanadi va ma'lum tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'z boshidan o'tkazadi. Ma'lumki, har bir davlatning vujudga kelish, rivojlanish va yuksak darajasiga ko'tarilish jarayonlari olimlar tomonidan o'rganilgan va bugungi kunda o'rganish davom etmoqda. Ammo, o'tish davri o'zi nima? Nima uchun o'tish davri deb aytiladi? – degan savollarga mukammal javob ilmiy adabiyotlarimizda eng kam ishlangan muammolardan biridir. Shunga ko'ra uni mukammal tarzda o'rganmasdan turib, mamlakatimizning rivojlanish xususiyatlarini aniq tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, bugun yuksak rivojlangan yoki kam taraqqiy qilgan yohud endigina rivojlanish tomon qadam tashlayotgan mamlakatlarning bir iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish jarayoni aynan takrorlanmaydigan hodisadir. To'g'ri, o'tish davri uchun barcha mamlakatlar uchun xos bo'lgan umumiy bo'lgan qonuniyatlar ham mavjud. Ular siyosiy hokimiyatni o'zgartirish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, yangi tafakkur va turmush tarzini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Ammo, ularni amalga oshirish ham davlatlar va unda yashayotgan xalqning mentaliteti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Xo'sh, nega shunday? O'tish jarayonida tayyor andozalar yoki

«model»dan foydalanib, pirovard maqsadni amalga oshirishga kirishilsa bo'lmaydi-mi? Yoki ma'lum tarixiy bosqichni bosib o'tmasdan, yuksak taraqqiyotga erishib bo'lmaydimi?

Xuddi ana shunday savollarga javob topish uchun ham o'tish davri haqidagi qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan mukammal kontseptsiyani ishlab chiqish ehtiyoji ortib bormoqda. Ayniqsa, bu ehtiyoj mamlakatlar taraqqiyotida sodir bo'layotgan turli-tumanlik, uning zaminidagi muammolarning yuzaga kelishi va ularni hal qilish usullarini ishlab chiqish jarayonidagi o'ziga xoslik omilining ahamiyati kuchayib bormoqda.

Aslida o'tish davri nazariyasi deganda nimani tushunmoq kerak? O'tish davri u haqidagi turli qarashlar tizimi hisoblanadi. Ular asosida umumlashgan nazariyalar shakllanadi. Qarashlar turli-tuman, hatto ular bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi ham mumkin. Eng muhimi ularni tahlil qilish asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi. Xulosalarning ilmiyligi esa ularning moddiy kuchga aylanishida o'z ifodasini topadi. Ya'ni, o'tish davri haqidagi nazariy qarashlar real hayotda o'z ifodasini topsa, amaliyotda o'z samarasini bersagina, ilmiy xulosa darajasiga ko'tariladi. Ana shu ma'noda ham o'tish davri nazariyasi deganda, mamlakatlarning ma'lum bir ijtimoiy taraqqiyotdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'lgan oraliq bosqichlar natijasi haqida shakllangan qarashlar tizimi tushuniladi.

Berilayotgan bu ta'rif o'tish davrining mohiyatini o'rganish asosida shakllangan qarashlar natijasi o'laroq, yuzaga keldi. O'tish davri haqida turli-tuman fikrlar bo'lishiga qaramasdan uni bir tizimga keltirish, umumlashtirish asosida shakllangan ta'riflar bugungi kungacha deyarli uchramayotganligi sababli, «o'tish davri nazariyasi»ga yuqorida berilayotgan ta'rifni boshqalari bilan taqqoslash imkoniyati ham cheklanganligini nazarda tutish lozim.

Ana shuni hisobga olgan holda o'tish davrining o'zi haqidagi fikrlarning mohiyatini aniqlash va uning xulosalariga asoslanib, tegishli nazariyalar ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

O'tish davriga munosabat bildirgan germaniyalik olim Leonid Levitin shunday yozadi: «odatda, «o'tish davri» so'zlarini aynan o'tmish va tushunib, uni kelajak oraliq'idagi bugun, deb o'ylaydilar. «O'tish davri»ning paydo bo'lishida, bunday qarashlarga ko'ra, o'tmish – sabab, kelajak esa maqsad tarzida voqe bo'ladi».¹

Shu muallifning yana bir muhim xulosasi mavjud-ki, u ham e'tiborga loyiq. Jumladan, u shunday yozadi: «Tabiiyki, o'tish davrlari turli xildagi tartibsiz jarayonlar, mavhumotliklar bilan to'la. Kimdir bunday davrlarni «daryo bo'ylab uzala tushgan ko'pri» deb, o'xshatib ta'riflagan edi».²

Totalitar tizimdan demokratik jamiyatga o'tish qaysi sohada bo'lishiga qarab, uning ma'no-mazmunini aniqlash mumkin bo'ladi. Demokratik taraqqiyot bosqichiga o'tish, uning muqarrarligini hisobga oladigan bo'lsak, uning zarurligini inkor etib bo'lmaydi. Chunki jamiyat ham inson kabi yuzaga kelganidanoq yuksak kamolot darajasiga ko'tarila olmaydi, balki ma'lum bosqichlarni bosib o'tishi zarur bo'ladi. Hamma masala ana shu bosqichlarning o'ziga xosligini, ularda mavjud bo'ladigan muammolar ko'lamini aniqlash va hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Ammo, bu jo'n, oson ish emas. Chunki jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishi o'z ichiga keng ko'lamdagi vazifalarni hal etishni qamrab oladi. Ularni amalga oshirishda nafaqat ob'ektiv, ayni paytda sub'ektiv omillarini ham hisobga olish zarur. Ularning o'tish davridagi vazni o'zaro bog'liq holda kechadi. Shuning uchun ham o'tish davri haqida fikr yuritganda, gap faqat jamiyatning demokratik tamoyillar tizimiga o'tishi bilan cheklanmasdan, balki ungacha jamiyatlar bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishi uchun zarur bo'lgan «oraliq» ham nazarda tutilmoqda.

Albatta, masalaga bunday yondashuv vujudga kelishi, ular o'rtasidagi kurashlar va u yoki bu sinf hukmronligining o'rnatilishidan iborat bo'lgan formatsion yondashuvdan xoli bo'lib, u jamiyat taraqqiyotiga tsivilizatsion yondashuvni talab etadi. Ya'ni, jamiyatning bir bosqichdan ikkinchisiga

¹ Левитин Леонид, Дональд С.Карлайл. Ислон Каримов - янги Ўзбекистон президенти. -Т.: Ўзбекистон, 1996, 52-бет.

² Ўша манба. 53-бет.

³ аранг: Тафаккур, 1998, 4-сон, 87-бет.

o'tishi inson turmushida, uning tafakkurida, jamiyatning moddiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar darajalarining markazini aniqlash va mezonlarini belgilash g'oyasi turadi.

Ana shunday qarashlarning majmuasigina o'tish davrining mohiyatini o'zida to'la ifodalaydi. Albatta, o'tish davri - nimadan nimaga yohud qaysi jamiyatdan yana qaysi biriga o'tilishi haqida gap borishi masalasi dunyo olimlari diqqatida turganligini ham ta'kidlash lozim bo'ladi. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyoti bosqichlariga formatsion yondashuv (yuqorida ta'kidlanganidek) barham topgan bugungi kunda bu masalaga aniqlik kiritish maqsadida turli kontseptsionalarni ilgari surishga e'tibor ham kuchaymoqda.

Jumladan, Amerikalik sotsiolog Deniel Bell ijtimoiy taraqqiyotni quyidagi uch bosqichga bo'ladi:

Agrar jamiyat

Industrial jamiyat

Industrial yoki informatsion jamiyat.

Uning jamiyatni klassifikatsiyalashtiruv (tizimlashtirish)i zaminida, jamiyatning ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarishga samarali ta'sir o'tkazishni belgilovchi xizmat ko'rsatish, maishiy hayot va turmush turadi, uning fikricha bugun dunyodagi ko'pgina mamlakatlar industrial jamiyatdan informatsion jamiyatga o'tish holatida²... Ba'zi bir Ovrupolik olimlar bir qator ovropalik olimlar industrial va postindustrial jamiyat bilan bir qatorda, «Yangi» jamiyat P. Draker, «Post zamonaviylashgan» jamiyat, j-f. liotara, undan keyin yangi industriallashtirish jamiyat Dj. Gelbreyt, undan keyin «rivojlangan» jamiyat va xokazo.

Umuman, ularning nazariyalarida insonning jamiyatdagi roli va o'rni yana birlarida esa o'tish davrida demokratiyaga oid bilim va texnika taraqqiyoti ta'sirida sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'zida mujassamlashtirgan³.

Yuqoridagi ko'rsatilgan olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki;

birinchidan, jamiyat qanday nomlanishidan qat'i nazar, o'z taraqqiyotida biridan ikkinchisiga o'tish iborat bo'lgan jarayon bilan rivojlanadi;

ikkinchidan, bir taraqqiyot bosqichidan ikkinchisiga o'tishdagi asosiy ko'rsatgich moddiy omil emas, balki odamlarning turmush sharoitlaridagi bo'ladigan o'zgarish hisoblanadi.

O'tish davrini faqat moddiy omillar darajalari bilan bog'lash - uning mohiyatini to'liq ifodalamaydi. Shunga ko'ra, sodir bo'ladigan ijobiy yohud salbiy o'zgarishlarga ta'sir o'tkazuvchi siyosiy omillarning rolini aniqlash masalasi ham muhimdir.

Jamiyatda bo'ladigan har qanday o'zgarishlar iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarining uzviyligi xolatida qaralgandagina, o'tish davrining mohiyatini tushunish mumkin bo'ladi: o'tish davri mamlakatlar taraqqiyotining bir ijtimoiy-iqtisodiy bosqichdan biri ikkinchisiga o'tishi umumiy qonuniyat bo'lishi bilan birga, ularning har birida o'tish jarayoni ham turlicha namoyon bo'ladi. Barchasiga xos bo'lgan asosiy umumiylik eskisining taraqqiyot ehtiyojlariga javob bera olmaganligi oqibatida, yangi bosqichga o'tish zaruriyatini keltirib chiqarishi bilan bog'liq. Shu ma'noda, o'tish davridagi bosh yo'nalish «orqaga qaytish» emas, balki «oldinga» yurish, pastdan yuqoriga ko'tarilish yoki oldingi darajaga qaraganda yuksalish, rivojlanish demakdir.

Eski tuzumni saqlab qolish yo'lidagi turli urinishlar, qon to'kishlar, xalq boshiga tushadigan turli fojialarga qaramasdan, ularning qaysi darajadan sodir bo'lishidan qat'i nazar, baribir o'tish davrining bosh yo'nalishi o'zgarimas bo'lib qolaveradi. Shu ma'noda Leonid Levitinning quyidagi fikriga qo'shilish mumkin. «Postkommunistik o'tish davri – o'tish davrining ko'rinishlaridan biridir, xolos. Insoniyat tarixida bunday davrlar ozmuncha yuz bermagan. Ular o'zaro bir-biridan qanchalar salmoqli tafovutlar bilan farq qilmasin, biroq asosiy ma'nolari bitta – jamiyatni uning iqtisodini, siyosatini, uning madaniyatini zamonaviylashtirish»¹ – deb yozadi. Ammo, ana shu «Zamonaviylashtirish»ni qaysi o'lchov mezonidan kelib chiqmoq kerak, - degan savolga javob

² Каранг: Вопросы философии. 3-сон, 2001 й. 6-бет

³ Ўша манба. 8-сон, 2001 й. 14-бет.

¹ Каранг: Вопросы философии. 3-сон, 2001 й., 53-бет.

topish zarur bo'ladi. Zero, «zamon» o'zgaruvchan, shiddat bilan oldinga intiluvchi jarayon xolos. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, o'tish davrining tamom bo'lish mezonlari mavjudmi yoki «zamon» kabi to'xtovsiz jarayon hisoblanadimi? - degan savollar yuzaga kelaveradi.

Aslida, yuqorida bizning unga bergan ta'rifimizda uni davlat taraqqiyotining bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish uchun zarur bo'ladigan alohida bosqich ekanligi haqidagi kontseptual g'oyamizga muvofiq o'tish davri shu ma'noda ham alohida bosqichdir. Albatta, u ma'lum muhlatdan keyin o'z poyoniga etadi va jamiyat ilgarigiga qaraganda yangi taraqqiyot bosqichida yashay boshlaydi.

Biz ana shunday jarayonni aniq tasavvur qilishimiz va tushunishimiz zarur bo'ladi. Aks holda, insoniyat o'z boshidan o'tish davrini o'tkazish bilan yashaydi va bu oxiri yo'q bo'lgan jarayon, degan noto'g'ri xulosa kelib chiqadi.

Mustaqillik tufayli O'zbekistonning totalitarizmdan asta-sekin demokratik jamiyat tomon o'tishining o'ziga xos xususiyatlari ham bundan istisno emas, albatta. Ammo, jamiyat erishgan yutuqlar asosida taraqqiy qilish jarayonining imkoniyatlarining tugashi, uning o'sib kelayotgan ehtiyojlarni qondirishga qurbi etmay qolishi, jamiyatni yangi pog'onaga ko'tarish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Demak, birinchidan, o'tish davrini jamiyat o'zi erishgan imkoniyatlar asosida rivojlanishning tugashi, o'sib kelayotgan ehtiyojlarning qondirilmay qolishdan boshlab, undan yuqori bo'lgan imkoniyatlarni yuzaga kelishigacha bo'lgan muhlat bilan belgilash mumkin.

Ikkinchidan, bir ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumdan ikkinchisiga «o'tish davri» yoki aniqrog'i, «oralik» bosqichining muhlati ana shu yangi yuzaga kelgan taraqqiy qilish jarayoni namoyon bo'lishi bilan tugaydi. Uchinchidan, insoniyat faqat «o'tish davri» bilan yashamaydi, balki uning boshlanishi bo'lganidek poyoni ham mavjuddir. Xuddi ana shu «poyoni» taraqqiyot darajalarini yoki tuzumlarning birini ikkinchisi bilan farqlash imkonini beradi. Demak, demokratik rivojlanish ana shu imkoniyatni inson manfaatlari bilan bog'laydi. Bunday sharoitda zamonning ehtiyoji va rivojlanish darajalarida yangi vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumning turli sohalarida mavjud bo'ladigan «mexanizmlari»ning barqaror «ishlashi» amalga oshadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, davlat hayotida barqaror taraqqiy qilish jarayoni sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ham Leonid Levitining postkommunistik makondagi o'tish davrini «zamonaviylashtirish» mezoni sifatidagi fikriga qo'shilish mumkin. Uning «...zamonaviylashtirish muayyan yakun topguncha, ya'ni mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanish, siyosiy barqarorlik darajalariga erishguncha bo'lgan davr «o'tish davri» deb ataladi»¹ - degan ta'rifiga faqat zamon nuqtai nazardan qaralsagina, to'g'ri bo'ladi. Zero, insonlar ehtiyojlarining to'la ta'minlanishi va jamiyat taraqqiyotining yuksak darajaga ko'tarilishi fuqarolik jamiyati qurilgandagina amalga oshadi. Ammo, fuqarolik jamiyatini insoniyat ehtiyojlarini qondiraoladigan, jamiyatning eng yuqori pog'onaga ko'tarilgan va uning bundan keyin rivojlanishiga ehtiyoji bo'lmaydigan «oxirgi manzil» sifatida qarash ham ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri bo'lmaydi. Chunki faqat ehtiyojning yuzaga kelishigina taraqqiyot zaruriyatini keltirib chiqaradi. U to'xtagan daqiqadan boshlab, taraqqiyot ham to'xtaydi.

Shu ma'no dunyoning biron bir davlatini to'la fuqarolik jamiyati sharoitida yashamoqda deb aytish qiyin.

Shuning uchun ham bugun insoniyat fuqarolik jamiyatiga o'zining ideali sifatida qaramoqda va uni qurish uchun faollik ko'rsatmoqda.

«O'tish davri» haqida fikr yuritganimizda shuni alohida ta'kidlash lozimki, fuqarolik jamiyatigacha bo'lgan barcha tuzumlarning insonlar manfaatlari va ehtiyojlarini to'la qondira olmasligi bois, ularning birinchisidan ikkinchisiga ob'ektiv ravishda o'tishi uchun ehtiyojni yuzaga keltirib turadi. Bu o'z navbatida yangi tuzumga o'tish davrini boshlab beradi.

Ammo, demokratik tamoyillar asosiga qurilgan yangi jamiyatga o'tish bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi. Ular quyidagilardir:

Birinchidan, ayrim mamlakatlarda demokratik jarayonlar yangi tuzumning ichida shakllanadi va bu uning xalq uchun farovon hayotni ta'minlash yo'lidagi faoliyatida namoyon bo'ldi. To'g'ri,

¹ Қаранг: Вопросы философии. 3-сон, 2001 й. 53-бет.

bu jarayon ham silliq amalga oshmaydi, balki o'ta murakkab kechadi, juda katta talafotlarni ham o'z boshidan kechirishi mumkin. Xuddi ana shu murakkab muammolarni hal qilishda to'g'ri yo'lni tanlashdagi, ya'ni jamiyat taraqqiyotini xalq manfaatlariga qaratilganligi insonning to'la ma'nodagi huquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi jamiyatga aylanishiga olib keladi;

Ikkinchidan, o'tish davri yuksak darajadagi moddiy imkoniyatlarning yuzaga kelishi bilan tugamaydi, balki ularning xalq farovonligini ta'minlashga qaysi darajada qaratilganligi va insonlar erkinliklarining ta'minlanganligi bilan bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi. Ular na faqat mamlakatlarning jug'rofiy omiliga bog'liq, balki ana shu davlatda yashayotgan aholining siyosiy madaniyati va mentalitetiga hamohang bo'lishiga ham bog'liqdir. Bularning xammasi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida shakllanib va rivojlanib kelgan tajribalardir.

Ayni paytda bugungi kungacha, o'tish davrining mustaqil fundamental nazariyasi ishlab chiqilmagan. Buning oqibatida mamlakatlarning ma'lum tarixiy bosqichni bosib o'tmasdan, uni «chetlab» demokratik jamiyatga o'tishga bo'lgan xatti-harakatlari sodir bo'lmoqda. Bu o'z navbatida ular hayotida ayrim holatlarda katta fojialarni keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, ayrim mamlakatlarga «chetdan» demokratik jarayonlarni «eksport» qilib bo'lmaydi. Bunday urinishlar mamlakatlarda beqarorlikka, uni taraqqiyotdan orqaga ketishiga olib kelishi mumkin. Bunday mamlakatlarga demokratiyani «eksport» qilishdan ko'ra, uning shakllanishi uchun shart-sharoit yuzaga kelishiga imkoniyat yaratilishi lozim bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, «o'tish davri» ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy tuzum emas, balki mamlakatlarning ularga o'tishi uchun zarur bo'ladigan zaminlarni shakllantirishga ketadigan tarixiy oraliq bosqich hisoblanadi. Uning boshlanishi mamlakatlarda bo'ladigan eng avvalo, siyosiy o'zgarishlar va uning zaminida esa iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgandagina, yangi vujudga kelgan jamiyatning o'z imkoniyatlari to'la yuzaga chiqadi. Uning o'ziga xos xususiyati va alohidaligi haqida Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «O'tish davri muammolarining yig'indisi va hususiyatlari bir vaqtning o'zida qator g'oyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishni taqozo qiladi»¹. «O'tish davri» qanchalik turli-tuman bo'lmasin, bari bir barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumlar uchun zarurdir. Chunki u har bir vujudga keladigan yangi jamiyat uchun zamin tayyorlash imkoniyati hisoblanadi. Bu zamin na faqat iqtisodiy, shuning bilan birga jamiyat a'zolarining o'zlarini ham yangi jamiyatga «moslashtirish» zarur bo'ladi.

Buni o'tish davrining bir nechta modellari tajribasini tahlil etish zaruratini vujudga keltiradi.

O'tish davri tushunchasi, uning mohiyati va zarurligining umumiy nazariya masalalari turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy fanlarda insoniyat taraqqiyoti bosqichlarida demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatadigan jamiyatga o'tishning turli «model»larining o'ziga xos hususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Ma'lumki, totalitarizmga asoslangan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy bosqichlarning demokratik jamiyatga o'tishi o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Uning murakkabligi shundaki, ungacha sodir bo'lgan taraqqiyot bosqichlari ob'ektiv ehtiyoj sifatida birining ichida ikkinchisi shakllanib kelgan, davlat va uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari shaklan o'zgargan bo'lsa ham, mazmunan u bari bir ommani itoatda ushlab turishga, uning ustidan hukmronlik qilishga qaratilganligi qolavergan. Ulardagi yana bir xususiyat - omma davlat uchun, degan tamoyilning amal qilganligi bilan ham xarakterlanadi.

Demokratik jamiyatda esa, eng avvalo siyosiy tuzum tubdan o'zgarib, xalqning xokimiyati bevosita yoki bilvosita ishtirokida boshqaruvi amalga oshadi va omma davlat uchun emas, aksincha davlat uchun, degan tamoyilning ustuvorligi asosida davlat boshqaruvi amalga oshadi.

Shu ma'noda ham demokratik jamiyatga o'tish jarayoni davlatlarning barcha sohalarida tub o'zgarish ishlarini amalga oshirilishi natijasi sifatida sodir bo'ladi.

Demokratik jamiyatga o'tishda siyosiy sohada, davlatning amaldagi mexanizmlari tugatiladi. Uning o'rniga qurilayotgan jamiyat manfaatlariga javob beraoladigan mexanizmlari shakllantirilib

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: Ўзбекистон, 1999, 74-бет.

boriladi. Iqtisodiy sohada esa, bozor munosabatlari qaror topadi. Taraqqiyotda ommaning o'z moddiy manfaatdorligini erkin qondira olishi asosida umumiy iqtisodiy rivojlanish sodir bo'ladi. Ma'naviy-ma'rifiy sohada, inson omili, uning qadr-qimmatini yuksak qadriyat darajasiga ko'tariladi. Shunday jarayonlar tufayli jamiyatning yuksak intellektual kuch asosida rivojlanishi reallikka aylanadi.

Shuning uchun ham bugungi kunda dunyo mamlakatlarining demokratik jamiyatga o'z ideali sifatida qaramoqda. Uni vujudga keltirish uchun faollik ko'rsatmoqda. Ammo demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun yagona bo'lgan aniq andozalari, yana ham aniqrog'i «model»lari yo'q va u bo'lishi ham mumkin emas. Chunki har bir mamlakat na faqat o'zining tuzilishi, iqtisodiy taraqqiyot darajalari, imkoniyatlari, intellektual imkoniyatlaridan biri ikkinchisidan farqlanadi, balki o'z xalqining mentaliteti, turmush tarzi, urf-odatlar va qadriyatlari bilan ham bir-biridan ajralib turadi. Ularni hech qachon bir qolipga solib bo'lmaydi. Unga harakat qilish nafaqat hech qanday samara beribgina qolmasdan, balki og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligini tarixiy tajriba tasdiqlagan. Shuning bilan birga demokratik jamiyatga o'tishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlari ham mavjud. Jumladan, siyosiy tizimni isloh qilish, bozor munosabatlarini shakllantirish, insonning o'z ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish, jamiyat taraqqiyotida yuksak intellektual salohiyat ustuvorligini ta'minlash va boshqa bir qator qonuniyatlarni barcha demokratik jamiyat qurishga intilayotgan mamlakatlar uchun umumiy hisoblanadi. Ammo umumiy qonuniyatlarni barcha mamlakatlarning o'ziga xosligini hisob olgan holda demokratik jamiyatga o'tishni inkor etmaydi. Aksincha, o'tish davrida mavjud bo'ladigan muammolarning ma'no-mazmunini teran anglagan holda, ularni sobitqadamlik bilan hal qilish imkonini beradi.

Demokratik jamiyatga o'tish deganda, mamlakatlarning turli tuzumlardan (totalitarizm, kapitalizm, harbiy diktatura va x.k) demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi uchun vujudga keltiriladigan imkoniyatga ketadigan oraliq vaqt tushuniladi. Xuddi ana shu vaqt ichida demokratik jamiyat uchun zarur bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlar yaratiladi. «Oraliq» vaqtning boshlanishi va uning o'z poyoniga etishi o'tish davri masalalari qatoridagi eng muhim ahamiyatga molikdir. Chunki, bugun bu masala ilmiy adabiyotlarda o'z echimini topganicha yo'q. Unga aniqlik kiritmaslik esa «o'tish davrining» boshi va oxiri qaerdaligini bilib olish imkonini bermaydi. To'g'ri, o'tish davri ikki yo'nalishda iqtisodiy hayotda va siyosiy hokimiyatda pirovardida demokratik jamiyatga olib boruvchi tub o'zgarishlarning sodir bo'lishi va uning asosida ijtimoiy hamda ma'naviy-ma'rifiy sohalarida olib boriladigan islohotlarning boshlanishi bilan xarakterlanadi. O'tish davrining tugashi esa demokratik tamoyillarning to'laligicha hayotiy reallikka aylanishi bilan bog'liq bo'ladi.

Bugungacha demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan mamlakatlarning unga o'tish davri tajribalariga asoslanib, o'tishning uchta asosiy yo'li yoki «model»i shakllanganligini ta'kidlash mumkin.

Uning birinchisi - klassik an'anaviy yo'l hisoblanadi. «Klassik yo'l» - deganda, insoniyatning demokratik taraqqiyot yo'liga o'tishning dastlabki shakli va uning dunyodagi ko'pchilik mamlakatlar taraqqiyotida samara berganligi asosidagi andozasi tushuniladi. Bu yo'lning xarakterli xususiyati shundaki, unda tashqi kuchlarning aralashuvisiz, mamlakatning o'z ichki imkoniyatlariga tayangan xolda demokratik jamiyatga o'tishi amalga oshadi. Bu yo'lning yana bir asosiy xususiyati shundaki, u uzoq tarixiy bosqichda amalga oshadi. O'tish davrida siyosiy sohada qancha burhonlar sodir bo'lishiga qaramasdan asosiy o'tishning islohotlari iqtisodiy sohada amalga oshirila boshlanadi. Bu sohadagi muhim tadbir xususiy mulkchilikni qaror toptirish hisoblanadi. Xuddi ana shu tadbirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, mamlakat hayotining boshqa sohalarini, xususan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy madaniy sohalarida ham islohotlarning amalga oshirilishi imkonini beradi.

O'tish davrining klassik yo'lidagi bunday jarayonning xarakterli tomoni shundaki, iqtisodiy sohada xususiy mulkchilikning rivojlanishidan aholining aksariyat ko'pchilik qismining ish bilan ta'minlashi imkoniyatini beradi. Ammo asosiy moddiy boylikning bir qism odamlarda to'planib qolishi, boshqalarning esa unga qaram bo'lib qolishlari mamlakat ichki hayotida katta buhonlar,

hatto fuqarolar urushlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bu jarayon mulk egalarining aholi farovonligini ta'minlash tomon qiladigan harakatlari o'zining samarasini bera boshlaganicha davom etadi. Xuddi ana shu jarayonlar zaminida aholining siyosiy ongi ham o'sib boradi. Ularning o'z huquqlarining ta'minlanishiga erishishga intilishi kuchayadi. Bu o'z navbatida mamlakat siyosiy hayotida demokratik jarayonlarning yuzaga kelishi va uning o'sib borishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

O'tish davri klassik yo'lning boshlanishi kapitalistik munosabatlarning yuqori bosqichi, uning iqtisodiyotda islohotlar o'tkazmasdan taraqqiy qilishiga imkoniyat etmay qolishi oqibatida yuzaga keladi.

Bu yo'lning klassik (an'anaviy) yo'l deyilishiga sabab shuki, mamlakatlarning demokratik jamiyatga o'tishi dastlab xuddi ana shu ko'rinishda namoyon bo'lgan edi. Bugun yuksak taraqqiyotga erishgan mamlakatlarning aksariyati ana shu yo'ldan borganlar. Klassik yo'l muammolarning ko'pligi, ularni hal qilishning murakkabligi, aholining bu jarayonga «ko'nikib» borishi kabi masalalar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham, ovrupa mamlakatlarida bu jarayon ikki, ikki yarim asrgacha davom etdi. Ana shu muhlat ichida mamlakatlarda iqtisodiy sohadagi yutuqlarning zaminida demokratik qadriyatlari ham shakllanadi va ularda bugun fuqarolik jamiyatini takomillashtirish jarayonlari davom etmoqda.

Demokratik jamiyatga o'tishning ikkinchisi - inqilobiy yo'l hisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, davlatlarda vujudga keltirilgan katta iqtisodiy salohiyat aksariyat ko'pchilik aholining turmush tarzi nisbatan yuqori bo'lganligiga asoslanib, dastlab mamlakat siyosiy hayotida keskin o'zgarishlar amalga oshiriladi. Ya'ni, amaldagi hokimiyat shakli barbod bo'ladi va uning o'rniga yangi, demokratik jarayonlarni rivojlantirishga moyil bo'lgan hokimiyat shakli va uning infra tizilmasi vujudga keladi. Ular o'z navbatida iqtisodiy hayotda keskin islohotlar o'tkazadilar. Xususan, amaldagi milliy valyuta bekor qilinadi (sindiriladi). Bu esa iqtisodiy islohotlarni o'tkazish shart-sharoitlarining imkoniyatlarini izlashni taqozo qiladi. Buning oqibatida aholining qo'lidagi pul, mablag'lar ham o'z qiymatini yo'qotadi va mamlakat siyosiy hayotida bo'lgani kabi, iqtisodiy hayotda ham demokratik jarayonlarning rivojlanishi sodir bo'ladi. Bu yo'l o'ta xavflidir.

Inqilobiy yo'l uchun zarur bo'lgan asosiy omillar qatorida:

- a) sobiq tuzum sharoitida xususiy mulk kurtaklarining saqlanib qolganligi;
- b) demokratik qadriyatlarning kurtaklari mavjudligi;
- v) mamlakat hayotini demokratik tamoyillar asosida qayta qurishga qodir bo'lgan intellektual salohiyatning etarli bo'lishi;
- g) aholining ma'lum bir qismi ana shu demokratik jarayonga hech bo'lmaganda «moyil» bo'lishi kabi jihatlari hal qiluvchi omildir. Ularning har biri inqilobiy yo'l uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, intellektualning rolini olib ko'raylik. Ular mamlakat hayotida bo'ladigan har bir o'zgarishni yuzaga keltiruvchi asosiy qudrat hisoblanadi. Xalq hokimiyatdan ko'ra, ularga ko'proq ishonadi va ergashadi. Shu ma'noda ham ular ommani uyushtiradi va demokratik jarayonlarga yo'naltiradi. Shuning bilan birga intellektualning o'zi ham demokratik jarayonlarning murakkab muammolarini hal qilishda bardosh bera oladigan, uyushgan kuch darajasiga ko'tarilgan bo'lishi lozim.

Intellektualning xarakterli xususiyati shundaki, u boshqa ijtimoiy tabaqalardan ko'ra, jamiyat hayotida yuzaga keladigan jarayonlarni oldindan bilishga intiladi va bu o'zgarishlarning boshida tura oladi. Yoki aholi ma'lum bir qismining mamlakatning o'tish davridagi murakkab sharoitlarga (moyil) bo'lishi zarurligi omili ham demokratik jamiyat uchun alohida ahamiyatga egadir. Bu jarayonda aholi murakkab muammolarni hal qilishda faqat kuzatuvchi bo'lib, ularni hal qilishda faol ishtirok qilmas ekan, inqilobiy yo'l hech qanday samara bermaydi. Aksincha, inqilobiy yo'l mamlakatni taraqqiyotdan orqada qolib ketishiga olib keladi. Intellektuallarning ana shu keskin o'zgarishlardagi yakdilligi uyushgan tashkilotlari va harakatlantiruvchi kuchlariga aylanishini taqozo etadi.

Jamiyatni demokratlashtirishda ana shu omillarga etarli e'tibor qilinmasa, inqilobiy yo'l ham o'zining samarasini bermaydi. Bu yo'ldan ovro'paning sobiq sotsializm tuzumida yashagan Polsha, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Bolgariya va Rossiya kabi mamlakatlari bormoqdalar. Demokratiyaga o'tishning bu yo'li sharqqa to'g'ri kelmaydi. Biroq, inqilobiy yo'l

bilan o'tish uchun zarurati qaysidir darajada mavjud bo'lib qolmoqda. Inqilobiy yo'l demokratik jamiyat siyosiy hayotida keskin burilish sodir etadi. Mamlakatlar siyosiy tizimida (sistemi) boshqaruvning mohiyatan butunlay yangi shakli vujudga keladi. Iqtisodiyotda davlat mulkini xususiyashtirishda, ma'naviy-ma'rifiy sohada eski mafkuradan voz kechishning keskin amalga oshirilishi bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Ammo, ular o'zaro ichki kurashlarning avj olishi, ba'zi mamlakatlarda qon to'kilishining sodir bo'lishigacha bo'lgan og'ir jarayonlar shaklida amalga oshdi. Bu yo'l qanchalik murakkab, mamlakat hayotida juda katta buhronlarga olib kelishni hisobga oladigan bo'lsak, uni har mamlakat o'z xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holdagina amalga oshirishi mumkin.

Demokratik jamiyatga o'tishning uchinchi - evolyutsion yoki bosqichma-bosqich yo'l hisoblanadi. Uning xarakterli xususiyati shundaki, mamlakatda amaldagi siyosiy hokimiyat tugatilib, uning o'rniga yangi hokimiyat vujudga kelishi bilan, eskini keskin, bir «zarb» bilan tugatmasdan, bosqichma-bosqich, vazminlik bilan tugatilib boriladi. Hatto, ularning ayrim imkoniyatlaridan ham foydalanib boriladi. Xuddi ana shu jarayonda iqtisodiy islohotlarni olib borishdi va bu yo'nalishda yangi munosabatlar shakllantiriladi. Bu yo'lning o'ziga xosligi siyosiy va iqtisodiy hayotda o'tkazilayotgan islohotlar bilan hamohang ravishda ma'naviy-ma'rifiy sohalarni ham yangi ehtiyojlar asosida rivojlantirilib borilishidir.

Xo'sh nima uchun asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tish zaruriyati tug'iladi? Agar asta-sekin o'tiladigan bo'lsa, uning klassik yo'ldan farqli tomoni nimada? Unda ham asta-sekinlik bilan demokratik jamiyatga o'tilgan-ku?

Albatta, evolyutsion yo'lning klassik (an'anaviy) yo'ldan farqli tomonlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, klassik yo'lda demokratik qadriyatlar mavjud jamiyat ichida yuzaga keladi. Bunda faoliyat ko'rsatayotgan tuzumning taraqqiy qilishi, mulk egalariining oddiy xalqning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilib boriladi. Uning o'ziga xos xususiyati, har ikki tomonning ham manfaatdorligidadir. Bunday sharoitda demokratik qadriyatlar taraqqiyotning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining «ma'rifatlashib», xalq farovonligini ta'minlash omili bo'lib qoladi. Hozirgi davrda ko'pchilik mamlakatlar evolyutsion yo'l totalitarizm yoki diktaturalar xukmronligini barbod etilishining birdan-bir to'g'ri yo'l ekanligini tasdiqlamoqda. Ayniqsa, o'rtacha rivojlangan mamlakatlarning demokratiyaga o'tishi uchun xos bo'lgan bu yo'l mamlakatlar hayotida keskin o'zgarishlarni amalga oshirishning imkoniyatlari bo'lmaganligi bilan ham bog'liqdir.

Ikkinchidan, klassik o'tish yo'lida aholining dunyoqarashi o'zgarib borishini taqozo qilgan bo'lsa, totalitarizm – ommaning ongini to'laligicha o'z manfaatlariga bo'ysundirgan jamiyat bo'lganligi uchun ham uni bir «zarb» bilan demokratiyaga «moslashtirish» nihoyatda murakkab edi. Chunki ongni o'zgartirish qisqa vaqtda amalga oshadigan jarayon emas, u jamiyat hayotida bo'ladigan o'zgarishlarga mos ravishda sodir bo'ladi.

Ayniqsa, bu jarayon sanoat ishlab chiqarishi kam taraqqiy qilgan agrar sektor etakchilik qiladigan mamlakatlarda asta-sekinlik bilan amalga oshishi ham umumqonuniyatdir. Chunki bunday mamlakatlarda aholining siyosiy madaniyati keskin o'zgartirishlar ehtiyojlaridan orqada qolgan bo'ladi.

Uchinchidan, klassik o'tish uchun xos bo'lgan kapitalistik munosabatlar sharoitida demokratiyaga o'tishda eski tuzum xavf tug'dirmaydi, balki u o'rnini taraqqiyot qilayotgan yangi demokratik munosabatlarga «bo'shatib» bera boshlaydi.

Totalitarizm esa yangi demokratik jarayonlar uchun xavf tug'diradi. Chunki uning hukmronligi davrida shakllangan, nihoyatda kuchga tayangan munosabatlar va ma'naviy-ma'rifiy salohiyat demokratik jarayonlar rivojlanishi uchun qarshilik ko'rsatib turadi. Buni albatta hisobga olmaslik mumkin emas.

Shuning bilan bir qatorda mamlakatning taraqqiyot darajalari, xalqning mentaliteti, urf-odatlarini va qadriyatlarini hisobga olish evolyutsion yo'lining katta imkoniyatlari bo'lib, bu o'tish davrida nisbatan kam talofatlar sodir bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham ko'pgina olimlar bugungi kunda evolyutsion yo'lni o'tish davri uchun eng maqbul yo'l sifatida tan olmoqdalar. Jumladan, Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi

A.N.Yakovlev shunday yozadi: «... inqilob bu - boshi berk ko'cha, yo'lini yo'qotish demakdir. O'zaro janjal va to'polonlar sharoitida ham quyidan, ham yuqoridan boshlanadigan jinoyatlar avj oladi. Shu tariqa lyupenlar jinoyati hokimiyat jinoyati bilan bir-biriga aralashib ketadi. Inqilob davrida shafqatsizlik misli ko'rilmagan darajaga etadi. U olg'a rivojlanish haqidagi nazariyalarni yaratadi-yu, oxir oqibatda o'zi ana shu harakat yo'lida to'g'anoq bo'ladi. Faqat tabiiy, tadrijiy yo'l insonga qoniqish tuyg'usini, jamiyatga esa o'z taraqqiyotini izchil puxta o'ylangan, rejali tarzda amalga oshirish imkonini beradi».¹

Evolutsion yo'ning yana bir afzalligi shundaki, bugun insoniyat juda katta intellektual kamolot darajasiga ko'tarildi. Shuning bilan birga, uning ehtiyojlari ham unga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Ana shu ikki jarayonni uyg'un holatda rivojlantirish imkoniyatini faqat evolyutsion yo'ldan borish bilan hal qilish mumkin bo'ladi. Bugun xuddi ana shu yo'l fojealarga olib keluvchi qarama-qarshiliklarning oldini olishga va taraqqiyotga murosa-yu, madora yo'l bilan erishish imkonini bermoqda. Bu yo'l bugun o'z mustaqilligini qo'lga kiritib endi taraqqiyot yo'liga kirayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun ham samarali bo'lgan yo'l hisoblanadi. Ular hozir taraqqiyotning qaysi bosqichlarida bo'lishlariga qaramasdan, demokratik taraqqiyot bosqichiga ham tabiiy-tadrijiy yo'ldan borishlari pirovard bosh maqsadga erishish demakdir.

Ammo, ularning ichki hayotiga aralashuv, demokratiyani tashqaridan bir «zarb» bilan kiritishga har qanday urinishlar kutilgan natija bermaydi. Bunday holat faqat mamalakatda ichki va tashqi ziddiyatlarning kuchayishiga, demokratiyaning bunyodkorlik kuchiga emas, uni taraqqiyotdan orqaga uloqtirib tashlovchi vayronkor kuch sifatida namoyon bo'lishiga olib keladi. Bunday sharoitda mamlakatda fuqarolar urishi kelib chiqish xavfi yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatlararo, millatlararo qarama-qarshiliklarni kuchaytirib, demokratiyaning qaror topishiga yo'l qo'ymaydi.

Evolutsion yo'ning samarali rivojlanishi uchun tashqaridan bo'ladigan har qanday «yordam» mamlakatda demokratik jarayonlar rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan shart-sharoitlarini yuzaga keltiradi. Chunki demokratiya hokimiyatni boshqaruvida xalqning ishtirok etishi bilan belgilanar ekan, uni «majburlab», boshqaruv jarayoniga jalb qilib bo'lmaydi. Uning uchun ehtiyoj, zaruriyat, shart-sharoitlarning yuzaga kelishi va xalqning undan foydalanishiga bo'lgan «tabiiy» intilishi shakllanmog'i kerak bo'ladi.

Ana shu jarayonning yuzaga kelishi evalyutsion yo'l bilan demokratik jamiyatga o'tish imkonini beradi. Ular mavjud bo'lgan mamlakatlarda bu yo'l o'z samarasini berayotganligini O'zbekiston misolida ko'rish mumkin.

Xullas, evolyutsion yo'l bugun dunyo mamlakatlarining rivojlanishiga va mintaqalarda barqarorlikning yuzaga kelishiga hamda umumiy taraqqiyot uchun samara bera oladigan yo'l sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonlarni o'rganish zarur.

O'tish davrining umumiy qonuniyatlari O'zbekiston uchun ham umumiylikka egadir. O'tish davrining boshlanishi uchun xos bo'lgan, amaldagi siyosiy hokimiyatning tugatilishi, uning zaminida iqtisodiy sohadagi islohotlarning amalga oshirilishi uchun zamin tayyorlash va oldingi tizimning mavjud ma'naviy-mafkuraviy zo'ravonligidan qutilish bilan xarakterlanadi. Ular qaysi darajada bo'lishidan qat'iy nazar, demokratik tamoyillar asosida rivojlanish yo'lini tanlagan barcha mamlakatlar uchun umumiy zaruriyat hisoblanadi. Ammo, hamma masala o'tish davrining ichida amalga oshiriladigan vazifalar strategiyasini belgilash, ularni hal qilishning mexnizmlarini ishlab chiqish va ularni reallikka aylantirish kabilarda har bir mamlakatning o'ziga xos hususiyatlari mavjud bo'ladi. Bir mamlakatning yohud bir necha mamlakatlarning o'tish davrida qo'llagan tajribalarini aynan ikkinchi mamlakat qo'llay olmaydi. Chunki demokratik jamiyatga o'tishda na faqat mamlakatlarning taraqqiyot darajalari belgilovchi ahamiyatga ega bo'ladi, xuddi shuningdek, har bir mamlakatda yashayotgan xalqning mentalitetini hisobga olish ham muhim ahamiyatga molikdir. Uni hisobga olmaslik esa pirovard maqsadga erishish imkonini bermaydi. Shu sababdan ham

¹ Яковлев А.Н. «айтадан кашф этилган мамлакат. Сўз боши ўрнида. «Халқ сўзи», 2001 йил, 9 феврал

O'zbekistonda uning o'ziga xos va o'ziga mos bo'lgan evolyutsion tadrijiy yo'li ishlab chiqildi. Bu yo'lning O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l ekanligi Prezident Islom Karimov tomonidan ilmiy asoslandi va uning kontseptual g'oyalarini fundamental tarzda bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishildi.

Bu yo'l Prezident tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilda o'z ifodasini topdi. Xuddi ana shu tamoyillarni tavsiflab, Prezident shunday ta'kidlagan edi: «Shuni alohida takidlash zarurki, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojeali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish – tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir».¹

Bu bosh g'oyani Prezident Islom Karimov jahon mamlakatlarining tajribalarini chuqur tahlil qilish asosida ilgari surdi va O'zbekistonga xos o'tish davri «model»ini ishlab chiqishda uning dunyodagi bironta ham davlatlardagi «model»lariga aynan o'xshamasligiga asosiy e'tiborni qaratdi.

U mamlakatimiz o'z mustaqilligini endigina qo'lga kiritgan va mustaqillikning xavfi xali batamom tugamagan sharoitda - 1992 yilda bu kontseptual g'oyani ilgari surdi. U shunday yozadi: «O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. Chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan kollektivchilik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'i nazar, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom - O'zbekiston aholisiga xos fazilatlaridir. Ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqib, amalga oshirish chog'ida islom dinini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Odamlarning turmush tarzida, ruhiyatida, milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda, umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

5 – mavzu. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy va umumbashariy tamoyillari.

REJA:

1. Demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillarning o'рни.
2. Prezident I.A.Karimov asoslarida demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillar to'g'risidagi nazariyalar.
3. Demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillarning ahamiyati.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning milliy, umumbashariy tamoyillari va qadriyatlarining metodologik asoslari, ilmiy va amaliy jihatlarini Prezident I.A.Karimov asarlari, nutqlarida keng hamda chuqur yoritilgan. Ma'lumki, «tamoyil» tushunchasi - yo'nalish, rus tilida qo'llaniladigan «tendentsiya» so'zi esa, asli lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, «tamoyil» atamasining muqobolidir. Prezident I.A.Karimov asarlarida «tamoyil» va «yo'nalish» so'zlari

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Т.: «Ўзбекистон», 1993, 39-бет.

sinonim sifatida qo'llanib kelinmoqda. Agar bu so'zlarning ma'nosiga e'tibor qaratilsa, ular jamiyatning turli jabhalarida ob'ektiv, takrorlanuvchan, ustuvor hodisa sifatida ko'zga tashlanadi. Demak, jamiyat hayotida "tamoyil" yoki "yo'nalish" ma'lum bir jarayondagi qonuniyatni o'zida aks ettiradi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning etakchi olimlari tomonidan ijtimoiy-siyosiy fanlarida demokratiyaning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish va to'ldirish borasida bir muncha ishlar qilindi. Shunga qaramay, mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etish jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi va namoyon bo'lish xususiyatlari jiddiy o'rganishni talab etadi. Vaholanki, demokratiyaning muhim umumjahon e'tirof etgan asosiy tamoyillari mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir;

- erkin va adolatli saylovlar;
- ochiq va hisobot beruvchi hukumat;
- inson huquqlarining ustuvorligi;
- hokimiyat organlarining saylanib qo'yilishi;
- so'z, matbuot va vijdon erkinligining Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanishi;
- qonun ustuvorligi;
- fuqarolarning siyosiy va iqtisodiy huquqlari mavjudligi va tengligi;
- tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylab qo'yiladigan organlar oldida hisob berish burchliligi;
- ko'ppartiyaviylik tizimining mavjudligi;
- umummilliy masalalarning hal etilishida referendumlarning o'tkazilishi;
- mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning tengligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi;
- siyosiy muxolifatning ochiq faoliyat ko'rsatishi;

jamiyatda plyuralizm, ya'ni fikrlar xilma-xilligi, rang-barangligini kafolatlovchi qonunlarning mavjudligi hamda ularni amaliy hayotga joriy etish masalalari samarasining ortishi.

Ma'lumki, O'zbekiston xalqi o'z mustaqilligiga erishgach, Er sharining ko'pchilik aholisi kabi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Tabiiyki, bunday jamiyatni shakllantirishda, avvalambor, O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos milliy tamoyillarini jahonda kechayotgan umuminsoniy tamoyillar bilan uyg'unlashayotganligini nazardan qochirmaslik kerak.

O'zbekiston aholisining bozor iqtisodiga asoslangan demokratik jamiyat qurishida istiqbolimizning dastlabki yillaridayoq Prezident I.A.Karimov quyidagi milliy tamoyillarga jamoatchilik diqqatini qaratdi. Bu milliy tamoyillar I.A. Karimovning 1992 yilda yozilgan "Istiqlol yo'li; muammolar va rejalar" hamda "O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li" asarlarida ilmiy jihatdan har tomonlama asoslab berildi. Keyinchalik Yurtboshimiz bu tamoyillarni turli hayotiy misollar va dalillar asosida yoritib berdi. "Bozor iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, milliy tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf-odatlarini, an'analarimizni, kishilarning fikrlash tarzini hisobga olamiz. O'zbek xalqi azaldan jamoa tuyg'usiga moyil",⁸ - deb yozgan edi I.A.Karimov. Bu *birinchi tamoyil* bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tishda o'zbek xalqining o'ziga xosligi, uning boy tarixiy an'analari, o'ziga xos fikrlash tarzining qadimgi davrlardan boshlab jamoa sifatida ahil bo'lib yashash mentalitetini ko'rsatib turibdi.

Ikkinchi tamoyil haqida I.A.Karimov shunday deb yozadi: "Mustaqil davlatimizning siyosatini belgilab olar ekanmiz, islom dinimizni albatta nazarda tutishimiz kerak, negaki din turmush tarzimizga, ma'naviy qadriyatlarimizga, kishilar ongiga o'zining o'chmas muhrini bosgan."⁹

Uchinchi milliy tamoyil sifatida Prezidentimiz "O'zbekistondagi demografik vaziyatni albatta hisobga olish zarur"¹⁰ deb uqtiradi. Ma'lumki yurtimizda aholining tabiiy o'sish sur'ati juda katta

⁸ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-т. -Т.: Ўзбекистон, 1996, 11-бет

⁹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-т. -Т.: Ўзбекистон, 1996, 12-бет

¹⁰ Ўша манба, 12-бет

bo'lib, mehnat resurslarining ortib borishi darajasi ham shunga mos keladi. Qolaversa, aholining 60 foizidan ko'prog'i qishloqlarda istiqomat qilishadi.

To'rtinchi tamoyil bu - O'zbekistonning ko'p millatli davlat ekanligi. Unda 120 dan ortiq millat, elatlar yashaydi va ular 15 diniy konfessiyalarga mansub.

Beshinchi tamoyil, bu O'zbekistonning geosiyosiy jihatdan qulay makonda joylashganligi, qadim karvon yo'llarining bizning Vatanimiz hududidan o'tganligi, turli tsivilizatsiyalarning Markaziy Osiyoda tutashganligi hamda bugungi kunda ham mintaqamizning Sharq bilan G'arb dunyosi o'rtasida muhim bo'g'in ekanligidadir.

Oltinchi tamoyil "O'zbekistonda islohotlar o'tkazishga mavjud tabiiy iqlim, shart-sharoitlari"ning katta ta'sir ko'rsatishidan iborat.⁴

Etтинchi tamoyil - "O'zbekiston o'zining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash uchun etarli salohiyatga ega"⁵. Yana bir muhim tamoyil sifatida I.A.Karimov "keyingi o'n yillar mobaynida ma'lum qadriyatlarga ega bo'lgan kishilarning muayyan ijtimoiy ongi shakllanishini ham e'tiborga olmaslik mumkin emas", deb uqtiradi. Gap shundaki, mustaqillikdan oldingi 130 yildan ko'proq davr mobaynida xalqimiz o'zining milliy, madaniy, moddiy boyliklaridan begonalashdi. Jahon hamjamiyatidan butunlay ajralib qoldi. Shu sababli, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida bu vaziyatni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi tamoyillar yoki omillarni chuqur o'rganib, Prezidentimiz I.A.Karimov istiqlolning dastlabki yillarida islohotlarning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqdi. Bu O'zbekistonning o'ziga xos aql-idrokka asoslangan taraqqiyot yo'li jahon afkor ommasidan haqli ravishda "**taraqqiyotning o'zbek modeli**" degan nom oldi.¹ Aynan ana shu tamoyillarda bir tomondan milliylik, ikkinchi tomondan umuminsoniylik yo'nalishlari uyg'unlashdi yoki ularning dialektik mutanosibli o'z aksini topdi. "Birinchi tamoyilimizda, - deb yozgan edi I.A.Karimov, - avval-iqtisod, keyin siyosat degan shiorni olg'a surdik"². Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi nazarda tutiladi. Iqtisodiy islohotlar siyosatdan ortda qolmasligi zarur.

Ikkinchi tamoyil - bu davlatning bosh islohotchi ekanligi. Yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqish va ularni izchillik bilan amalga oshirishni davlat o'z zimmasiga oladi.

Uchinchi tamoyil, o'z navbatida jamiyat hayotida, barcha sohalarida qonunning ustuvorligi ta'minlanadi. Aynan O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi ham umuminsoniy va milliy tamoyillarning mujassamlashgan yorqin namunasi hisoblanadi.

To'rtinchi tamoyil, bu aholining demografik vaziyati, ayniqsa, uning 60 foizidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etganligi, kam ta'minlangan oilalarni, bolalarni, nafaqaxo'rlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida kuchli ijtimoiy siyosat olib boriladi.

Beshinchi tamoyil - bu xalqimiz an'analari, urf-odatlar hamda bozor iqtisodiyotining ob'ektiv qonun-qoidalarini hisobga olgan holda unga «shok terapiyasi» asosida emas, balki evolyutsion tadrijiy asosda, puxta o'ylab bosqichma-bosqich o'tish nazarda tutiladi.³

Shunday qilib, ushbu tamoyillar yoki taraqqiyotning «o'zbek modeli» O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga o'tishining hamda uning jahon hamjamiyati bilan izchillik asosida integratsiyalashuv kontseptsiyasining negizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1995 yil 23 fevralda I chaqiriq Oliy Majlisining I sessiyadagi ma'ruzasi "O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" deb nomlanishi bejiz emas. Mazkur ma'ruzada Yurtboshimiz Sharqda, qolaversa O'zbekistonda dunyoviy, demokratik jamiyat barpo qilishning uch muhim tamoyili ustida to'xtab, ularni ilmiy jihatdan asoslab berdi. Xo'sh, O'zbekistonda qurilayotgan demokratik, adolatli

⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-т. -Т.: Ўзбекистон, 1996, 13-бет
⁵ Ўша манба, 13-бет.

¹ М.С.Гафарли, И.А.Касаев. Ривожланишнинг «ўзбек модели»: тинчлик ва барқарорлик - тараққиёт асоси. - Т.: «Ўзбекистон», 2001. -430 б.

² Каримов И.А. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: «Ўзбекистон» 2001, 36-38 бет., 177 бет.

³ Каримов И.А. Биздан овоз ва обод Ватан қолсин. 2 Т., -Т.: «Ўзбекистон», 1996, 177-180 бетлар.

fuqarolik jamiyatining shaklu-shamoyili qanday bo'lishi kerak? "Sharqda, - deb yozadi I.A.Karimov, - demokratik jarayonlarning, qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari ham "ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli" deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi"¹. Shu o'rinda demokratik jamiyat qurishning milliy, umumbashariy tamoyillarida sharqona qadriyatlar qanday o'rin egallaydi?, degan savol tug'iladi. Agar e'tibor bilan qaralsa, bu o'rinda jarayonlar so'zi tamoyillar ma'nosini ham anglatmoqda. To'g'ri, ikkinchi tamoyilni Prezidentimiz demokratlashtirishning "ikkinchi muhim sharti" deb nomlagan. "Jamiyatni demokratlashtirishning ikkinchi muhim sharti odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo'lishiga bog'liqdir"². Fikrimizcha, mazkur tamoyil umumbashariy tamoyildir. "Uchinchidan, - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov, -demokratik jarayonlar xalqimiz milliy madaniyatining o'ziga xos jihatlari, uning tabiatini o'zida mujassam etmog'i kerak. Ma'lumki, G'arb namunasi ko'p hollarda individualizm falsafasiga tayanadi va ommani haddan tashqari siyosiyashtirishga olib keladi"³. Demak, milliy tamoyillar bilan birga mintaqaviy tamoyillar ham mavjud. Ko'rinib turibdiki, I.A.Karimovning ta'kidlashicha, demokratiyani shakllantirishda O'zbekiston uchun G'arb namunasi emas, ko'proq Sharq tajribasi qo'l keladi. "Osiyo" mintaqasi va musulmon Sharqidagi demokratik qadriyatlar va o'zgarishlar rivojining tajribasi o'ziga xos xususiyatlar, o'ziga xos an'analarga ega. Sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilikning fikricha, ustuvorlik zaminida shakllanadi"¹. Osiyo mintaqasi va musulmon Sharqining boy tarixiy tajribasiga asoslanib, I.A.Karimov O'zbekistonda demokratik tamoyillarning rivoji to'g'risida nihoyatda muhim xulosaga keladi: "Bizning mamlakatimizda, - deydi Yurtboshimiz, - demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilish, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishi zarur. Ahloqiy, ma'naviy qadriyatlar siyosiy munosabatlarda ham ustunlik kasb etishi darkor"².

Demokratik jamiyat kontseptsiyasida milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, diniy qadriyatlarning o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Negaki, ular o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Bunday fikr bildirishimizga muayyan tarixiy sharoitlarda ob'ektiv zaruratlar tufayli jamiyat rivojlanishi uchun milliy qadriyatlar diniy qarashlar bag'rida shakllanganligidir. Shunga ko'ra bizning milliy qadriyatlarimiz faqat islom zaminida vujudga kelmagan, balki zardushtiylik, buddaviylik kabi dinlardan ham ko'p narsalarni olgan. Binobarin, har qanday qadriyatlarning bosh manbai ijtimoiy hayotdir. Buning isboti sifatida hozirgi davrda mamlakatimizda ko'pgina tarixan din bilan bog'liq qadriyatlar o'zlarining diniy mazmunini o'zgartirib, dunyoviy milliy qadriyatlarga aylanganligidir. Ayni paytda, demokratik jamiyatni barpo etishda din har doim ham uning tarafdori bo'lavermaydi. Ayniqsa, hozirgi murakkab o'tish davrida islom g'oyalari va qarashlaridan bir-biriga tubdan qarama-qarshi maqsadlar yo'lida foydalanishga urinishlar jonlangan bir paytda, ana shu omilning o'rnini alohida tahlil etish zarur.

Uning zaruratini Prezident I.A.Karimov alohida va bir necha marta ta'kidlab kelmoqda. «Mustaqillik yillarida eng katta qo'lga kiritgan yutuqlarimizdan biri tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma'naviy yuksalishidagi o'rne va ahamiyatini qayta tiklanganligidir. Ayni zamonda, tajovuzkor aqidaparast kuchlar islom dini xalqimiz uchun muqaddas qadriyat ekanligidan foydalanib, O'zbekistonni demokratik, ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan og'dirishga intilmoqdalar». Keyingi yillarda dunyo miqyosida islomdan qarama-qarshi maqsad yo'lida foydalanishlar yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etishda milliy tamoyillarning asosini tashkil etuvchi qadriyatlar ham alohida o'ringa egadir. Mustaqillik tufayli unga bo'lgan yangicha yondashuvlar

¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3 Т., -Т.: «Ўзбекистон» 1996, 8-9 бетлар.

² Ўша манба. 8-9 бетлар.

³ Ўша манба. 9-бет.

¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т3. -Т.: «Ўзбекистон» 1996, 9-бет.

² Ўша манба, 9-10 бетлар.

Prezident I.A.Karimovning milliy va umumbashariy qadriyatlar to'g'risidagi metodologik ilmiy mulohazalari hamda amaliy faoliyatlaridagi ko'rsatmalari, tashabbuslari bunning yorqin misolidir. Milliy va umumbashariy qadriyatlar to'g'risida bir qator mamlakatimiz olimlarining fikr va mulohazalarini umumlashtirish lozim. Negaki, O'zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarimizga asoslanadi.

Shu nuqtai nazardan, qadriyat tushunchasining ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda ko'pgina ilmiy ta'riflari mavjud. Berilgan ta'riflarni tahlil etish bir tomondan turli xil yondashuvlarning mavjudligini, ikkinchi tomondan esa, ularning butunlay bir-birini inkor etishi hollarining mavjud ekanligini ko'rsatadi. Masalan, "Falsafiy entsiklopediya"ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: "Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U birinchidan, bir ob'ektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi"¹. Rus tilidagi "tsennost" ya'ni qadriyat tushunchasiga, kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga, ma'naviy dunyoqarashiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha narsa va hodisalar kiritilgan.

Ana shunga yaqin nuqtai nazar boshqa ilmiy manbalarda ham bayon etilgan: "Qadriyat (falsafa, sotsiologiyada) - voqelikdagi muayyan hodisalarning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'rifiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlarning mazmuni va xarakteriga ko'ra, progressiv va reaksion tiplarga ajratish mumkin" deyilgan. Fikrimizcha, bunday ta'riflar mazkur kategoriyani o'ta sig'imdor qilish bilan birga, uning asli mohiyatini aniqlashda bir qator ilmiy chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Shunga ko'ra uning mazmuni, tuzilishi, asosiy shakllari namoyon bo'lish xususiyatlari va umuminsoniy qadriyatlar tizimi, bu tizimdagi asosiy qadriyat shakllarining o'rni va ahamiyatini ilmiy tahlil qilish bilan bog'liq bir qator masalalarga e'tibor kam ekanligini ko'rsatib o'tish lozim.

"Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim"². Rus, ingliz, nemis, frantsuz va chex tillarida Rossiya Fanlar Akademiyasining akdemigi G.V.Osipov muharrirligida chop etilgan "Sotsiologicheskii entsiklopedicheskiy slovar" da qadriyatlarni baholash, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy qadriyatlar, qadriyatlar yo'nalishi va umuman qadriyatlarga ta'riflar berilgan¹. Qadriyatlar tushunchasiga "Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati"da ham alohida o'rin ajratilgan.

"Qadriyatlar — jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi"² degan ta'rif berilgan. Qadriyatlarni bunday ta'riflash uning mohiyatini ancha yorqin ifodalasada, lekin qadriyatlarga berilgan ta'riflar ichida o'zining ilmiyligi bilan boshqa ta'riflardan ajralib turadi, degan fikrdamiz. Bizningcha, "umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan, insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo'nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyat tushunchasining ob'ektiv asosi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar, insoniyatning uzluksiz xayotini va turmush tarzini umumlashtiradigan jamiyatdir". Darxaqiqat "umuminsoniylik" tushunchasida qadriyatlarni tirik tabiatning bir qismi bo'lgan odam zotining hayoti va kamoloti uning tarixiy taraqqiyoti, siyosiy va boshqa birliklar uchun ahamiyati o'z ifodasini topishi kerak. Shu o'rinda insoniyatning eng umumiy jamoasi bo'lgan jamiyatgina, umuminsoniy qadriyatlarining

¹ Философская энциклопедия, М., 1970, Т 5, с. 462

² адриятлар ва ижтимоий тараққиёт (илмий ишлар тўплами), -Т., Ўзбекистон, 1997, 198 б.

Т.Комилова, С.Абидова Миллий ахлоқий қадриятлар ва уларнинг тарбиявий аҳамияти, ЎзФА, "Фан"наш., 2000, 20 б. Б.С. Ерасов Культурология, 2-е изд., М.: "Аспект-Пресс", 1997, 591 б.

Н. Ортиқов Маънавият: Миллий ва умуминсоний қадриятлар, -Т., "Ўзбекистон", 1997, 48 б.

¹ Г.В.Осипов. Социологический энциклопедический словарь, М. 2000, 402-403 с.

² Мустақиллик изохли илмий-оммабоп лугат. А. Жалолов ва а. Хоназаров умумий таҳририда. -Т.: "Шарқ", 1998, 279-бет

yaratguvchisi va saqlab turuvchisidir. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko'lamli va serqirra tushuncha. Uning zaminida eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt-saodati kabi umumijtimoiy ma'no va mazmun kashf etadigan qadriyatlardan iborat, deyish mumkin. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma'naviy boyliklar sifatida tushunish va uni shunday izohlash ham ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri emas.

Yuqoridagi adabiyotlarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, o'tmishdagi barcha ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarda qadriyatlarning mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni masalasiga katta e'tibor berishgan. Agarda qadimgi dunyo ijtimoiy-falsafiy ta'limotlarida umuminsoniy qadriyatlar inson aqliy taraqqiyotining mahsuli deb qaralgan bo'lsa, Turondagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida "Avesto"dagi uchinchi davr deb atalgan insoniyat kelajak istiqboli, adolatli jamiyat haqidagi fikrlar uning tarixiy ildizlarini tashkil etadi.

Har bir millat o'z qadriyatiga ega. Binobarin, uning har bir mamlakat, har bir xalq rivoji uchun imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish – demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrda qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ham ana shundadir. Mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishdagi o'rnini aniqlash borasida jiddiy ilmiy izlanishlar ham, amaliyot bilan bog'liq muammolar ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Negaki, biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbollarini tasavvur eta olmaydi. Ayniqsa, bizning sharqda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Xalqimizning yaqin o'tmishdagi uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'lganligi sababi ham ruhida, qalbida doimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo'lganligidir. «Biz, deb ta'kidlaydi I.A.Karimov, - ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz»¹. Demak, O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlarisiz, alohida ajratib bo'lmaydi. Shu o'rinda xo'sh, «qadriyat» so'zi nima ma'noni anglatadi degan tabiiy bir savol tug'iladi. «Qadriyat» atamasi bizga arabcha «qadri» so'zidan kirib kelgan bo'lib, bugungi kunda bu tushuncha «borliq va jamiyatdagi biror bir narsa va hodisaning kishilar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatni ifoda etish uchun qo'llanilmoqda. Bu masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi tomoni shundan iboratki, «qadriyat» so'zi qadim zamonlarda paydo bo'lgan va barcha xalqlar tillarida mavjuddir. Demak, bu tushuncha bir necha ming yillik tarixga egadir. Fikrimizning isboti sifatida qadimgi dunyoda «aksiologiya» degan atamaning mavjud bo'lishidir. Aksiologiya aslida falsafaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Faqat bu tushuncha XIX-XX asrlarga kelib, Evropa mamlakatlari falsafasida rivojlantirildi. Uning tarixi demokratiya tarixi bilan bog'liqdir. Binobarin, Evropa mamlakatlarida ham demokratik jamiyatni barpo etishda qadriyatlarga asoslanish ustuvor bo'lgan.

Ammo biron-bir narsa va hodisa, xoh u moddiy bo'lsin, xoh ma'naviy bo'lsin, qadriyatga aylanishi uchun ma'lum bir vaqt, davr o'tishi kerak. Demokratiyani milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanishi ham shunday bosqichlarni bosib o'tgan. Shunga o'tmishdagi barcha narsalar ham milliy qadriyat hisoblanavermaydi. Uning milliy qadriyatga aylanishi uchun o'zini ko'rsata olishi shart. Demak, biz demokratik jamiyat qurishdagi o'tmishimizdagi barcha narsalarimizni to'laligicha ololmaymiz. Negaki u hamma uchun ibratli emas.

Shu o'rinda Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi «... o'tmish qadriyatlarga, an'analarga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka - hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin» edi. Ayni shu inkor etish onlarida ekstremistik ruhdagi

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997. 137-б.

muxolifatning vujudga kelish xavfi tug'ildi. U aslini olganda, ma'naviyatga qarshi muxolifat bo'lishi mumkin edi¹. Ba'zan shunday ham bo'ladi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlardan tashqari diniy qadriyatlarimizga ham alohida o'rin berilayotganligi tasodifiy hol emas. Chunki milliy va diniy qadriyat o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Ular doimiy ravishda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi, bir-biri bilan muloqotda, birgalikda mavjud bo'ladi. Milliy va diniy qadriyatlar mutelikdan, fikr qaramligidan qutulish, milliy o'zlikni anglashga xizmat qilishi bilan ular jamiyatda demokratik umumbashariy tamoyillarining qaror topishiga zamin yaratadi.

Demokratik qadriyatlarning muayyan sharoitlarda shakllanishi. Ularning mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy shakllarda namoyon bo'lishi. Demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mutanosibligi hamda rivoji. O'zbekistonda adolatli demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlarning ma'lum ma'noda umumbashariy ahamiyat kasb etishi. Milliy qadriyatlarning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilishi.

Qadriyatlarning eng muhim turlaridan biri - milliy qadriyatlardir.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar tushunchalarining demokratik uyg'unligi dialektikasining qiyosiy tahlili jarayonida Amir Temur siyosiy-huquqiy qarashlarini o'rganish zarur. Amir Temur siyosatining bu g'oyasi "Kuch-qudrat, iqtidor-adl-insofda", deganidir. Saltanatni boshqarishida uchragan har qanday voqe'a va ishni to'ra va tuzuk asosida boshqardim² degan fikrlari umuminsoniy demokratik va milliy qadriyatlar tushunchasining ijtimoiy-falsafiy, ilmiy nazariy va metodologik ildizlarini tashkil etadi. Binobarin birma-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustaxkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqlarning madaniy qadriyatlari ma'naviy merosining ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qildi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu borada fikr yuritib shunday deb ta'kidlaganlar: "Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi"¹ Binobarin, har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Demokratik jamiyatni umuminsoniy va milliy qadriyatlarsiz barpo etib bo'lmaydi. Qadriyatlar haqida fikr yuritganda uning ikkita tarkibiy qismini nazarda tutmoq kerak. Bunda, eng avvalo, insonning ob'ektiv olamga nisbatan bo'lgan aktiv faoliyatini alohida tahlil qilish zarur. Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi va vorislik sodir bo'lib, yangi-yangi qadriyatlarning shakllanishiga o'tishdan meros bo'lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj va taraqqiyot uchun asos bo'lgan qadriyatlarga kiradi. Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni amaliy o'zgartirishning muhim omilidir.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar tamoyillar uyg'unligi qiyosiy tahlili uning inson ma'naviy kamolatining muhim omili ekanligidan kelib chiqishi zarur. Bunga: Yurtboshimizning "Mustaqillikka erishganimizdan keyingina biz buyuk ajdodlarimizning hurmatini o'rniga qo'ya oldik. Bizning bu intilishlarimizni Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, madaniy xalqaro hamjamiyat qo'llab-quvvatladi. Bu hol tasodifiy emas — sohibqiron Amir Temur shaxsi uning avlodlari bo'lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma'rifiy insoniyatning boyligidir" degan fikrlari har bir millat rivojlanishidagi tarixiy voqealar, unga ijobiy hissa qo'shgan shaxslar ham milliy qadriyatlar jumlasiga kirishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan Amir Temur shaxsi buning yorqin isbotidir. Binobarin, Amir Temur qanchalik taqvodor, asl musulmon bo'lmasin, qonunchilikning turli tizimlari — diniy va dunyoviy tomonlari borligini,

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. —Т.: «Ўзбекистон», 1998, 126-б.

² Темур Тузуқлари. -Т, Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991, 57-бет.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.:Ўзбекистон, 1997, 141 б.

ularni hisobga olish kerakligini juda to'g'ri anglagan. Amir Temur qonunchilik deganda faqat Shariat qonunchiligini emas, balki boshqa xalqlar qadriyatlarini, urf-odatlarini ham tushungan. "Milliy qadriyatlar — millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar. O'z milliy qadriyati bo'lmagan millat yoki elat yo'q. Millatning tanazzuli — milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi".¹ Negaki, milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri, balki demokratik, adolatli, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbai hamdir. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan asrlarga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlarini uzoq tarixiy jarayonda shakllangan va ko'plab og'ir sinovlarni boshdan kechirgan. Darhaqiqat, mintaqamiz xalqlari 3000 yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtirgan Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasini yaratdi.

Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi xos jihatlari quyidagilarni kiritish mumkin: tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom;

ajdodlar xotirasiga sadoqat;

kattalarga hurmat, yoshlarga izzat

insoniy muomalada mulozamat;

hayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi.

Ma'lumki, demokratik qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular:

— mahalliy

— milliy

— mintaqaviy

— umuminsoniy mazmunda namoyon bo'ladi.

Milliy muhit demokratik qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbasidir. Aynan milliy muhit mahalliy qadriyatlarning ustuvorlarini o'z darajasiga ko'taradi va ularni voyaga etkazib, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqadi. Umuminsoniy qadriyatlarni har bir kishi o'zining boyligiga aylantirgandagina milliy tamoyillar o'z kuchini ko'rsatadi. "Shu bilan birga o'tmish qadriyatlariga, an'analarga va turmush tarziga betartib ravishda orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka — hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin"² deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. Biz bugungi kunda haqiqiy qadriyatlarimizni:

— tadrijiylik, andishalilik asosida;

— buhron paytida sabr-toqat, maromiylilik va vazminlik asosida

— mulozamatda sertakalluflik, keksalarga munosabatda hurmat-izzat asosida;

— ijtimoiy-siyosiy hayotda bosiqlik, sipolik va boshqa asoslarda asrab-avaylab rivojlantirmoqdamiz.

Milliy qadriyatlar ham qandaydir o'zgarmas hodisalar emas. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borish, yashash va mehnat qilish sharoitlar o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Har bir qadriyat ma'lum konkret davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko'zgusi hamdir. Shu nuqtai nazardan qadriyatlarning demokratik tamoyillar bilan qaror topishidagi o'rniga baho berishdan oldin ulardan foydalanishda ikki omilga alohida e'tibor berish kerak: birinchisi— qaysi bir qadriyatlarning yuzaga kelgan aniq tarixiy sharoitlar, ikkinchisi o'sha davrlarga xos bo'lgan imkoniyat va ehtiyojlarni ham bilish kerak. Shuningdek, umumbashariy demokratik qadriyatlarmi, mintaqaviy qadriyatlarmi, milliy qadriyatlarmi uning qaysi zamin ehtiyoji asosida vujudga kelganligini, ular o'rtasida qanday uyg'unlik mavjud bo'lganligi, vorisiylik masalalarini ham o'rganish zarur. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning muhim shartidir.

Ayni paytda, fikrimizcha, muayyan milliy, sinfiy, mintaqaviy, shaxsiy va boshqa xususiy

¹ Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғати (А.Жалолов ва ʼ.Хоназаров умумий таҳририда) — Т.:”Шарк“, 19998, 141 б.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.:Ўзбекистон, 1997, 138 б.

qadriyatlar tizimi ham umuminsoniy qadriyatlar tizimining o'rnini bosa olmaydi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etishda umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish xususiyatlari nisbiy xarakterga ega bo'lib, uning bu xususiyati, ya'ni nisbiylik har doim ham ko'zga tashlanavermaydi. Shunga ko'ra demokratik tamoyillarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishda uning quyidagi namoyon bo'lish shakllarini alohida ta'kidlash zarur.

a) demokratik jarayonlarning uzviyligi asosida milliy qadriyat sifatida shakllantirish;

b) odamlarning tafakkuri va ijtimoiy-siyosiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasini mutanosib bo'lishiga erishish orqali;

v) jamiyatdagi turli xil guruhlar qarashlarini yagona maqsad – «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» degan milliy g'oya asosida hamjihatlilik, millatlararo totuvlik ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosida;

g) demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash;

d) siyosiy munosabatlarda ham axloqiy, ma'naviy, milliy qadriyatlar ustuvorligiga erishish orqali umumbashariy demokratik tamoyillarni mamlakat fuqarosining turmush ehtiyojiga aylantirish va boshqalar.

Demokratik adolatli jamiyat barpo etishda umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga xos bo'lgan kundalik muloqotlardagi mazmun bilan falsafiy aksiologik ma'no o'rtasidagi farqqa e'tibor berish lozim. Shu nuqtai nazardan bizning fikrimizcha, umuminsoniy qadriyat deganda eng avvalo, jamiyat va odamzod nasli uchun eng qadrlil va uning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qiluvchi umumijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi narsalar, xodisalar, faoliyat va boshqalarning nomi, ularning ijtimoiy ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy aksiologik tushunchalarni nazarda tutiladi. Demak, umuminsoniy qadriyat deganda jamiyat a'zolarining hammasi uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan va har bir shaxsning hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ijobiy ta'sir etadigan, kishilarning xatti harakati, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabati ham umuminsoniy qadriyatlarning mezoni sifatida baholanadi. Shu bilan xam umuminsoniy qadriyatlar tizimida demokratik tamoyillarning o'zi uning shakllanishi uchun keng maydon ochib beradi. Biroq bu degani milliy qadriyatlarning o'zni ana shu tizimda passiv holatda ekan-da degan xulosani chiqarmaslik kerak. Negaki, qadriyatlar tizimida millat, unga xos bo'lgan belgilar, jihlatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadigan hudud, makon va u bilan bog'liq tuyg'ular demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Milliy qadriyatlar shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi zanjirning muhim va asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shunga ko'ra, millat xar qanday milliy qadriyatning ob'ekti, uni yaratuvchisi va milliy qadriyatlar tizimida asosiy tayanadigan ijtimoiy tayanch hamdir. Millat bir tomondan, o'zining qadriyatlarini mutassil vujudga keltirib turganligi bilan ham u yashovchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Demak, milliy qadriyatlar o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomillashtirib yangi-yangi qirralarini vujudga keltiradi. Aynan ana shu jarayon adolatli va demokratik jamiyatning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, birinchidan milliy qadriyatlarsiz demokratiya tamoyillarini hayotga joriy etish, uni har bir shaxsning turmush tarziga aylantirish mumkin emas. Demokratiya nafaqat shaxs faoliyati, balki u millatning ruhiyati hamdir.

Ikkinchidan, demokratik jarayonlar davomida mavjud qadriyatlar tizimining o'zi ham rivojlanib va o'zgarib boradi. Uchinchidan, millat milliy qadriyatning xaqiqiy egasi. Demak, millat uning makon va zamondagi harakati ham, o'tmishdan kelajakka tomon yashashi ham, avloddan avlodga etkazib beruvchisi ham, uning asosiy ob'ekti ham aynan shu millatdir. To'rtinchidan, milliy qadriyatlarning takomillashmaganligi millatning yo'q bo'lib ketishiga va oxir oqibatda egasiz bo'lib qolishining boshlanishidir. Sobiq sho'rolar davrida millatga bo'lgan hujum eng avvalo, uning qadriyatlariga bo'lgan hujumdan boshlanganligini tasodifiy hol emas edi. Buning bir qator misollarini ko'hna tarixdan ham, hozirgi davrdan ham ko'plab keltirish mumkin. Beshinchidan, milliy qadriyatlarining saqlanib qolishi bu faqat ularning o'zini o'zi asrab qolishining asosiy masalasi deb qarash kerak emas. Balki har qanday millatning saqlanib qolishi uchun har bir millatning o'zi javobgar, mas'ul bo'lishi shart. Ana shu javobgarlik, mas'ullik darajasi milliy

rivojlanish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu haqda qozog'istonlik professor, faylasuf G'. Qodirjonov xalqaro konferentsiyalarning birida o'zi tan olib, shunday fikrni bildirdi: "Qozoq ziyolilarining o'z ona tillarini o'rganishlari, o'zlashtirishi va o'z tillarida ilmiy falsafiy, siyosiy kitoblarni yozishi o'ta mushkul bo'lib qolayotganligining sababi - ular milliy ruhining erkinligiga nisbatan uzoq yillar xukmron bo'lgan "qizil imperiyaning" mafkuraviy tazyiqining natijasidir. Bunday holatni Qirg'iziston va O'zbekiston ziyolilari o'rtasida ham kuzatish mumkin".¹

Milliy qadriyatlarning adolatli demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rnini tahlil etish jarayonida eng avvalo, millatning o'zini ijtimoiy qadriyat sifatida qarash zarur. Negaki, millatning o'zi milliy qadriyatlarning ham ob'ekti va ham sub'ektidir.

Demak, mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi taraqqiyotning zaruriy qonunidir. Umumbashariy tamoyillar va qadriyatlar qandaydir o'zgarmas, aqidaviy tushunchalar emas. Davrlar o'tishi, sharoit, talab va ehtiyojlarning o'zgarishi bilan ularning mazmuni, baholash mezonlari ham o'zgarib boradi. Lekin bu o'zgarishlardan qat'iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar odamlarni jipslashtiruvchi, ma'lum maqsadlar, ijtimoiy, ma'naviy kamolotining muayyan yo'llari uchun birgalashib kurashishga, harakat qilishga chorlovchi ijtimoiy hodisalardir. Umuminsoniy qadriyatlar turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi ko'prik vositasini o'tab, odamlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, hamjihatlik va hamkorlikka chorlovchi kuch vositasini o'taydi. Ma'naviyat borasida ham umuminsoniy qadriyatlar xalqlarning barcha madaniyatini yaqinlashtiradi va ularning tezroq kamol topishga imkon yaratib beradi.

O'zbekistonda erkin, demokratik jamiyat qurish vazifasini amalga oshirish jarayoni demokratiyaning umuminsoniy va milliy-ma'naviy qadriyatlari uyg'un ekanligi e'tirof etiladi. Demokratiyaning asosiy belgisi aniq olgan u yoki bu mamlakatda xalqni oliy hokimiyatning amalga oshiruvchi manbai ekanligini e'tirof etishdir. Ayni paytda turli xalqlar xalq hokimiyatining shakli va mazmunini turli davrlarda turlicha talqin etishlari mumkin. Masalan demokratiyaning antik davrdagi talqini bilan Evropadagi hozirgi zamon talqini ham aynan bir xil emas. Qaysiki, muhim demokratik milliy va umuminsoniy qadriyatlar va tamoyillar turli xil siyosiy rejimlarda, unga mos ravishda shu mamlakat va mintaqadagi xalqlarning milliy-madaniy, tarixiy va boshqa an'analarida o'zining hayotiy ifodasini topgan.

6– mavzu. Qonun ustuvorligi – demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosi.

REJA:

- 1.Qonun ustuvorligi tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
- 2.Demokratik fuqarolik jamiyati qurishda qonun ustuvorligi tamoyilining mustahkamlanishi.
- 3.Fuqarolik jamiyati va uning huquqiy asoslari.

Ma'lumki O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot yo'lini - ya'ni bozor iqtisodi tamoyillariga asoslangan erkin, ochiq demokratik davlat

¹ 2002 йил 8-май ойида ЖИДУ да бўлган Халқаро конференция баённомасида айтилган фикрдан кўчирма.

qurish vazifasini asosiy maqsad qilib belgilab oldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek: «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz... Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart¹.

Darhaqiqat, adolat tushunchasi bilan qonun ustuvorligi tushunchasi chambarchas bog'liqdir. Yurtboshimiz belgilab berganlaridek, qabul qilinayotgan qonunlarimizning zamirida adolat yotishi lozim. Adolatga asoslangan qonunlarning hayotga tatbiq etilishi adolatning tantana qilishiga olib keladi.

Demokratik jamiyat qurish uchun mamlakatda qabul qilinayotgan qonunlar adolatli bo'lishi, o'zida xalq manfaatlarini ifoda etishi shart. Bunday qonunlarga og'ishmay itoat etilsagina, jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi. Chunki barcha demokratik institutlar, inson huquq va erkinliklari qonun vositasida joriy etiladi.

Demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri - jamiyat a'zolarining qonun oldidagi tengligini, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlanganligidir. Shu bilan birga Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashdan iborat bo'lmog'i lozim.

«Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi»¹.

Qonun ustuvorligining mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalarida belgilab berilgan. Konstitutsiyaning III bobi ikkita 15 va 16-moddalaridan iborat bo'lib, Konstitutsiya va qonun ustunligiga bag'ishlangan.

Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar».

O'z faoliyatini Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq amalga oshirish sanab o'tilgan sub'ektlarning konstitutsiyaviy burchi bo'lib hisoblanadi. Agarda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, mansabdor shaxslar yoki fuqarolar o'zlarining bu burchlarini bajarmasalar, ularga nisbatan tegishli javobgarlik choralari qo'llanishi mumkin.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etmagan shaxslarning javobgarligi Konstitutsiyaning o'zida yoki tegishli qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan bo'ladi. Masalan, Konstitutsiya 93-moddasining 12-bandiga muvofiq Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan tuman va shahar hokimlarini Respublika Prezidenti o'z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli.

Bu borada shuni ham aytib o'tish lozimki, Konstitutsiyaning normasi boshqa qonunlarning normalariga nisbatan ustunlik xarakteriga ega. Chunki Konstitutsiya barcha boshqa qonunlar uchun poydevordir.

Shuning uchun ham Konstitutsiya 16-moddasida mustahkamlangan qoidaga binoan «Birorta ham qonun yoki boshqa normativ huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas». Agarda birorta normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaga zid keladigan bo'lsa, u bekor qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini ta'minlash mexanizmi ishlab chiqilgan va amalda qo'llaniladi.

¹ Каримов И. А. Ўзбекистоннинг сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг биринчи сессиясидаги маъруза. 1995 йил 23 феврал. «Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир» китобида, 3-ж., -Т., Ўзбекистон, 1996, 10-б.

¹ Каримов И.А. Адолат қонун устуворлигида. Иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг олтинчи сессиясидаги маъруза. 2001 йил 29 август. «Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак» китобида, 10-ж., -Т., Ўзбекистон, 2002, 28-бет

Xo'sh, Konstitutsiyaning bu moddasiga binoan qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga mosligini qaysi organ nazorat qiladi, degan savolning tug'ilishi tabiiydir.

Normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilishni uning qaysi bosqichda amalga oshirilishiga qarab, quyidagi ikki turga bo'lish mumkin:

Birinchidan, dastlabki nazorat. Bu nazorat normativ-huquqiy hujjatlar loyiha vaqtida ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan qonunining 18-moddasiga muvofiq «Huquqiy ekspertiza normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlagan organning yoki normativ-huquqiy hujjatni qabul qiladigan organning yuridik xizmati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilishi mumkin».

Ikkinchidan, keyingi nazorat. Bu nazorat normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganidan keyin amalga oshiriladi. Keyingi nazoratning o'zini ham ikki turga bo'lish mumkin.

a) normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganidan keyin, ammo u hali kuchga kirishidan avval amalga oshiriladigan nazorat. Bu nazorat ham Adliya vazirligi tomonidan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar qabul qilgan umummajburiy xarakterga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishdan avval amalga oshiriladi. Bu normativ-huquqiy hujjatlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyingina kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasida vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning umummajburiy xarakterdagi normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiya va qonunlarga mosligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 17 iyunda «Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning umumiy-majburiy tusdagi normativ hujjatlarining huquqiy ekspertizasi va ularni davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» va 1997 yil 9 oktyabrda «Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar me'yoriy hujjatlarining qonuniyligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlar qabul qildi.

Bu qarorlarning mohiyati shundaki, ular umummajburiy xarakterdagi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilishining majburiyligini ta'minlab berdi. 1997 yil 9 oktyabrdagi qarorda belgilanishicha, agar shunday hujjatlar davlat ro'yxatidan o'tkazilmasa, ular yuridik kuchga ega bo'lmaydi. Konstitutsiya yoki qonunga zid bo'lganlari esa davlat ro'yxatiga olinishi mumkin emas. Ana shunday yo'l bilan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga va qonunlarga mosligi ta'minlanmoqda.

b) kuchga kirgan normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligi yuzasidan nazorat. Bunday nazoratni barcha davlat organlari amalga oshiradilar.

Umuman olganda qonunlarning ijro etilishi va normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga va qonunlarga mos bo'lishini nazorat qilish qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan olib boriladi.

Qabul qilingan qonunlarning ijro etilishini nazorat qilib borish Oliy Majlis faoliyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Oliy Majlis tomonidan qonunlarga rioya qilinishini nazorat qilish, ularning ta'sirchanligini o'rganish, qonun hujjatlaridagi kamchiliklarni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etish maqsadini ko'zlaydi. Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari har yili qariyb 50 ta qonunning ijrosini o'rganadilar. Qonun hujjatlari talablari qanday bajarilayotganligi deyarli barcha vazirliklar va idoralarda, viloyatlarda tekshiriladi.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yuzasidan parlament nazoratini amalga oshirishda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) instituti muhim rol o'ynaydi¹. Ma'lumki Er yuzida inson borki, u doimo o'z huquqi va erkinligini himoya qilish uchun imkoniyat izlagan va Ombudsmanning tashkil topishi esa, davlat bilan fuqaro o'rtasidagi munosabatlarga yanada aniqlik kiritdi. Ombudsman fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qiluvchi munosabatlarni nazorat qiluvchi vakildir. Ombudsman (Hombutsmen) shvedcha so'z bo'lib, hukumat idoralari faoliyatini taftish, nazorat qiluvchi mansabdor shaxs yoki vakil ma'nosini anglatadi².

¹ Халилов Э.². Ўзбекистон Республикасининг Парламенти: Биринчи чақириқ Олий Мажлисининг фаолияти. - Т.: Ўзбекистон, 1999, 11-17 бетлар

² Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғати. -Т.: Шарк. 1998, 179-б.

Ushbu fikr hozirgi zamon huquqiy adabiyotlarida keng tarqalgandir. Biroq jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashda Ombudsman institutining o'ziga xos talqin va tarixiy ildizlari mavjud. Shu nuqtai nazardan amerikalik mutaxassis Din Gotterer³ning bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir. U shunday deb yozadi: Ombudsman instituti ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ombudsmanning tarixiy ildizlaridan biri Qur'oni Karim va islom mafkurasining bir qismi sifatida odillik tamoyillaridan kelib chiqadi³. O'sha payt inson huquqi va erkinliklarini himoya qilish, mulkiy, oila va nikohga oid huquqlarni tartibga soluvchi hamda shikoyatlarni qabul qilish va nizolarni hal qilish uchun muxtasib mansabi dastlab halifa Umar tomonidan tashkil etilgan edi. Keyinchalik ana shunday muxtasib mansabi Movarounnahrdagi mavjud xonliklarda ham tashkil etilgan bo'lib, ular asosan fuqarolarning shikoyatlarini adolat nuqtai nazardan hal etishga intilganlar.

Shunday qilib, Ombudsman institutining ildizlari Din Gotterer ta'kidlaganidek, Sharq mamlakatlari davlatchiligiga borib taqaladi. Biroq, Er yuzida rasmiy ravishda esa, birinchi marotaba Ombudsman instituti 1709 yil Shvetsiya qirolligi huzurida tashkil topgan. 1709 yili Shvetsiya qiroli Karl XII Poltava janglarida mag'lubiyatga uchrab, Turkiya davlatiga qochib ketadi. Qirolsiz qolgan Shvetsiyada tartibsizlik boshlanadi. Bundan xabar topgan Karl XII Turkiyada turib, 1713 yil Shvetsiya qirolligi huzurida Ombudsman tashkil qilish haqidagi qonunga nizo chekadi. Bugungi kunda deyarli barcha demokratik mamlakatlarda Ombudsman instituti tashkil etilgan. Ombudsmanning muhim xususiyatlaridan biri uning mustaqilligidir.

Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) demokratik yo'ldan borayotgan jamiyatimizdagi inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda faol ishtirok etmoqda. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili Ombudsman 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan qonunda berilgan vakolatlariga muvofiq faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunining 26-moddasining birinchi qismiga muvofiq «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bekor qilinadi».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 1-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti «fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir».

Bu normaga ko'ra Prezident birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilayotganligini, ikkinchidan esa, ularning Konstitutsiyaga mosligini nazorat qilib boradi.

Konstitutsiyaga ko'ra qonunlar Respublika Prezidenti tomonidan imzolanadi, boshqacha qilib aytganda, o'zining rasmiy tasdig'ini topadi. Agar Prezident qabul qilingan qonunda fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilmagan yoki u Konstitutsiyaga zid deb hisoblasa, Konstitutsiya 93-moddasining 14-bandiga muvofiq qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli. Agarda boshqa normativ-huquqiy hujjat, masalan, Vazirlar Mahkamasining qarori, vazirning buyrug'i, hokimning qarori Konstitutsiyaga yoki qonunlarga zid bo'lsa Respublika Prezidenti shu moddaning 13-bandiga muvofiq uni to'xtatishga yoki bekor qilishga haqli.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunning 26-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq «Hokimlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Hukumat hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zid keladigan hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan to'xtatiladi va bekor qilinadi».

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, qonun ustuvorligini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi

³ Готтерер Д. Омбудсман ҳақида Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари журнали. 1999, 1-сон, 27-б.

Oliy Majlisiga qonunchilik tashabbusi asosida inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar loyihalarining kiritilishi ham katta ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalariga asoslangan jinoyat, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirishga, jinoiy jazolarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonun loyihalari Oliy Majlisga kiritildi. Ularning qabul qilinishi mamlakatimiz ijtimoiy hayotida o'zining samarasini bermoqda.

Huquqiy davlat tushunchasi demokratik davlat tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, demokratik, huquqiy davlat kuch, inqilob bilan emas, balki tabiiy-tarixiy evolyutsion yo'l bilan barpo etiladi. Albatta, har qanday jamiyatda huquqiy davlat tushunchasi u yoki bu qonunlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Negaki, qonunlar huquq sifatida har bir davlatda mavjud va har qanday hokimiyat ulardan foydalanadi. Hamma gap o'sha qonunlarning qandayligida va ularning qanday bajarilishidadir.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzalarida «Huquqiy davlatning mazmun-mohiyatini belgilaydigan amaldagi kodekslar, qonunlar, me'yoriy hujjatlarni tanqidiy baholagan holda huquqiy davlatni shakllantirish borasida birinchi galda qabul qilishimiz zarur bo'lgan yangi qonun va me'yoriy hujjatlarni aniqlab olishimiz kerak» deb ta'kidlab o'tdilar¹.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashda yurtboshimizning 1996 yil 31 oktyabrdagi «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi»ni tuzish to'g'risidagi farmoni alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bugungi kunda Milliy markaz mamlakatimiz va butun jahondagi inson huquqlari, erkinliklarini jahon xalqaro huquq normalari asosida himoya etishning ta'sirli vositasi sifatida faoliyati ham ibratli bo'lmoqda. Biroq bu borada demokratik tamoyillarning hayotga to'liq joriy etilishida jiddiy ayrim muammolar ham mavjud. Ulardan biri tom ma'nodagi sud mustaqilligiga erishishdan iboratdir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Sudlar tom ma'nodagi mustaqil bo'lgan holdagina qonunlarning qat'iy ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so'zsiz ta'minlanadi. Qaerda sud mustaqil bo'lmas ekan, shu erda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar»². Darhaqiqat qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlamasdan turib, demokratik va fuqarolik jamiyatini qurish haqida so'z yuritishga hech qanday asos qolmaydi.

Sudlar tomonidan davlat organlari huquqiy hujjatlarining Konstitutsiyaga va qonunlarga mosligini nazorat qilinishi - sud organlarining vakolatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 12-moddasi «Davlat organiniig yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish», deb nomlangan bo'lib, uning birinchi qismiga muvofiq «Davlat organlarining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan hamda fuqarolarning yoki yuridik shaxslarning fuqarolik huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjati sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilishi mumkin».

Sud huquqiy hujjatni haqiqiy emas, deb qaror chiqargan taqdirda, bu qaror hamma davlat organlari va boshqalar uchun ham majburiydir. Chunki Konstitutsiyaning 114-moddasida «Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir», deb mustahkamlab qo'yilgan.

Sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb e'lon qilingan huquqiy hujjat - yuridik kuchga ega emas.

Agarda biron-bir hujjatning qonuniyligi to'g'risida sud qarori mavjud bo'lsa, o'sha hujjat yuzasidan fuqarolar yoki tashkilotlar sudga yana shikoyat qilishlari mumkin emas.

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. -Т.: Ўзбекистон, 29-6.

² Каримов И.А. Биз танлаган йўл - демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. II. -Т.: Ўзбекистон, 2003, 31-6.

Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonunlarning va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan boshqa hujjatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, Hukumat qarorlarining, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qonun ustuvorligi quyidagi uchala holat bo'lgandagina, o'zining to'liq ifodasini topadi.

Birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-hujjatlar adolatga, inson huquqi va manfaatlariga asoslangan bo'lishi shart.

Ikkinchidan, Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq bajarilishi zarur.

Uchinchidan, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi – qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy mexanizmlarini tashkil etadi. Demokratik jamiyatning muhim tamoyili bo'lgan qonun ustuvorligi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati qurishning asosidir. Albatta, demokratik jamiyat qurish faqat qonun ustuvorligi bilan cheklanib qolmaydi, balki xalqimizning milliy-ma'naviy negizlariga tayanishni taqozo etadi va zaruriy sharti qilib qo'yadi.

qurishning zaruriy sharti.

REJA:

1. Milliy ma'naviy negizlar tushunchasi va uning mohiyati.
2. Milliy ma'naviy negizlarning demokratik jamiyat qurishdagi o'rni.
3. Milliy ma'naviy negizlarning demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati.

Bugun shuni alohida qayd etish mumkinki, demokratiya turli xil milliy-madaniy sharoitlarda yashay olish xususiyatiga ega ekanligini isbotlay oldi. Bu degani bir tomondan demokratiyaning milliy xususiyatlari mavjudligini ko'rsatsa, ikkinchidan uni turli xalqlar, millatlar hayotida, davlatchilik qurilish an'alarida namoyon bo'lishidan dalolatdir. Shunda o'zining milliy-ma'naviy qadriyatlariga tayanmagan, uni hisobga olib, ayni paytda umuminsoniy qadriyatlar, tamoyillar bilan uyg'un bo'lmagan demokratiyani haqiqiy demokratiya yoki demokratik jamiyat deb bo'lmaydi.

Har bir xalqning milliy ongida shu xalqqa xos va mos bo'lgan, tarixan shakllangan asosiy jihatlar borki, u shu xalqning ruhiyatini, mentalitetini, xarakterini ifodalaydi va ular mamlakatning siyosiy tizimida o'zining izlarini qoldirmasligi mumkin emas. Albatta dunyo taraqqiyotida demokratiya umuminsoniy qadriyat sifatida turli xalqlar, millatlar tafakkuri va turmush tarziga singgan, e'tirof etilgan. Va shunga mos e'tibor berilayotgan, amal qilib kelinayotgan boshqarish uslubidir. Bu umumiy qonuniyat. Ayni paytda, ana shu umumiy qonuniyatning ikkinchi muhim bir jihatini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Bu har bir xalqning hayot tarzi, mintaliteti, demokratiyani his etish, anglash, tushunish va unga amal qilish xususiyatining mavjudligi bilan bog'liq. Hamma xalqlar uchun yagona siyosiy idora etish uslubi ham, yagona jamiyat andozasi ham yo'q. Birini ikkinchisidan afzal ko'rish ham mumkin emas. Umuminsoniy qadriyatga aylangan demokratiyaning hamma uchun muhim va ahamiyatli bo'lgan jihatlarini tan olib, uni har bir xalqning milliy-ma'naviy ruhiyati asosida qaror topishi va umuminsoniy hodisaga aylanishini e'tirof etmaslik jamiyat rivojiga, demokratik taraqqiyot mantig'iga to'g'ri kelmaydi. Demokratiya qanchalik umuminsoniy ma'no va qadriyat kasb etmasin, uning negizini, unga ruhiy kuch-quvvat beradigan, uni boyitib turadigan, rang-barangligini ta'minlaydigan "milliylik", "milliy ruhiyat" milliy-ma'naviy qadriyatlardir. Demokratiya milliylikni, milliy ruhiyatni hisobga olmasa, unga tayanmasa, o'z mohiyatiga zid bo'lib qoladi.

Jamiyatning hayotida demokratik qadriyatlarning chuqur singib, joy olib borishi xalqning siyosiy-madaniy ongi, ularning siyosiy demokratiya va bugungi bozorning asosiy talablari, tamoyillarini qabul qilish, hamda tadbiq etishga tayyorlik darajasiga ham bog'liq. Boshqacha aytganda har bir xalq unga, ya'ni siyosiy o'z-o'zini tashkil etish shakllariga, mexanizmlariga tayyor bo'lib etishishi ham zarur. Bu uzoq davom etadigan, uzluksiz jarayon bo'lib, muayyan tarixiy tajribaga ega bo'lishni ham taqoza etadi. Demokratiyaning G'arbona ko'rinishi kimgadir "afzal" tuyulayotgan bo'lsa, bu demak yoki G'arbona demokratiyani birtomonlama ko'rish, unga ortiqcha baho berib, uning milliy-ma'naviy xususiyatlarini e'tirof etmaslikni anglatadi. Yoki Sharqona demokratiyaning zamondan orqada qolgan ayrim jihatlarini, mintalitetimizdan chuqur joy olgan ayrim nosog'lom stereotiplarni o'zgartirishga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. Sharqona demokratiya ham umume'tirof etilgan demokratik tamoyillarga tayanadi. Ayni paytda o'zining mintaqaviy, umumiy milliy-ma'naviy xususiyatlarini hisobga olishni anglatadi. U ham o'z ichida rang-barang va nisbiy hodisa. Bu sharq xalqlarining tarixan qaror topgan qadriyatlaridagi o'ziga xos milliy xususiyatlaridir. Ular xalqlarning tafakkur tarzida, urf-odat va an'alarida siyosiy hayot, inson, jamiyat va davlatga qarashda amal qiladigan o'ziga xos siyosiy-madaniy xulq-atvor ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Bu xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhiyatining ustuvorligi, oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining odamlar qalbidan chuqur o'rin olib, ota-onaga, mahalla-kuyga, jamoatga yuksak hurmat va e'tibor bilan qaralishi, kattalarga hurmat, kichiklarning izzat qilinishi, onalarga va umuman ayol zotiga alohida e'tirom ko'rsatilishi, sabr-bardoshlik va mehnatsevarlik, mehr-oqibatli bo'lish bilan bog'liq tamoyillar avlodlardan - avlodlarga o'tib kelayotgan qadriyatlardir. Bunday qadriyatlar tabiiy ravishda demokratiyaning umuminsoniy tamoyillari bilan o'zaro munosabatda, uzviy bog'liq. Lekin bir narsani hayotda kuzatish mumkin, ayrim hollarda milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish demokratiyaning

umuminsoniy tamoyillaridan ko'ra ustunroq bo'lib qolish hollari ayrim kishilar faoliyatida uchraydi. Masalan, qonun ustuvorligi demokratiyada umumbashariy qadriyat hisoblanadi. Unda milliy manfaatlar ham o'zining ifodasini topgan. Lekin, masalan, kattaga hurmat deb, yoki mening mahallam deb, ayrim uchraydigan salbiy hatti-harakatlarni yashirsak, noqonuniy hatti-harakatlardan ko'z yumsak bu jamiyat hayotiga, har birimiz uchun ham yomon oqibatlarni sodir bo'lishiga sabab bo'lishi, o'zimiz ham unga sababchi bo'lib qolishimiz mumkin. Bunday holatda haqiqatni aytish va ayta olish Sharqona demokratiyaga zid bo'lgan holat emas. Shu uchun ham u ko'pchilikning hayot tarzi va faoliyatidagi xulq-atvor normasiga, qadriyatga aylanishi zarur. Sharqona demokratiya "axloq" va "ma'rifat" munosabatlari, hamda an'analarga ko'proq bog'langanligi bilan ham farq qiladi. Bu hech qachon demokratiyaning umumbashariy qadriyatlariga soya solmaydi.

G'arb demokratiyasida ham xuddi shunday xususiyatlarni keltirib, uni G'arb hayot tarzi va ko'nikmalariga nisbatan qiyosiy talqin etish mumkin. Ayni paytda u ko'proq "an'analarga" emas, uni hisobga olgan holda qonunga, shaxs erkinligi, Sharq nuqtai nazaridan yondoshganda qonun asosidagi "individualizm"ga asoslanib fuqaro siyosiy madaniyatiga chuqur singganligini ko'ramiz. Bundan G'arb demokratiyasi jamoani, milliy-ma'naviy xususiyatlarni mutlaqo tan olmaydi, u jamoatchilikdan ham, insoniy mehr-oqibat munosabatlaridan ham mutlaqo begona degan xulosa kelib chiqmaydi. Sharqning o'ziga xos jihati demokratiyani individuallik bilan jamoaviylikni mushtarak holda qabul qilib, u bilan (oilalar, guruhlar, jamoalar, mahallalar, davlatlar) uyg'un holda ko'rishida ko'proq namoyon bo'ladi. Unda individ (shaxs) erkinligi va manfaatlarining jamoalar fikri, manfaatlar bilan o'zaro munosabatida jamoaning fikri, manfaatlarining ayrim holatlarda ustuvorligi mavjud. Uni inkor etib bo'lmaydi. Bu esa individ, alohida shaxs manfaati jamoaga zid qo'yiladi, degan ijtimoiy ma'noni bermaydi. Buni qaysidir darajada jamiyat va shaxs munosabatlarini, shaxs hayoti faoliyatini jamiyatdan tashqarida emasligi, aksincha u bilan bog'liqlik falsafasiga tayanadi deyish mumkin. Shaxsning erkinligi, huquqlari jamoalar manfaati bilan ko'proq bog'liq holda qaralishi bilan farq qiladi.

G'arbda to'g'ri deb topilgan individning qonun asosidagi ayrim hatti-harakati, xulq-atvori holatlarini Sharq an'anasiga ko'ra jamoatchilik osongina qabul qilmasligi va qonunga zid bo'lmasa ham to'g'ri deb hisoblamasligi mumkin. Bunga G'arb ko'proq qonunga asoslangan holda baho bersa, Sharq jamoatchilik, qadriyatlar, an'analarni hisobga olib uni qonun bilan muvofiq ko'radi. Hamda baho beradi. Rag'batlantiradi yoki jazolaydi ham. Shuning uchun Sharqda qonun ijtimoiy axloq ko'rinishlari bilan doimo o'zaro muvozanatda bo'ladi. Shaxs xatti-harakatiga baho berganda, umume'tirof etilgan qonuniy me'yorlar bilan birga an'anaviy me'yorlar, axloq ko'rinishlari ham ustuvorlik kasb etadi. Lekin bu qonuniy asoslarga zid bo'lmaydi. Qonun ustuvorligi shu jihatdan ham ko'proq hayot tarzimizga singib bormoqda. Lekin hali hamma ham unga to'liq ko'nikib olgani yo'q. An'anaviy holatlar, mo'ljallarimizga faqat axloq normalari nuqtai nazardan qarash, ayrim holatlarda qonunni ham "chetga" chiqarib, unga noqonuniy tarzda yondoshish oqibatida jamoatchilik fikri, jamoalar nufuzi, sha'ni, or-nomusining qonuniy asoslardan ustuvor kelib qolish hollariga urinishlar, shunga moyillik hayotimizda ayrim hollarda uchraydi.

Bu yaxshimi yoki yomon degan savolga javob berish oson emas. Agarda yaxshi deb javob bersak, o'z manfaatiga va qonuniy-huquqiy holatiga to'g'ri kelmasligini anglab etgan kishi o'z "erkinligini" kamsitilgan deb his etishi mumkin. Agarda yomon deyiladigan bo'lsa, unda biz o'zimizning ayrim xususiyatlarimizga, an'alarimizga, jamoaga nisbatan tarixan shakllanib kelgan qadriyatlarga nisbatan "hurmatsezlik" qilgan bo'lamiz. To'g'rirog'i kimdir shunday qarashi va baho berishi aniq.

Shuning uchun ham, inson haq-huquqlari esa aniqlikni, inson manfaatini ustuvorligini, uni qonunga mos bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham qonunga tayanish va qonun asosida muammoni hal etish umume'tirof etilgan umuminsoniy demokratik qadriyatdir. "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi." (13-modda) deyiladi. Shunga asoslanish va tayanib ish ko'rish Sharq va G'arb demokratiyasi uchun ham umumiy, mushtarak nuqtalardir.

Demokratiyaning Sharqona va G'arbona ko'rinishlari ham milliy-ma'naviy xususiyatlarni e'tirof etadigan, unga tayanadigan umuminsoniy mohiyat kasb etadi. Demokratiyaning qanday shakli bo'lishidan qat'iy nazar milliy-ma'naviy xususiyatlardan ozuqa oladi, unga tayansagina umuminsoniy qadriyatga aylanib boradi. Bu xalqlar hayotida muhim o'rin tutadi. Demokratik jamiyat qurishni kafolatlaydi.

Demokratiyaning biron-bir ko'rinishini mutloqlashtirib bo'lmaydi. Demokratiyaning milliy xususiyatini ham, umumbashariy tamoyillarini tan olishni jamiyat rivoji, davlat va jamiyat qurilishi, uni erkinlashtirish jarayonlari taqoza etadi. O'zbekistonda demokratiyaning Sharqona xususiyatlarining e'tirof etilishining mohiyatini shunda ko'rish mumkin. Shuning uchun ham mamlakatimizda demokratiyaga milliy va umumbashariy qadriyat sifatida qaralmoqda. Aks holda biron-bir davlat yoki jamiyat qurilishi boshqa davlat yoki xalqlar uchun yagona andoza bo'lib xizmat qilavergan bo'lar edi. Bu esa demokratik taraqqiyotning xilma-xilligiga, rivojlanish modellari rang-barangligiga to'g'ri kelmaydi.

Umuminsoniy qadriyatlar inson ma'naviy, ijtimoiy kamolotining qandaydir alohida, boshqalardan ajralgan tomoni emas. Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi. Ular ayni vaqtda barcha milliy qadriyatlarning bir-biriga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat hamma erda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, hamma erda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof-muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarning hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlardir.

Markaziy Osiyo xalqlari ming yillar davomida bir-biri bilan yaqindan iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'rnatganlar. Ularning turmush sharoitlari, tili, madaniyati, dini, urf-odatlari bir-biriga yaqin bo'lishi ko'plab umummintaqaviy qadriyatlar shakllanishiga olib kelgan. Bu qadriyatlar turli joylarda bir-biridan biroz farq qilsa-da, mohiyat jihatidan yaqindir.

Mehmondo'stlik, bolajonlik, yaqin qo'ni-qo'shnichilik, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish, qarindosh-urug'lar, do'stlar bilan yaqin aloqada bo'lish, sahiylik, halol bilan haromni farqlash O'rta Osiyo xalqlarining hammasiga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlaridir. Garchand mehmondo'stlik bilan bog'liq udumlar mintaqamizning hamma erida keng tarqalgan yaxshi an'ana bo'lsa ham, ular turli joylarda bir-biridan farq qiladi.

Keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish ham Markaziy Osiyo xalqlarining o'ziga xos yuksak ma'naviy boyligidir.

Keksalar ko'pni ko'rgan, aql va idrok bilan har ishda maslahat bera oladigan, yoshlarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan kishilardir. Keksalarni hurmat qilish, ulardan saboq olish, hayot tajribasini o'rganish ma'naviy kamolot uchun yangi imkoniyatlar izlashga harakat qilishdir. Ota-onani hurmat qilish, ularning gapiga, pand-nasihatiga quloq solish ham katta ma'naviy qadriyatdir. Ota-ona hech vaqt o'zining farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Ular hayotda ko'p og'irlik, engilliklarni ko'rgani sababli, farzandlarining istiqbolini ham ulardan ko'ra ko'proq o'ylaydilar. Ba'zan ota-onaning nasihatlari noqobil farzandlarga og'irroq tuyuladi. Bu - hayotni chuqur bilmaslik, hayotning turli jarayonlariga engil-elpi qarashning oqibatidir. Farzandlar ota-onaning qadrini o'zlari ota-ona bo'lganidan keyingina fahmlab oladilar. Bu davr ichida ular ma'naviy kamolotning ko'p imkoniyatlarini qo'ldan boy berib qo'yadilar. Shuning uchun ulkan ma'naviy qadriyat bo'lmish ota-onani hurmat qilish odatini aslo unutmaslik kerak.

Ota-onaga bo'lgan hurmat dunyodagi barcha xalqlarda uchraydi. Lekin bizning mintaqamizda bu qadriyatni e'zozlash boshqa joylarga nisbatan ustunroq turadi. Hashar yo'li bilan uy-joy qurishda, uy-joylarni ta'mirlashda bir-biriga yordam ko'rsatish, etim-esirlarning, beva-bechoralarning peshonasini silash, mehr-muruvvatli bo'lish, ularni qarindosh-urug'lar o'z himoyasiga olib, xoru zor bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi ham mintaqamiz xalqlarining barchasiga xos qadriyatdir.

O'zbekiston suveren demokratik davlat bo'lib, xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai hisoblanadi. Bu haqda Konstitutsiyaning 13-moddasida shunday deyilgan: «O'zbekiston

Respublikasi demokratik umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi»¹. Demak, demokratik davlatda xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai bo'lib, umuminsoniy tamoyillarni amalga oshirish orqali inson va jamiyatning farovonligini, barcha xalqning turmush darajasini oshirib borishga erishadi.

Katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mintaqaviy qadriyatlardan yana bari - jamoatchilik fikridir. Jamoatchilik fikri odamlar o'rtasidagi bir-biriga yaqinlik, o'zaro hurmatning ifodasi bo'lib, keng foydalanish mumkin bo'lgan qadriyatdir.

Xulosa qilib aytganda qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy boyliklardir. Shu nuqtai nazardan, tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi - bularning barchasi yangidan yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolishi lozim.

Demak, milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilsa, shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo sho'rolar davrida qadriyatlar bir tomonlama yoritilar, bu borada ko'p tadqiqotlar olib borilgan edi. Lekin milliy qadriyatlarning mavjudligi e'tibordan chetda qolar edi. Bunday "tadqiqot"lardan maqsad har bir millatning o'z muayyan tarixiy tajribasi asosida o'z qadriyatlari tizimi shakllanganiga qadar kishilarning e'tiborini tortmaslik, demokratiyaning umumjahon va umumbashariy tamoyillari esa sinfiy asosda talqin etilar edi. Tanlab olingan va umumjahon tamoyillar va qadriyatlar ichida eng nufuzli joyni ulug' millatning qadriyatlari egallab turardi.

«Bugungi kunda, - mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - an'anaviy qadriyatlarimizni demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir»¹. Shu nuqtai nazardan umumbashariy demokratik tamoyillarni qaror toptirish, ko'p bor ta'kidlanganidek, jamiyatimiz taraqqiyotidagi eng murakkab masalalardan biridir. Ayniqsa, bu uzoq vaqt totalitar tuzum asoratida yashagan sobiq ittifoq makonida, jumladan O'zbekistonda ham uning illatlaridan butkul qutula olmagan jamiyatda yanada murakkabroq kechadi. Ana shu murakkab jarayonni, ijtimoiy-siyosiy larzalarga olib kelmaslikning yo'llaridan biri, qonun ustuvorligi tamoyilidir.

Mustaqillikni mustahkamlash davrida jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, barcha jabhalarda tub tarixiy burilish bilan bog'liq bir qator muammolarni va vazifalarni hal etishni taqozo etadi. Ana shunday ulkan vazifa va mas'uliyat xalqimizdan bir tomondan ma'naviy yangilanish jarayonini to'liq idrok etishni, ikkinchi tomondan esa demokratik jamiyat qurishda unga tayanishni taqozo etmoqda. Negaki milliy-ma'naviy yangilanish, yuksalish, taraqqiyot omiliga aylanmoqda. Shu bois, mustaqillik yillarida jahon tsivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning merosini ham yangidan ijodiy o'zlashtirish hayotiy ehtiyojga aylandi. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Hoja Bahouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir va boshqa ko'plab buyuk siymolarimiz ilmiy-adabiy merosini o'rganish mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning milliy-ma'naviy negizlarini tashkil etmoqda. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.¹¹

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2003. 11-б.

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. –Т.: Ўзбекистон, 1998. 135-б.

¹¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсажасида: хавфсизликка таъдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997, 137-138-бетлар.

Masalaning xuddi shu jihatiga urg'u berib, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida bayon etilgan oltita ustuvor yo'nalishning bajarilishi kerak bo'lgan ulkan vazifalar paydo bo'ldi. Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'ziga xos milliy ma'naviyat va madaniyatning sohibiga aylandi.¹²

O'zbekiston bugungi kunda tom ma'nodagi asrga teng buyuk voqealarni boshidan kechirmoqda. Tarixdan ma'lumki, biror xalq haqida tub burilish sodir bo'lgan davrlarda jamiyat yangi istiqbollar sari bormog'i uchun ijtimoiy munosabatlarni shunga muvofiq o'zgartirmog'i lozim bo'ladi. Shu bois ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar shaxsning va butunisicha jamiyatning tafakkurida, duny qarashida, ma'naviy olamida o'zgarishlarni taqozo etadi.

XX asrning ulug' gumanisti A.Shveytser: "Voqelikni shakllantiruvchi kuchlar ichida ma'naviyat birinchidir"¹³, - degan edi. Biz bugun ulkan imkoniyatlar davrida yashamoqdamiz. Biroq ularni real voqelikka aylantirish yo'lidagi g'ov va xafv-xatarlar ham mavjudligicha qolmoqda.

Siyo, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish uchun avvalo, insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz berishi zarur. Zero, kishilar tafakkurini band etgan eski andozalardan, tor qoliplardan, o'z umrini yashab bo'lgan aqidalardan xalos etmay turib, yangi davr, tarixiy taraqqi, bilan tabiiy ravishda qo'l ushlashib keladigan yangidan-yangi muammolarni hal etib bo'lmaydi.

Prezident I.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqi, kafolatlari" asarida mustaqil taraqqi, timizga xavf solatgan tashqi va ichki tahdidlar va ularning oldini olish yo'llari haqida batafsil fikr yuritib, ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning ahamiyatiga alohida urg'u beradi: va "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"², - deya alohida ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, jamiyatni ma'naviy yangilamay, kishilar tafakkurini o'zgartirmay turib, demokratik jamiyatni qurish, bozor iqtisoditiga o'tish, umuman hech qanday taraqqi, tga erishish mumkin emas. Zero, demokratik fuqarolik jamiyati yuksak ma'naviyat va keng ma'rifat tantana qilgan jamiyatdir.

Yurtboshimizning 1992 yilda e'lon qilingan va dasturiy ahamiyat kasb etgan "O'zbekistonning o'z istiqlo, va taraqqi, yo'li" kitobida "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" deb nomlangan alohida bobida ko'rsatilgan to'rt asosiy negiz buning asosiy mazmunini ochib bergan:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namo, n qilishi;
- vatanparvarlik.

Bu tushunchalar bir-biridan ajralmas va bir-birini taqozo etgan holda, O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini qurishda mustahkam asos vazifasini o'taydi.

Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov 2002 yil 29 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruzasida yana bir bor bu masalaga e'tiborni qaratib, shunday dedi:

Xo'sh jamiyatning ma'naviyat yangilanishi deganda nimani tushunmoq kerak? Ma'naviy yangilanishning mazmun-mohiyati nimadan iborat?

Darhaqiqat, demokratiya har bir inson uchun oliy qadriyatga, jamiyatning boyligiga aylanmog'i kerak. Busiz u shunchaki nazariya, ki qog'ozda qolgan qonunligicha qoladi, xolos. "Barcha islohotlarimizning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson

¹² Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. -Т.:Ўзбекистон, 1998. 125-бет.

¹³ Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.II. -Т.: Ўзбекистон, 2003. 34-б.

² Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққи,т йўлида. 6-жилд. -Т.: Ўзбекистон, 1998. 125-бет.

omili va mezonidir.”¹ Negaki, bozor iqtisodiyotini barpo etish birdan-bir maqsad emas. Barcha islohotlar – iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlardan ko’zlangan pirovard maqsad insonning mehnat, ijodiy va ma’naviy imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishdan iborat. «Shu sababli - deb ta’kidlagan edi - Prezident I.A.Karimov - jamiyatning sifat jihatidan yangi holatga o’tishida bizga islohot chohida odamlar moddiy ahvoli keskin yomonlashadigan, axloqiy qadriyatlar, ma’naviy tayanchlar barbod bo’ladigan, o’tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi elkasiga tushadigan andoza maqbul emas»². Binobarin, eng avvalo, erkin fikrlaydigan odamgina o’z Vatanining haqiqiy farzandiga aylanadi. Chunki tafakkur ozod bo’lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutilmasa, inson to’la ozod bo’lolmaydi. Inson ozod emas ekan - jamiyat demokratik tamoyillarni qabul qilmaydi.

Demak, inson manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur sharoit, imkoniyat yaratish orqaligina demokratik jamiyatni barpo etish mumkin.

O’zbekistonda kechayotgan demokratik o’zgarishlarning jamiyat ma’naviy yangilanishi bilan bog’liqligining yana bir jihati bor. Ana shu bog’liqlik Prezident I.A.Karimovning bir qator risolalarida va ma’ruzalarida alohida ta’kidlangan. U O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi umumiy yig’ilishida (1994 yil 7 iyulda) so’zlagan nutqida shunday degan edi: «Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma’naviy merosi ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma’naviy hayotimizni tiklay boshladik. Dinimiz va tilimizga qaytdik, milliy urf-odatlarimiz va an’analarimiz, xullas, inson ma’naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlayapti»¹. Darvoqe, Prezidentimizning ma’naviyat, uning mohiyati to’g’risida nazariy-ilmiy fikrlari g’oyat chuqur va keng qamrovlidir. Shuningdek, u ma’naviy tarbiya - mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etishning muhim sharti ekanligiga alohida e’tibor beradi. Dunyo tarixida mustaqillik va ozodlik kurashchilari timsoliga aylanganlardan biri, XX asr buyuk hind davlat arbobi Maxatma Gandi: “Insoniyat – bu yagona oila, bo’linmas oila. Uning har bir a’zosi sodir qilgan jinoyat uchun har birimiz javobgarmiz”, - degan edi. U ,ki bu millat ,ki davlat ana shu insoniyat degan katta oilaning ichidagi kichik oila. Ana shu oila a’zolarida bahamjihatlik, ma’naviy mushtaraklik bo’lmas ekan, ular Gandi so’zlarida aks etgan ma’naviy burch hissasi bilan yashamas ekan, ,rug’ kelajak haqidagi o’ylar xomxa,l bo’lib qolaveradi. Zero, demokratik rivojlanish barqarorlik va ijtimoiy hamkorlikka tayanadi.

Odamlar ma’naviyat rishtalari bilan bog’langandagina, ular xalq millatga aylanadi. Chunki “ma’naviyat - insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg’otadigan qudratli botiniy kuch”dir.”²

Ma’naviyat mavhum tushuncha emas. U millat bilan, milliy tafakkur bilan, millatning tarixi, asrlar mobaynida to’plangan bilim va tajribasi, tushunchalari, tasavvurlari bilan bog’liq. Frantsuz ma’rifatchisi Jan Jak Russo Evropa jamiyati ha,tida ulkan siljishlar sodir bo’la,tgan XVIII asrda xalqda milliy xarakterni shakllantirishni birinchi vazifa, deb bilgan edi. Chunki uning nazdida “har qanday yaxshi o’zgarishlarning umumiy maqsadlari har bir davlatda mahalliy shart-sharoit va aholining o’ziga xos xususiyatlari asosida shakllanadigan munosabatlarga muvofiq shakl olishi kerak”¹⁴. J.Russoning fikrlarini bugungi kun nuqtai-nazaridan talqin qilsak, demokratik o’zgarishlarni amalga oshirish, adolatli, ma’naviyati yuksak insonlar jamiyatini qurishda jahon tajribasiga tayangan holda, avvalo, milliy mentalitetni inobatga olish kerakligi ma’lum bo’ladi. Ayni paytda shuni alohida ta’kidlash lozimki, O’zbekistonda kechayotgan demokratik o’zgarishlar jamiyat ma’naviy yangilanishiga bog’liqligini faqat o’zbek millati ma’naviyati bilan bog’lash va uni shunday deb baholash adolatdan emas. Balki uning bilan yagona bir mamlakat hududida

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг Иккинчи чақириқ Олий Мажлисининг тўққизинчи сессиясидаги маърузасида баън этилган асосий вазифалар ва қоидаларни кенг ,ритиш бўйича ташкилий-маърифий тадбирлар дастури. -Т.: Ўзбекистон, 2002. Б.29.

² Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.І. -Т.: Ўзбекистон, 1996. –322 б.

¹ Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. -Т.: Ўзбекистон, 1994. 14-б.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интиломоеда. -Т.: Ўзбекистон, 1999, 17-бет

¹⁴ Ўша манба.

yashayotgan turli xalq va millatga mansub bo'lgan barcha aholining, turli etnik birliklar va ijtimoiy guruhlarining ham umumiy boyligi, deb qarash haqiqatga yaqinroq bo'ladi.

Demak, O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifasini ma'naviy yangilanishlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu haqiqatni hech qachon unutmaslik kerak.

Demokratiya - bu kishilarning birgalikda ha, t kechirishi, muammolarni bahamjihatlik bilan hal qilishi, shaxsiy manfaatlarni jamoa, millat, davlat manfaatlari bilan uyg'un ko'rishi, bir so'z bilan aytganda, murosa qilish madaniyatidir.

1983 yili jahonning 29 mintaqasi olimlari, jamoat arboblari iborat "Gumanitar muammolarni o'rganish bo'yicha Xalqaro Komissiya" tuzildi. Komissiya XX asrdagi gumanitar vaziyat va uni takomillashtirish ustida izlandi. Jazoir, Shveytsariya, Polsha, Avstriya, Xitoy, Hindiston, Meksika, Eron, Shvetsiya, Yaponiya - jami 29 mamlakatning ma'rifatparvarlari dunyodagi gumanitar muammolarni amaliy o'rgandilar. "Insoniyat axloqi", "Global masalalar" (ya'ni ekologiya, qashshoqlik, qurollanish, terrorizm, narkomafiya), "Ommaviy qirg'in qurollari", "Qurolli to'qnashuvlar", "Daydi bolalar", "Oziq-ovqat inqirozi", "Cho'l-sahrolarning kengayib bora, tganligi", "Favquloddagi vaziyatlar", "Urushlar" kabi halokatli holatlarni kelib chiqish sabablarini tahlil etib, barcha muammolar insoniy tuyg'ularning susayishi, ya'ni ma'naviy qadriyatlarining qadsizlanishi bilan bog'liq, degan xulosaga keldilar. Ularning to'rt yillik mehnati natijasi bo'lgan kitob "Insoniyat insoniyligini saqlab qola oladimi?" (Nyu Jersi, 1989) degan iztirobli nom bilan jahon tillarida nashr qilindi.

Ma'naviy barkamol inson haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar, falsafiy fikrlar tarixda kuni kecha paydo bo'lgan

emas. Uning tarixiy ildizlari Sharq mutaffakirlari ijodiy, falsafiy ta'limotlariga borib taqaladi. Ayni paytda dunyoda eng rivojlangan demokratik mamlakatlar tarixiy taraqqiyotini o'rganish shundan dalolat beradiki, biron-bir jamiyat dastlab barkamol avlodni voyaga etkazmasdan turib, buyuk o'zgarishlarni sodir etolmagan. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining taqdiri, uning kelajagi ham bundan mustasno emas. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ta'kidlab kelinayotganidek, har qaysi jamiyat, har qaysi davlat va millat qudrati, uning tabiiy boylıkları harbiy kuchiga va hatto ishlab chiqarish texnologiyalariga ham bog'liqligi nisbiydir. Uni birinchi navbatda dunyoga tanitadigan, yuksak madaniyatli ma'naviy barkamol insonlardir. Masalan ana shu nuqtai nazardan yondashish muhim ahamiyatga egadir. Negaki, demokratik jamiyatning o'zini ham faqat ma'rifatli, ma'naviy barkamol kishilargina barpo etishi mumkin. Prezident Islom Karimovning Oliy Majlisning Birinchi chaqiriq, birinchi sessiyasida «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» ma'ruzasida «Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga etkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz» - degan fikrlari mamlakatimizda demokratik jamiyatni barpo etishda – barkamol avlodni voyaga etkazish strategik ahamiyatga ega ekanligi isbotidir. Shu o'rinda barkamol shaxs tushunchasi, uning demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rni masalasini tahlil etish muhim ahamiyatga egadir. Albatta, Sharqning buyuk allomalari asarlarida komil inson masalasi doimiy ravishda katta o'rin olib kelinganligiga va ularni bezovta qilganligiga ham bog'liq emas.

Bu muammoga o'z munosabatini bildirgan Yurtboshimiz shunday deydi: «Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir ahloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, Sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar». Va davom etib «Komil inson deganda, biz, avval, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikri-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi, etuk odam bo'ladi».¹⁵ Ana shunday barkamol, etuk insonlarni tarbiyalab, voyaga etkazish mustaqillikni mustahkamlash, uni ko'z-qorachig'iday asrab-avaylash talab-ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan ob'ektiv taraqqiyot zaruratidir.

Buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy bundan besh asr oldinoq komil insonlar haqidagi

¹⁵ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз ёўлимиз билан сурамиз. 7-жилд. -Т., Ўзбекистон, 1999. 134-бет.

ta'limotini yaratgan edi. Uning bu haqdagi fikrlari asosan «Mahbub ul-qulub», «Hayrat ul-abror», «Nasoyimul muhabbat» asarida o'z ifodasini topgan. Alisher Navoiyning komil insonga xos xususiyatlar, uning Sharqona xislat va fazilatlarini batafsil sanab o'tgan. U «Mahbub ul-qulub» asarida «Odam ikki dunyoning eng aziz va sharof mahluqidir», degan so'zni keltiradi. A.Navoiy fikricha, Parvardigorning olamni yaratishdan maqsadi inson edi.

Shunday ekan, mamlakatimiz kelajagi, demokratik islohotlar taqdiri kishilarning, butun xalqning ongi, ma'naviyati darajasiga bog'liq. Inson ruhiyati sog'lom bo'lsa, o'zligini anglasa, shaxsga aylanadi. Kishi shaxs darajasiga ko'tarilsagina, ya'ni o'z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lganidagina, “demokratiya ne'matlarining oddiy iste'molchisi emas, balki ularning faol yaratuvchisi va himoyachisiga aylanadi. Va demokratiya, fuqarolik jamiyati asoslarini amalda barpo etish, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlash mumkin bo'ladi”.²

Sobiq totalitar tuzum davrida olib borilgan xalqlarni yalpi manqurtlashtirish siyosati o'zbek xalqini ham o'z tarixidan, madaniyatidan, ma'naviy quvvatidan, milliy hissiyotidan, o'zligidan ayirishga ancha-muncha ulgurdi. Sovetlar davridan qolgan bunday og'ir “meros” haqida keyinchalik Prezident I.A.Karimov shunday fikr bildiradi: “Bu tuzum o'z xalqining tarixini, uning ruhi va urf odatlarini, o'z avlod-ajdodini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi”¹.

Uzoq yillar davom etgan tutqunlik, g'ayriinsoniy mafkuraning yakka hukmronligi bizga mutelikni singdirdi. Mutelik o'zbek xalqining azaliy qadriyatlari – andisha, nazokat libosini kiydi va haqiqatni dadil aytish, o'z fikrini ochiq bildirish, yumshoq aytganda, beodoblikka, beandishalikka yo'g'rildi. Vaholanki, demokratiya – yaxshi niyatli rostgo'ylikni, fikr erkinligini taqozo etadi.

Afsuski, sobiq ittifoq hududida bu kabi eski kasalliklardan xalos bo'lmagan kimsalar hamon uchramoqda. Buni I.Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruzasida yana bir bor alohida ta'kidlab, shunday deydi: “...o'z umrini yashab bo'lgan, siyosiy jihatdan kasodga uchragan, kommunistik mafkuraga asoslangan tizimni sog'inib-qumsab gapirayotgan ayrim siyosat va davlat arboblari – eski tuzum tarafdorlari yana qaytadan bosh ko'tarayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz “... Bir so'z bilan aytganda, SSSRning soyasi sobiq ittifoq mintaqasidan hali beri butunlay ko'tarilgan emas va buni biz doimo inobatga olishimiz, hamisha sergak va hushyor bo'lib yashashimiz zarur”².

Shukrlarkim, xalqimiz ongi, qalbiga chuqur singigan minglab yillik ma'naviy qadriyatlarimiz, milliy an'analarimiz uni zo'rlik bilan kiritishga harakat qilingan kommunistik mafkuraning domiga to'liq tushib qolishdan asradi. Ammo Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda: “erning sho'rini yuvish oson ekan-u, odamning ongidagi sho'rini yuvish qiyin” ekan-ki, “manqurtlik kasali”ning asoratlari ba'zi kishilarimiz ongi va ruhiyatida hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Erkin fuqarolik jamiyatini qurishda tarixni, ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosni o'rganish va amalda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tariximiz qancha ko'p o'rganilsa, undan bugungi ma'naviyat, g'oyaviy islohotlar uchun shuncha ko'p amaliy tavsiyalar chiqaveradi. Hazrat Navoiyning: “Ozod bo'lmoq istasang, o'zingni ozod tut”, degan so'zlari bugungi voqelik bilan bog'liq emasmi? Yoki yana bir misol: O'rta asrlar tibbiyot ilmining bir tarmog'i – ma'naviyat tibbiyoti deb atalgan ekan. “Ma'naviy tibbiyot” degan bitta nomda Al-Kandi (800-860 y.y.), Abu Bakr Ar-Roziy (865-925 y.y.), Abu al-Farax Abu ar-Rahmon ibn Javziy (vafoti-1201 y.), Abu Ishoq Ibrohim ibn Yusuf Ash-Sheroziy (vafoti – 1093 y.) kabi ko'plab Sharq allomalari o'z kitoblarini yozib qoldirganlar. Tan tabobati inson jismi bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish va davolash bilan shug'ullangan bo'lsa, ma'naviy tibbiyot inson qalbi, ongini illatlardan forig' etishga, insoniy fazilatlarni takomillashtirishga xizmat qilgan.

² Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари.. «Халқ сўзи». 2002 йил 30 август.

¹ Каримов. И.А Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. -Т.: Ўзбекистон, 1996. 7-бет.

² Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари.. «Халқ сўзи», 2002 йил 30 август.

Tarixning achchiq saboqlaridan yana biri shuki, ma'naviyat, axloq-odob inson xatti-harakatlari, faoliyati va ehtiyojlarining mezoniga aylanmay turib, jamiyat birona muammolarni samarali hal etishi va ijtimoiy taraqqiyotga erishishi mumkin emas.

Tarix saboqlari insonni xatolardan asraydi, hushyorlikka o'rgatadi, ruhiy evrilishdan asraydi. Biroq, ta'kidlash joizki, ma'naviyat faqat meros bo'lib avloddan-avlodga o'tadigan tarixiy qadriyat bo'lmay, doimiy rivojlanib, yangi davr qadriyatlari bilan boyib, uyg'unlashib boradigan, doimiy harakatdagi hodisadir. Shuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek: "Bizning an'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir"¹. Shuning uchun ham mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning to'rt asosiy ma'naviy negizlari ichida "umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik" belgilandi. Bugungi kunda mamlakatimiz ravnaqini hozirgi tsivilizatsiya o'zida ifoda etadigan demokratiya, inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, erkin bozor munosabatlari, so'z erkinligi kabi umuminsoniy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Bugungi kunda har qanday milliy tiklanish va milliy rivojlanishning asosi bo'lgan ma'naviy meros, urf-odatlar, an'analar, yuksak qadriyatlar, tarixiy xotira xalqimizga qaytarildi. Milliy o'zligini, huquqlarini tobora teranroq anglab bora,tgan xalqimiz uchun buyuk kelajakni barpo etish yo'lida bu boy imkoniyatlardan foydalanish, barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni milliy rivojlanishga, O'zbekistonda demokratik-huquqiy jamiyat qurish ishiga yo'naltirishga safarbar etishdek ulkan imkoniyatlar yaratildi.

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққи,т йўлида. –Т.: Ўзбекистон, 1998. 135-бет.

8 – Mavzu. Fuqaro erkinligi va faolligini ta'minlash – demokratik jamiyat qurish omili.

REJA:

1. Fuqaro erkinligi va faolligi tushunchasi va uning inson ijtimoiy-siyosiy tafakkuri tarixidagi talqinlari.
2. Fuqaro erkinligi va faolligining asosiy mezonlari.
3. Fuqaro erkinligi va faolligi demokratik jamiyat qurishning zaruriy sharti.

Fuqarolik tushunchasi jamiyatning hozirgi davr demokratik, huquqiy davlat tomon rivojlanishida katta yo'lni bosib o'tdi. U jamiyatning demokratik rivojlanishida qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlardan biri.

Fuqarolik tushunchasi qadimiy Yunonistonda va Rimda mavjud bo'lsa-da, asosan feodalizm inqirozga uchrab, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot demokratiya va bozor munosabatlari zaminiga o'ta boshlaganda, hozirgi shaklida paydo bo'la boshladi va ilk bor «shaharli» (frantsuzcha «situayyan», inglizcha «sitezen», ruscha «gorojanin-grajdanin») degan ma'nolarni anglatgan. Mustaqillik e'lon qilingandan so'ng, o'zbek tilida o'tmishdagi «grajdanlik» so'zi o'rniga «fuqarolik» degan atama qabul qilindi¹.

¹ Mustaqillik: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. -Т.: Шарқ, 1998. 225-б.

Mustaqillik yillarida fuqaro erkinligi va uning faolligi masalasi demokratik jamiyat barpo etishning muhim shartlaridan biri sifatida qabul qilingan qoidalaridan asosiysini tashkil etadi.

Shu o'rinda erkinlik tushunchasini aniqlash ham zarurdir. Negaki, fuqaro erkin bo'lgan taqdirdagina, jamiyat taraqqiyotga erishadi.

Ijtimoiy-siyosiy falsafada individlar erkinligi va ular irodasining erkinligi bir-biriga o'xshash tushunchalar deb qabul qilinadi. Buning asosiy sabablaridan biri, huquqning o'zi odamlar erkinligi shakli, ya'ni ular irodasining erkinligi ekanligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan «fuqaro erkinligi» tushunchasi ham politologik, ham huquqshunoslik fanlarining umumiy kategoriyalari sifatida o'rganiladi. Demokratiya asosiy inson erkinligini qonunlar orqali kafolatlaydi. Demak, demokratiyaning o'zi ochiq muhokama, ijtimoiy ziddiyatlarni ifoda etish va bartaraf qilish usuli sifatida, fuqarolik va siyosiy huquqlar deklaratsiyalarida qayd qilingan erkinliklarsiz mavjud bo'la olmaydi. Bu erda so'z erkinligi va o'z fikrini erkin ifodalash huquqi, erkin uyushmalar tuzish huquqi, hayot tarzini o'zgartirish erkinligi va shaxsning xavfsizlikka bo'lgan huquqi to'g'risida ketmoqda. Ushbu huquqlar demokratiyaning asl mohiyatini tashkil qilgani bois, ular himoya qilinishi kerak.

Hozirgi davr ijtimoiy-siyosiy fanlarida «inson» deganda Erda yashayotgan mavjudot turlaridan biri tushuniladi. Inson alohida olingan tur (Homo sapiens) vakilini ifodalovchi umumiy tushunchadir. Inson, umuman zotning yig'iq obrazi sifatida bioijtimoiy mavjudot bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir. Individ - inson zotining alohida olingan nusxasi, uning vakillaridan biri. Shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi. Individning jamiyatga kirish jarayonlari uning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishish natijasida individning jamiyatdagi qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirib borishi uchun zamin yaratiladi. Bu jihatdan yondashganda, u ijtimoiy ta'sir ob'ektidir. Shuningdek, individ ijtimoiylashuv oqibatida jamiyatdagi turli munosabatlarda faollashadi va bunda u ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida harakatlanuvchi shaxsga sub'ektga, kuchga aylanadi.

Insonning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi o'rni va mohiyati doimo ijtimoiy fanlarning muhim va bahstlab sohalaridan biri bo'lib keldi. Aristotelning ta'kidlashicha, «inson - tabiatan (mohiyatan) ijtimoiy»¹ ekanligini ta'kidlash bilan birga, «umumiy ma'noda kimda-kim hokimiyat yuritish va bo'ysunishga taalluqli bo'lsa, o'sha fuqarodir; har bir davlat tuzumida fuqaroning mohiyati o'zgaradi. Davlat tuzumining eng yaxshi turida kimda-kim ma'naviy qadriyatlar talablariga mos hayotni nazarda tutgan holda bo'ysunish va hokimiyat yuritishni xohlasa va unga qobil bo'lsa, ana o'sha fuqarodir»².

Insonning mohiyatini dastlabki o'rgangan olimlardan biri Xitoydagi Konfutsiy va uning izdoshlari edi. Eramizdan ilgari 298-238 yillarda yashagan Konfutsiyning izdoshi bo'lgan olim Sen-tszhi shunday deb yozgan edi: «Tug'ma xususiyatlar - bu samoviy munosabatlar hosilidir. Ularga ta'lim yoki odamning o'zini yaratuvchilik ijodi vositasida erishib bo'lmaydi. Inson yovuz tabiatga ega. Insondagi ezgulik manfaatlar uchun orttirilgan fazilatdir. Hozirgi inson tug'ilishidan boshlab foyda olishga intiladi. Bu shunga olib keladiki, kishilar o'zaro raqobatlashadilar va bir-birlariga yon bermaydilar. Shuning uchun ham tarbiya yo'li bilan inson tabiatini o'zgartirish, yaratilgan qoidalar asosida ta'lim berib, ularni adolatlilikka va mas'uliyatlikka o'rgatish lozim»¹. Ko'rinib turibdiki, insonni jamiyatga uyushishi yoki uning jamiyat a'zosiga aylanishi va faollashuvi uchun u ma'lum darajada tashqi ta'sirga va hayotdagi ijtimoiylashuvga ehtiyoj sezadi.

Insonning muhim xususiyatlaridan biri - uning ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Inson o'zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida o'zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Insonning ijtimoiylashuvi sun'iy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o'rtasidagi muhitdagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan holi bo'lsa, o'zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan xalos bo'la olmaydi. Insondagi jamiyatga uyushishga intilishning tabiiy tarzda kechishini Abu Nasr Forobiy quyidagicha ifodalaydi: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga

¹ Аристотель. Соч. в 4-х т. -М.: Мысль, 1984, с.63.

² Ўша жойда, 471-бет.

¹ Антология мировой философии. В 4-х т. М.: 1969. Т.1. стр.230-231.

muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va urning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi»².

An'anaviy jamiyatlarda insonning yaratuvchilik ijodiy qobiliyati ancha chegaralandi. Chunki an'anaviy jamiyatlarda mehnatning tabiiy taqsimoti va ixtisoslashuvi adolat printsiplariga asoslanmadi. Shuningdek, bu jamiyatlarda shaxslararo munosabatlarning o'ta tabaqalashuvi, o'zaro harakatlar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirilishi, jamiyat a'zolarining bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi natijasida shaxs erkinligi ham ta'minlanmadi. Boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faolligini pasaytirib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon bermas, natijada o'zaro munosabatlar biqiq tarzda ro'y berar edi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning ijtimoiy va siyosiy munosabatlardagi o'rni yuksalib bordi. Bu jamiyatlarda o'zaro munosabatlarning bir-biriga ta'sir etish darajasi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ro'y berdi. Bu jarayonlarning sekinlik bilan yuksak ta'lim va tajribaga, shuningdek, yuqori kasbiy malakaga asoslanishi, ijtimoiy munosabatlarning qonunlar, me'yorlar, shartnomalar asosida muvofiqlashtirishning rasmiy tizimini yaratilishi zamonaviy jamiyatlarni xalqchil bo'lishiga zamin yaratdi. Dinni davlat va boshqaruvdan ajratilishi, ijtimoiy institutlarning ko'payishi va rivojlanishi kabi omillar natijasida insonlararo munosabatlar yuksalib, siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish, jamiyatda tenglik o'rnatish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

² Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаіри. Т.:А.Кодирий номидаги «Мерос» нашриёти, 1993, 186-бет.

XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklarini fuqarolik jamiyati, deb atash rusumga kirdi.

Fuqaro huquqlarini ta'minlashda insonning tabiiy huquqlarini e'tiborga olish muhim ahamiyatga egadir. Qadimgi antik faylasuflar talqinicha, tabiiy huquq tabiatiga bog'liq holda insonlar tug'ilishlaridanoq bir xildirlar. Ijtimoiy shartnomalar asosida qonun va davlat paydo bo'ldi. Aristotelning fikricha, insonni tug'ilishidayoq paydo bo'lgan xususiy mulkka bo'lgan tabiiy huquqi insonning tabiati va uning dastlabki o'zini o'zi sevishiga asoslanadi. Qolaversa, ana shu tabiiy huquqni ta'minlashga intilish, xususiy mulk jozibasi, uni saqlash va ko'paytirish manfaatlari insonni jamiyatda tezlik bilan ijtimoiylashuviga va faollashuviga olib keladi.

Tor ma'noda inson huquqlari tushunchasiga faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, xozirgi davrda ularni konstitutsion-huquqiy asoslar yoki va davlat chegaralari bilan cheklab qo'yish oson vazifa emas. Bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o'zboshimchalik va noqonuniy ushlash yoki qamash, vijdon va din erkinligi, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiya qilish huquklari, zulmkorlarga qarshilik qilish huquqi va boshqalar kiradi. Keng ma'nodagi inson huquqlari esa o'zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi.

Barcha inson huquqlarini negativ va pozitiv yo'nalishlarga bo'lishga doir tasniflash keng tarqalgan. Mazkur huquqlarni bu kabi bo'linishi erkinlikni negativ va pozitiv jihatlarini ifodalashga asoslanadi. Ma'lumki, erkinlikning negativ ahamiyati nuqtai nazariga binoan shaxsga nisbatan majburlash va cheklashlarning yo'qligi tushuniladi. Pozitiv nuqtai nazardan esa tanlash erkinligi, asosan, insonning o'z maqsadlariga erishish qobiliyati, uning individual rivojlanishi va umuman, uning qobiliyatlarini paydo bo'lishi tushuniladi. Erkinliklarning mazkur bo'linishidan kelib chiqib, negativ huquqlar deganda, davlat va boshqa insonlarning individga nisbatan u yoki bu harakatlardan o'zini tiyib turishi tushuniladi. Bu huquqlar shaxsni noxush ta'sirlardan, uning erkinligini buzishi mumkin bo'lgan aralashish yoki cheklashlardan himoya qiladi. Bu huquqlar asos bo'luvchi, muhim va mutlaq huquqlar sirasiga

kiradi. Mazkur huquqlarni ta'minlash davlat resurslari yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalariga bog'liq emas. Negativ huquqlar esa shaxs erkinligining asosidir.

Negativ huquqlardan farqli o'laroq, pozitiv huquqlar fuqaroga uni u yoki bu ne'matlar bilan ta'minlash, uning ma'lum harakatlarini amalga oshirishi uchun davlat, shaxslar va tashkilotlar majburiyatlarini ifodalaydi. Bu - masalan, ijtimoiy yordam olish, ta'lim olish, sog'liqni saqlashni himoya qilish, munosib yashash darajasini ta'minlanishi huquqlari kabilardir.

Insonning fuqarolik (shaxsiy), siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari amalga oshirish yo'nalishlaridan kelib chiqib, negativ va pozitiv huquqlar sohalariga bo'linadilar. Ularning ichida fuqarolik huquqlari insonning tabiiy, asos bo'luvchi va ajralmas negativ huquqlari doirasiga kiradi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston jamiyatida inson huquqlarini himoya qilish va ularni ta'minlashning huquqiy asoslari rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy qadriyatlar talablari darajasida shakllandi. Shuningdek, Konstitutsiya va qonunlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat talablari darajasidagi mezonlari va me'yorlarini yarata oldi. Konstitutsiyaning 24-moddasidagi «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir», 25-moddasidagi «Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas», 27-moddasidagi «Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas», 29-moddasidagi «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega...», 32-moddasidagi «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'z-o'zini boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi», 36-

moddasidagi «Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi», 43-moddasidagi “Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi”¹ kabi fuqarolik jamiyati qurishning demokratik qadriyatlari va tamoyillari shakllanishini ta'minlaydigan qonun va qoidalarning kiritilishi O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning kelajak istikbollarini belgilab berdi.

Fuqaro erkinligini ta'minlash uning burchlari bilan mustahkam bog'langandagina, real voqelikka aylanishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda fuqaro burchlariga qonunlarga amal qilish, boshqa shaxslar huquq va erkinliklarini hurmat qilish, soliqlarni to'lash, harbiy majburiyat, tabiat, atrof-muxit, tarixiy yodgorliklarni asrash kabilar kiradi. Ba'zi mamlakatlarda esa davlat hokimiyati organlariga saylovlarda ovoz berish ham muhim fuqarolik burchlaridan biri hisoblanadi. Demokratik jamiyat qurish tajribalari ko'rsatdiki, qaysi bir jamiyatda mansabi, irqi, jinsi va boshqa ijtimoiy darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, fuqarolar konstitutsiya va qonunlar bilan mustahkamlab qo'yilgan o'z burchlarini amalda bajarganlaridagina, o'zlari uchun tegishli bo'lgan erkinliklari va huquqlaridan foydalana olishlari mumkin. Aks holda, bu demokratik qadriyatlar qo'pol ravishda buzilib kelgan. Shuning uchun ham O'zbekiston Konstitutsiyasining IX bobidagi 6 ta modda maxsus ravishda fuqarolarning burchlarini mustahkamlab qo'ygan. Xususan, Konstitutsiyaning 48-moddasi quyidagicha ifodalanadi: «Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburlar».

Demokratik jamiyat barpo etishda fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi eng muhim omillardan biridir. Bu haqda mamlakat Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni bildiradi: “Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko'p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etish masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma'lum. O'zbekistonda ushbu huquqning amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan. Biroq hali jamiyat va fuqarolar davlatni

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2000, 10-14-бетлар.

boshqarishda ishtirok etish, o'zlari qanday boshqarilayotganligi haqida ma'lumot olish huquqini anglay boshlashiga va bu huquqdan foydalana oladigan bo'lishlariga erishish kerak. Shunday sharoitdagina davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z mas'uliyatlarini his qiladilar. Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish zarur. Barqaror, mustahkam tizimlarda, agar fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun hamma huquqiy, demokratik shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, aholining o'zi ixtiyoriy ravishda, professional asosda mamlakatning siyosiy hayotida tobora keng ishtirok etadi".

Mustaqillik davrida yoshchlarning ijtimoiy faolligini oshirishga ham muhim e'tibor berildi. Mamlakatda O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakati jamiyatning barcha yo'nalishlarida keng faoliyat olib bormoqda. Harakat faoliyatining asosiy maqsadi - yoshlarni birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishi, jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berishdan iborat, deb belgilangan. Harakatga Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo'lida mehnat qilish va kurashishni o'zi uchun hayotiy e'tiqod deb biladigan, o'qishda, mehnatda, harbiy xizmatda, jamoatchilik ishlarida boshqalarga o'rnak bo'ladigan o'n to'rt yoshdan yigirma sakkiz yoshgacha bo'lgan O'zbekiston yoshlari a'zo bo'lishi mumkin. Harakatning viloyat, shahar va tuman bo'limlari, maktablar, litsey hamda kollejlari, oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, harbiy qismlarda bo'lim va boshlang'ich tashkilotlari faoliyat olib boradi. Mamlakatda 14 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan yoshlarning soni 7 milliondan ortiqroqni tashkil etadi. Hozirgi davrda harakatning boshlang'ich tashkilotlari soni 20 mingdan ortiqroqni tashkil etib, ular 4 milliondan ortiqroq yoshlarni birlashtiradi. Shuningdek, harakat tarkibida uning homiyligi asosida ishlaydigan 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarni birlashtirgan Bolalar tashkiloti o'z faoliyatini tarbiyaning o'ziga xos yondashuv va usullaridan foydalangan holda, bolalar dunyoqarashiga vatanparvarlik, ijtimoiy tadbirlarda faol ishtirok etish, o'zini o'zi boshqarishni o'rganishni singdirish kabi yo'nalishlarga qaratgan.

Ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirishda saylovlar muhim o'rin tutadi. Unda avvalo, saylovchilarning ixtiyoriy bergan ovozlari binoan siyosiy institutlar legitiimligi oshadi. Qolaversa, saylovlarda jamiyatdagi turli xil guruhlarining tinch raqobatdoshligi kutilganligi sababli ham saylash jarayonlari siyosiy ziddiyatlarni hal etishga olib keladi. Shuningdek, saylovlar aholi siyosiy manfaatlarini ifoda etuvchi siyosiy partiyalar, boshqa siyosiy tashkilotlarning faol harakatlari tufayli turli ekstremistik harakatlarni cheklab turadi. Shu bilan birga saylovlar fuqarolaʼning ijtimoiy-siyosiy ijtimoiylashuviga ko'maklashadi. Saylovlardagi turli kampaniyalar, ularni ommaviy axborot vositalarida yoritish kabi tadbirlar saylovchilar siyosiy va huquqiy madaniyatlarini yuksaltiradi. Shuningdek, saylovlar fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga qulay imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatda o'tkazilgan saylovlarni tahlil etish ko'rsatdiki, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi yildan-yilga o'sib bormoqda. Mamlakat fuqarolari hozir mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlar va islohotlarga nisbatan befarq emaslar. Ayniqsa, fuqarolarning o'z manfaatlarini ijtimoiy faollik va guruhliy nodavlat tashkilotlar vositasida ifoda etish, ularni qondirishga intilishlari rivojlanib bormoqda. Lekin, shu bilan birga, fuqarolarning qarorlar qabul qilishdagi faolligini oshirish uchun ular dunyoqarashida demokratik tamoyillar asosidagi siyosiy va huquqiy ongini singdirish ehtiyojlari sezilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri, iqtisodiy va siyosiy hayotni erkinlashtirishdir.

O'z-o'zidan ravshanki, siyosiy tuzum to'la-to'kis amal qilishini va uning yanada erkinlashuvini ta'minlash uchun uni tashkil etuvchi hamma tuzilmalar, ya'ni mavjud sub'ektlar - shaxs, siyosiy institutlar, aholining ijtimoiy guruhlar hamda qatlamlari va xokazolar to'laqonli faoliyat ko'rsatishiga erishish zarur".

Xulosa qilib aytganda, insoniyat borliqini va ijtimoiy hayotda erkinlikni ifodalashning huquqdan tashqari boshqa biron-bir shaklini hozirgacha kashf etmagan. Bu mantiqan ham, amalda ham mumkin emas. Odamlar o'z tengligi darajasida erkindirlar va erkinligi darajasida tengdirlar.

9– mavzu. Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va demokratlashtirish.

REJA:

- 1.Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish va uning mohiyati.
- 2.Jamiyat iqtisodiy hayotini erkinlashtirish taraqqiyot omili.
- 3.O'zbekistonda iqtisodiy hayotni erkinlashtirish va uning xususiyatlari.

Iqtisodiy hayot kishilik jamiyati hayotining muhim sohalaridan biri bo'lib, inson rivojlanishi manbaini tashkil qiladi. Unda insonlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tirikchilik ne'matlarini va vositalarini ishlab chiqaradilar. Shuningdek, ular taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishga qaratilgan faoliyatlarida o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar.

Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi va ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va davlat tizimi iqtisodiyotga jiddiy ta'sir etadi.

Sobiq totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida iqtisodiy hayot soxta siyosat, mafkuraviy maqsadlarga bo'ysundirilgan edi. Mafkura iqtisodiyotdan ustun bo'lib, uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berardi. Bu tuzumning iqtisodiy negizini davlat va kolxoz-kooperativ mulk shakllaridan iborat umumxalq mulki deb atalmish, egasiz mulk tashkil etardi. Davlat asosiy ishlab chiqarish fondlarining 90 foizdan ortig'iga ega bo'lib, iqtisodiyotda yakka hokimlikni o'rnatgan edi. Buning oqibatida davlat iqtisodiyotni, iqtisodiy hayotni bir markazdan ma'muriy-buyruqbozlik asosida boshqarib, nimani, ya'ni qanday mahsulot va xizmatlarni qancha miqdorda, qanday texnologiyadan foydalanib, kimlar uchun ishlab chiqarishni rejalashtirib, belgilab berar edi.

Jamiyat a'zolari ijtimoiy mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish mulkdorlik huquqidan mahrum edilar. Tadbirkorlik, biznes bilan shug'ullanish qonun bilan man etilgan edi. Bunday faoliyat bilan shug'ullanganlar chayqovchi, yot unsur sifatida jinoiy javobgarlikka tortilar edilar.

Kishilarning mulkdan, uning natijalarini tasarruf etishdan begonalashganliklari tufayli, mehnat motivatsiyasi va ijtimoiy adolat tamoyillari buzilgan edi. Pirovard natijada sobiq ittifoq chuqur tanazzulga uchrab, tarqab ketdi.

Ma'lumki, shaxsning mulkdor bo'lish, erkin kasb tanlashi, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, o'zi istagan iqtisodiy faoliyat turi bilan erkin shug'ullanish hamda shunga muvofiq cheklanmagan daromad olish va yaxshi yashash imkoniyatlariga ega bo'lish kabi demokratik ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini amalga oshirishni faqat ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotigina ta'minlashga qodirdir.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston, xalq turmush farovonligini, iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik erkinliklarini, eng muhimi, mulkdor bo'lish imkoniyatlarini ta'minlaydigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan insonparvar demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining ting huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi»¹ deb belgilab qo'yilgan.

Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Biz tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga kirishar ekanmiz, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish quruq maqsad emas, degan aniq-ravshan xulosaga kelganmiz. Barcha islohotlarning-iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat»¹, - deb ta'kidlagan.

Erkin ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi iqtisodiy plyuralizm bo'lib, demokratiyaning umumbashariy tamoyili hisoblanadi. Iqtisodiy plyuralizm tushunchasi mulk shakllari va xo'jalik yuritish usullarining xilma-xil bo'lishida o'z ifodasini topadi. Shu boisdan ham ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra ko'p ukladli poliiqtisodiyot bo'lib, unda turli mulk shakllari va xo'jalik ukladlarining teng huquqligi, muvozanatda bo'lishi hamda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi ta'minlanadi.

O'zbekistonda shakllanayotgan xususiy mulk ikki turdan iborat bo'ladi: birinchisi, yakka tartibda faoliyat yurituvchi yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning, dehqon va fermerlarning xususiy mulki, ikkinchisi, ularning shirkat xo'jaliklaridagi paylari, aktsiyadorlik jamiyatlaridagi aktsiyalari, uyushmalardagi ulushlaridan iborat korporativ xususiy mulk. Yakka va korporativ (ulushli) xususiy mulk egalari mulkdor

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2003. 11-бет.

¹ Каримов И.А.. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: Ўзбекистон, 1998. 281-282-бетлар.

hisoblanib, ularning mulkka bo'lgan huquqlari, dahlsizligi davlat tomonidan himoyalandi. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik kodeksida» «mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilishi huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir»¹. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida esa mulkdor huquqining daxlsizligi bilan birga, uning mas'uliyati ham belgilab berilgan. Xususan, unda «mulkdor mulkiga o'z xohishiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart»², deb ta'kidlangan. Xususiyl mulk miqyoslarining kengayib borishiga olib keladi.

Tadbirkorlik erkinligi ayrim shaxslar va ularning uyushmalari, guruhlarining foyda, daromad olish maqsadida ma'lum sohada xo'jalik, iqtisodiy faoliyat yuritish erkinligini bildiradi. Bu shuningdek, u yoki bu tarmoqqa tadbirkorlarning o'z xohishlariga ko'ra kirishini va undan chiqishini ham anglatadi.

Tanlash erkinligi iste'molchilar huquqlari va manfaatlarining ustunligini, ularning o'z xohishi, istaklari, didi, daromadiga mos tovar va xizmatlarni tanlash erkinligiga ega ekanliklarini ifodalaydi. Buning uchun birinchidan, tovar xizmatlar hamda resurs bozorlari ham qimmat, ham arzon, birlarining o'rnini bosuvchi va to'ldiruvchi tovarlar bilan to'lgan bo'lishi, ikkinchidan, davlat iste'molchilarni ularning hayoti va salomatligiga ziyon va zarar etkazuvchi tovarlardan himoya qiladi. Shu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni amalga oshirilmogda. Unga binoan iste'molchilar tovar (ish, xizmat) va ularni ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi)lar haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish, tovarlarni erkin tanlash huquqiga egadirlar. Tovar, ish, xizmat iste'molchining hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsonga ega bo'lgani hamda ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining g'ayriqonuniy harakati tufayli etkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararining to'liq hajmda qoplanishi ta'minlanadi.

Tovarning nuqsонlari bo'yicha iste'molchining talablari u kassa yoki tovar chekini kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa tegishli rasmiylashtirilgan texnik pasport yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etgan taqdirda ko'riladi. Bunday tovarlar boshqa nuqsонsiz tovarlarga almashtirilib beriladi yoki zararining o'ri pul bilan qoplanadi. Iste'molchi huquqlarining himoya qilinishi, uning tanlash erkinligini ta'minlanishi demokratik iqtisodiy tamoyilining ro'yobga chiqarilishini anglatadi. Shuning uchun Vazirlar Mahkamasining 2002 yilda qabul qilingan muhim qarorlariga muvofiq respublikaga iste'mol tovarlarini noqonuniy olib kelinishi va sotilishining oldini olish chora-tadbirlarining ko'rilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kishilar naf, foyda va daromad olish uchun intilib, o'zlarida bor bo'lgan qobiliyatlari va imkoniyatlarini ishga soladilar. Raqobat iqtisodiyot sub'ektlari shaxsiy manfaatlarini ryobga chiqarishning chegarasini belgilaydi. Hech kimning iqtisodiy yakkahokimlik qilishiga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, raqobat ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning iste'molchi, xaridorlar manfaati, didi, xohishini inobatga olishga bir-biridan arzonroq va sifatliroq tovarlar ishlab chiqarish maqsadida yangi texnika va texnologiyadan foydalanishga undaydi.

Erkin tadbirkorlik, raqobat va narx tizimiga asoslangan bozor iqtisodiyotida hukumat va davlatning roli cheklangan bo'ladi. Davlat bozor mexanizmining amal qilishiga ko'maklashadi. Buning uchun davlat iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatining qonuniy bazasini yaratib, ularning faoliyat, "o'yin" qoidalarini belgilaydi. Aholining turmush darajasining barqaror o'sib borishini, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalash, boy-kambag'allar o'rtasidagi farqlarning keskinlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida aholi daromadlarini soliqlar, transfert to'lovlari vositasida qayta taqsimlaydi, makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliq, byudjet va pul-kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartiblaydi. Davlat bozor

¹ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. Т.:19, 164-модда.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. —Т.: Ўзбекистон, 2003. 11-бет

mexanizmi to'la-to'kis bajara olmagan vazifalarni o'z zimmasiga olib, raqobat muhitini saqlaydi, iqtisodiyot sub'ektlarining erkin faoliyatini ta'minlaydi. Hamda jamiyat uchun kerak bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'z zimmasiga oladi.

Demak, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar insonga munosib turmush sharoitlarini yaratishga, kishining erkin tadbirkorlik va mehnat qilish, tanlash erkinligini hamda mulkdor bo'lishdek muhim demokratik huquqlarini ta'minlashga, iqtisodiy hayotni demokratlashtirishga qaratilgandir.

Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat», «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz» va boshqa asarlarida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, bozor iqtisodiyotiga o'tishining nazariy asoslari, kontseptsiyasi ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasi uch tarkibiy qismdan iborat:

- ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy andozasi mohiyatining ta'rifi;
- bozor munosabatlarini shakllantirishning muhim tamoyillari;
- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning, tanglikdan chiqib olishning, barqarorlikni va muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning aniq yo'nalishlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ijtimoiy-iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan «pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir¹», - deb belgilab bergan.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish, unda demokratiya tamoyillari bo'lgan iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va tanlash erkinligini, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali iqtisodiy hayotni erkinlashtirishga yo'naltirilgandir.

Iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish va uni demokratlashtirish, erkin ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida (1991-1994 yy.) ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yangisi, tanglikka barham berish va iqtisodiyotni barqarorlashtirish hamda respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish vazifalarini hal qilishga kirishildi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichi (1995-1999 yillar)da davlat mulkini dastlabki, kichik xususiyalashtirishni tugallash, mulkni haqiqiy egalari qo'lga topshirish, tadbirkorlik faoliyati uchun keng imkoniyatlar berish vazifalari belgilandi. Bu bosqichda sanoat, qurilish va transport sohasidagi, agrasanoat kompleksining go'sht-sut oziq-ovqat va paxta sanoati tarmoqlaridagi o'rta va yirik korxonalar, shuningdek, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi sayyoxlik komplekslarining xususiyalashtirilishi boshlandi. Bu bosqichda ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari yaratildi, ularning aksiyalarini erkin sotishga chiqarildi hamda keng ko'lamdagi ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozori vujudga keldi. Davlatning aksiyalardagi ulushi 26 foizdan oshmaydigan qilib qo'yildi. Aksiyalarning 50 foizdan ko'prog'i aholiga, milliy va xorijiy investorlarga erkin sotiladigan bo'ldi.

Ushbu bosqichda ishlab chiqarishning pasayishiga barham berildi. Makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanib, 1996 yildan boshlab iqtisodiy o'sish yo'liga o'tildi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish ishlarini amalga oshirilishi natijasida respublika yonilg'i-energetika va g'alla mustaqilligiga erishildi. Shuningdek, respublika uchun tamomila yangi bo'lgan avtomobilsozlik sanoati vujudga keltiriddi. Engil va oziq-ovqat sanoati uchun asbob-uskunalar, qishloq xo'jaligi

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: Ўзбекистон, 1998. 179-бет.

uchun kichik mexanizatsiya vositalari ishlab chiqarishni ta'minlovchi boshqa istiqbolli tarmoqlar xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirila boshlandi.

Ammo shu davrlarda kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga davlat va turli nazorat organlarini noo'rin, noqonuniy aralashuvi holatlari ko'paydi.

Iqtisodiyotning nodavlat sektorida monopolistik birlashmalar, korxonalar vujudga keldiki, ular ichki iste'mol va ishlab chiqarish vositalari bozorlarida o'z xokimliklarini o'rnatib, narx- navoning ko'tarilishiga sabab bo'ldilar. Ushbu sektordagi aktsiyadorlik jamiyatlarining ustav fondida, aktsiyalarida davlat ulushi katta miqdorda saqlanganligi oqibatida, davlat ishonchli vakillarining ularning faoliyatiga noo'rin aralashishiga imkon yaratar edi.

Valyuta tizimi va bozorining davlat tomonidan qattiq nazorat qilinishi esa korxonalar va tadbirkorlarning tashqi bozorlarga erkin chiqish imkoniyatini kamaytirardi. Bozor va ishlab chiqarish infratuzilmalarining rivojlanmaganligi tufayli tadbirkorlar moddiy texnika resurslari, moliyaviy mablag'lar, kreditlar olishda qiyinchilikka uchrar edilar.

Ushbu noxush holatlar iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlik va iqtisodiy faoliyat erkinliklarini kengaytirish, xususiy mulkdorlar mavqeini yanada ko'tarishni taqozo etib qoldi.

“O'zbekiston XXI asrga intilmoqda” asarida iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish vazifasi qo'shdi. Iqtisodiy hayotni erkinlashtirish mamlakat siyosiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu borada Prezident I.A.Karimov “O'zbekistondagi islohotlar va yangilanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, shuni ta'kidlashni istardimki, hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirish yo'li o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy bog'lovchi bo'g'iniga aylandi”,¹ - deb ta'kidlaganlar.

Iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish esa demokratik jamiyat qurilishining asosi sifatida uning iqtisodiy negizlarini mustahkamlashni ta'minlaydi. Uning natijasida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi amalda o'rta mulkdorlar sinfi shakllanadi.

Prezident I.A.Karimov iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish yuzasidan quyidagi vazifalarni belgilab bergan:

Birinchidan, mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal etish. Buning uchun xususiy mulkchilik etakchi o'rinda turadigan ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish;

Ikkinchidan, haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish;

Uchinchidan, bozor infratuzilmasini rivojlantirish;

To'rtinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish;

Beshinchidan, valyuta tizimi va bozorni erkinlashtirish;

Oltinchidan, davlat va turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan korxonalarning xo'jalik faoliyatiga noo'rin aralashishni cheklab qo'yish.

Mulk shaklini o'zgartirgan davlat korxonalari orasida “Elektrokimyosanoat”, “Navoiyazot”, “Ammofos”, “O'zbekrezino-texnika” ishlab chiqarishi birlashmalari, Toshkent va Farg'ona issiqlik markazlari, Sirdaryo GRESi, yuk vagonlarini ta'mirlash zavodi, yo'lovchi tashiydigan vagonlarni ta'mirlash korxonasi, O'zbekiston qiyin eriydigan va o'tga chidamli materiallar kombinati singari strategik ahamiyatga ega bo'lgan yirik korxonalar bor.

Prezident I.A. Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining To'qqizinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida respublikada demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning “bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. /Биринчи чақариқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ўн тўртинчи сессиядаги маърузаси, 1999 йил 14 апрель. –Т.; Ўзбекистон, 1999. 15-16 бет.

mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iborat",¹ muhim ustuvor yo'nalishini belgilab berdi.

Ushbu ustuvor yo'nalishni amalga oshirish uchun avvalombor xususiy sektorning mavqeini yanada oshirish va kichik tadbirkorlikni jadal rivojlantirish lozim bo'ladi. Endilikda xususiylashtirish jarayonlari tobora ko'proq yirik korxonalarni, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini o'z ichiga qamrab olishi, korporativ xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, aktsiyalarni sotishning birlamchi va ikkilamchi birja hamda birjadan tashqari bozorini rivojlantirish amalga oshiriladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga davlat va nazorat organlarining noo'rin aralashuviga barham berish, moddiy-texnika resurslari va moliyaviy, shu jumladan, kredit mablag'lari bilan ta'minlanishini yaxshilash, ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish uchun ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish hamda ularga servis xizmati ko'rsatuvchi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini va qishloqlarda ularning filiallarini tashkil etish muhim ustuvorlikka ega bo'ladi.

O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish iqtisodiy ustuvor yo'nalishini amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar ko'riladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni, valyuta bozorini erkinlashtirish, milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha erkin almashinuvini muntazam ta'minlash;
- iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish hamda import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash;
- iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish. Buning uchun tegishli investitsion muhit va investorlar uchun kafolat yaratish;
- ichki va tashqi investitsiyalarni butun iqtisodiyotga, shu jumladan, oltin-valyuta zaxiralarimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan etakchi tarmoqlarga ustuvor ravishda yo'naltirish;
- jahondagi nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, dunyo iqtisodiy tizimiga integrallashuvi hamda jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi bozor munosabatlarini rivojlantirish va erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, uni yanada demokratlashuviga olib keladi. Endilikda mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, tadbirkorlik sub'ektlari uchun bosqichma-bosqich teng iqtisodiy faoliyat sharoitlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun ayrim, strategik ahamiyatga ega bo'lmagan korxonalarga assosiz ravishda berilgan imtiyozlarni va ular uchun yaratilgan qulay sharoitlarni bekor qilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, xo'jalik sub'ektlari ham qat'iy moliyaviy cheklashlar doirasida, ya'ni yalpi xarajatlarining yalpi daromad hajmidan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik asosida faoliyat ko'rsatishlari lozim.

Iqtisodiyot sub'ektlari uchun soliq yukini kamaytirib borish bilan bir vaqtda soliq tizimining qat'iyligini oshirish, imtiyozlar berishni kamaytirish, kreditlarni qat'iy shartlar asosida berish amaliyotini joriy etish ularning mas'uliyatini yanada oshiradi.

Iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish, demokratik jarayonlarni kuchaytirish maqsadida yakka va korporativ xususiy mulkdorlar huquqlarini himoya qilish, ularning mas'uliyatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyati erkinliklarini ta'minlovchi hamda xo'jalik faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Республикаси Олий Мажлисининг Тўққизинчи сессиясидаги маъруза. //Халқ сўзи, 2002 йил 30 август.

Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish uchun davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish davom ettiriladi. Ammo iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblash mexanizmini rivojlantirish va uning bozor mexanizmi bilan uyg'unligini ta'minlash yo'lida hali, shubhasiz, ko'p ishlar qilish lozim.

Demokratik jamiyat qurish uchun davlatning iqtisodiy faoliyatini cheklash, uning vazifalarini bosqichma-bosqich mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlariga uzatish, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish qulay sharoitlar yaratadi. Pirovardida, bozor iqtisodiyotining shakllanishiga, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga va aholining turmush farovonligini oshirishga erishiladi. Mamlakatimiz eksport salohiyatining rivojlanishi va mustahkamlanishi – uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga zamin yaratadi.

10-mavzu.Oila – demokratik jamiyat qurishning asosiy bo'g'ini

Reja.

- 1.Demokratik jamiyat shakllanishida oilaning roli.
- 2.Mustaqillik yillarida oilaga bo'lgan munosabatning kuchayishi.
- 3.Fuqarolik jamiyatida oilaning takomillashuvi.

Sunggi yillarda iqtisodiyotda globallashtirish jarayonlarining faollashuvi, ma'naviyat va axloqiy tarbiyada g'arb ma'naviyatiga xos bo'lgan individualizmning kuchayishi hayotimizning barcha jabhalariga va ayniqsa oila muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Darhaqiqat, oila barcha islohotlar, o'zgarishlar, tanazzul va taraqqiyotlarning ibtidosi va intihosi hisoblanadi.

Mamlakatimizning ertangi porloq istiqbolini ta'minlashda boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda oila omiliga ham katta e'tibor qaratilayotganligi barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning mantig'i ham shundan iboratdir. Shunday ekan, oila muhitida mamlakatimizning umumiy rivojlanishiga munosib hissa qo'sha olishga qobil va tayyor shaxslarni shakllantirish uchun birinchi galda nimalar qilishimiz lozim va qaysi jihatlarni rivojlantirishimiz uchun jiddiy e'tiborni qaratishimiz zarur? Dastavval, o'sib kelayotgan yosh avlod ongi, shuuri, ma'naviyatida Vatan tuyg'usini mustahkam qaror toptirish ishi xalqimiz uchun taqdirilomon vazifa sanaladi. Negaki, qadim-qadimdan oila - muqaddas Vatan sanalgan. Zero, oilaga sadoqat, ota-onaga oqibat, aka-ukalarga mehrlilik vatan tuyg'usining debochalaridir. Oilaga samimiy sadoqat bo'lmagan joyda, farzandlar oldida ota-ona hurmati yo'q. Bunday holatda na qarindoshlarga, na mahallaga va na vatanga muhabbat tarkib topadi. Shu boisdan ham Prezidentimiz I.A.Karimov "oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab quvvatlash-bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor"¹⁶, deya alohida qayd etganliklari bejiz emas.

Oila omilining mustahkamlanishi bir tomondan, oilaga davlat va jamiyat e'tiborining kuchayishiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihatdan, oilaning sub'ektiv, ya'ni, ichki imkoniyatlarini to'laroq yuzaga chiqazish bilan bog'liqdir. Oilaning ichki imkoniyatlari deganda oila tarkibi, oila a'zolarining ijtimoiy mo'ljallari, o'z oldilariga qo'yayotgan maqsadlari, farzandlar tarbiyasi, ta'lim, shaxsning individual taraqqiyoti, axloqiy tarbiya, mehr, sadoqat, sabr, muhabbat omillarining oila muhitida amal qilishi tushuniladi.

¹⁶ 1998 йил – Оила йили, -Т.: Ўзбекистон, 10-бет

Dastavval, oila tarkibi va farovonligi masalasiga to'xtalsak. BMTning YuNISEF tashkiloti tomonidan o'rganilgan holatlar natijasiga ko'ra, O'zbekiston aholisining yarmidan ko'prog'i, ya'ni 11 millioni 18 yoshgacha bo'lganlarni tashkil etib, har bir oila boquvchisi o'zi bilan o'rtacha 5,2 kishini boqish mas'uliyatini zimmasiga olib yashaydi. Taqqoslash uchun mamlakatimizga aholi nufuzi bo'yicha birmuncha yaqinroq bo'lgan Ruminiya yoki Polshani misol qilib olsak, bu davlatlarda har bir boquvchi zimmasiga 0,5 bolani boqib, o'stirish to'g'ri kelmoqda. Polshaning 35 million aholisining 22 millioni, Ruminiyaning 23 million aholisidan 16 millioni moddiy, yoki nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida mashg'ul bo'lib kelayotgan bo'lsalar, O'zbekistonning 25 million aholisidan 5 millionga yaqini ishlab chiqarish, boshqaruv tijorat, maorif, tibbiyot singari sohalarda faoliyat yuritmoqdalar. Tabiiyki, bunday holat vaqtincha muayyan iqtisodiy qiyinchiliklar tug'dirsa-da, har o'tgan yil moddiy va nomoddiy ishlab chiqirishga millionlab yangi ishchi kuchlarining kelib qo'shilishiga va pirovard natijada mamlakatimizning umumiy salohiyati darajasini uzluksiz ravishda oshuviga olib keladi.

Bil'aks, istiqlool sharofati bilan ma'naviy tiklanish jarayonlari dadil kechayotgan mamlakatimizda oila instituti ijtimoiy hayotda tobora mustahkamroq o'rin egallab bormoqda. Bu borada yurtboshimiz I.A.Karimov asoslab bergan oila omilini mustahkamlash kontsepsiyasi e'tiborga sazovordir.

“Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir”¹⁷.

Oila mustaqil ijtimoiy institut bo'lib shakllanganidan to istiqlool davrigacha ko'p qirrali va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Har bir tarixiy davrda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari xilma-xil mazmun bilan boyib bordi hamda oila davrning chigalli sinovlaridan omon o'tib, jamiyatning negizi sifatidagi xususiyatini saqlab qoldi. Oilaning jamiyatdagi muhim ijtimoiy institut sifatidagi o'rni xususida mutafakkirlarimiz ibratli nuqtai-nazarlar bayon etishgan.

Xususan bu borada, ya'ni oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Mineralogiya”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “O'tgan avlodlar obidalari”, Abu Ali ibn Sinoning “Axloq”, “Axloq fani”, “Oila xo'jaligi”, Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” va “Mahbub-ul qulub” asarlarida o'z ifodasini topgan.

Ayniqsa XX asr boshlaridagi milliy ozodlik kurashchilari bo'lgan jadidlar oila instituti orqali jamiyatni isloh qilish uchun astoydil kirishganlar.

Oilaning huquqiy asoslari mamlakatimiz Konstitutsiyasining 66-bandida “voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdilar”, deb maxsus qayd etiladi. Shu o'rinda qayd etish joizki, dunyo konstitutsiyalarining birortasida ham bunday mazmundagi huquqiy modda alohida ajratib ko'rsatilmagan bo'lib, masalaning bu tarzda, qo'yilishi O'zbekistonda ota-ona va farzand munosabatlari umumdavlat darajasidagi favqulodda muhim masala ekanligidan dalolatdir.

Jadidlar harakatining yirik nazariyotchisi professor A.Fitrat o'zi yashagan davr hayotning barcha sohalarida chuqur inqirozga yuz tutganligi tufayli u xonliklarning ayanchli ahvoli, ularning umumjahon jarayonlaridan ancha orqada qolganligi, ma'naviy qashshoqlanish yuz berganligi haqida kuyinib yozadi. Bu tasodifiy emas edi. Negaki o'tgan asrning boshida, ya'ni A.Fitrat yashagan davrda sharq oilalariga g'arb turmush tarzi singdirila boshlagan edi. U o'zining “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” asarida oila asosini to'g'ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, malakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi”¹⁸, deb yozadi u mazkur asarda.

¹⁷ Каримов И.А. Оила фаровонлиги – миллат фаровонлиги. «Маърифат», 1997. 10 декабрь.

¹⁸ Абдурауф Фитрат. Оила. Т.: Маънавият, 1998, 8 - бет

Fitrat o'z fikrini davom ettirib, "Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi"¹⁹, deb yozadi.

Muallif oilaviy hayot o'z qonun va qoidalariga ega ekanligini, bu qonunlarga rioya qilish orqaligina odamlarni jaholatdan qutqarish mumkinligini bayon etadi.

Oila institutining barqarorligi jamiyatning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazadi G'arb olimlari tadqiqotlarida oilaning inqirozi xususidagi nuqtai-nazarlar keng bayon etilmoqda. Xususan, 1859 yilda "Boston Kuaterli Revyu" jurnali shunday deb yozgan edi: "Eski ma'nodagi oila hayotimizdan yo'qolmoqda va bu nafaqat institutlarimizning erkin xarakteriga xavf ostida qoldiradi". Bunday fikrlar ko'pgina G'arb mamlakatlari bo'ylab aks-sado berib o'tdi. 1980 yilda Britaniyada konservatorlar partiyasi oila tushunchasini siyosiy jihatdan muhokama qildi. 1986 yilda Angliyada bosh vazir lavozimida ishlagan Margaret Tetcher konservatorlar partiyasi konferentsiyasida: "Bizning siyosatimiz oiladan, uning erkinligidan va uning xotirjamligidan boshlanadi"²⁰ dedi. Boshqa tomondan, oilaning tanqidchilari oila institutining tushkunligini va hatto bora-bora yo'qolib ketishini bashorat qiladilar.

Oilaning yo'qolishi to'g'risida hali asoslanmagan holda shunchalik ko'p gapirildiki, bunday umumiy mulohazalarga tanqidiy yondoshish lozim.²¹

Tabiiyki, oila instituti bugungi kunda fundamental o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ammo, G'arb dunyosida yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni o'z holicha Sharq olamiga, xususan O'zbekiston turmush tarziga aynan ko'chirib talqin etish to'g'ri emasdir.

Oila millat sharafiga yuqori martabaga ko'taradigan mehr-muruvvat va madaniyat o'chog'i ham hisoblanadi. Mohiyat e'tiboriga ko'ra esa, oila ikki jinsga mansub insonlarning ya'ni, erkak va ayolning o'zaro hamjihatlikda yashay boshlashi, muhabbati, bir-birlarini anglagan holda turmush kechirishi va ko'payish istagining, jamiyatni to'ldirish, avlodlarni muntazam yangilab turish, eng muhimi, "uni ham iqtisodiy, ham ma'naviy – axloqiy jihatdan mukammallashtirish yo'lida birgalikda qiladigan harakatining hosilasidir".²²

Oilaning mustahkamligi jamiyat va davlat barqarorligi bilan mantiqiy uyg'un hodisa sanaladi. Xalqimizning murakkab tarixiy-madaniy tajribasi mobaynida yuz bergan voqea-hodisalar mohiyatini jamiyatning ilk bo'g'ini bo'lgan oiladan izlash tendentsiyasini ko'plab mutafakkirlarimiz asarlarida uchratamiz.

Millatimiz boshiga tushgan ko'pgina achchiq qismatlar dastavval oila tarbiyasidagi kamchiliklar okibati ekanini ma'rifat ahillari yaxshi anglashgan. Bundan xalos bo'lishda oila tarbiyasi hal kiluvchi ahamiyat kasb etadi, deb umid qilishgan. Fitratning "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" asarida bu haqda ibratli mulohazalar ilgari suriladi.

"Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq, - deb yozadi u. – tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila mustaqilligi kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi". Bu muddao amalida, tabiiyki, oila boshlig'inig ibratini alohida o'rin tutadi. Oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-muruvvat va oqibat omillari sog'lom muhitni yaratadi. Zero, sog'lom tarbiya oila a'zolari o'rtasida yakdillik, maqsadlar birligini yuzaga keltiradi. Aks holda esa ichdan emirilish, ma'naviy inqiroz holatlari yuz beradi, bu esa har qanday tashqi ziyonlardan ko'ra talofatliroqdir.

Fitrat oilani millat manfaatiga xizmat qiluvchi, shu ruhni tarbiyalovchi beshik ekanligini alohida ta'kidlaydi. Oiladagi ijtimoiy foydali tarbiya esa jamiyatni mustahkamlovchi omil bo'lib, uning uyg'oqligi, harakatchanligi, ma'rifiy komilligiga taqalishini ta'kidlaydi. *"Qaysi millatning umumiy*

¹⁹ Абдурауф Фитрат. Оила. Т.: Маънавият, 1998, 8 - бет

²⁰ аранг: Энтони Гидденс. Социология: олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма, Илмий муҳаррирлар: А.Бегматов ва М.Бекмуродов, - Т.: Шарк, 2002. – 459 – бет.

²¹ аранг: Энтони Гидденс. Социология: олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма, Илмий муҳаррирлар: А.Бегматов ва М.Бекмуродов, - Т.: Шарк, 2002. – 459 – бет.

²² О.Сафаров, М.Махмудов. Оила маънавияти. -Т.: Маънавият, 1998. 20-21- бетлар.

sa'y – harakati va amali ko'p bo'lsa, kuch – qudrat va izzati ham shuncha salmoqli va buyuk bo'ladi”, deydi u va yurtdoshlarini shunga da'vat etadi. Tabiiyki o'sha davrda hamma ham buni anglab etmagan, bu yo'lda jonbozlik ko'rsatadigan fidoiylarga yo'l berilmagan, istibdod siyosati esa milliy yakdillikning barcha ko'rinishlari rivojiga monelik qilgan. Shu boisdan ham Fitrat Vatani mamlakatni dildan sevuvchi, uning sha'ni sharafiga himoya qiluvchi fidoiy farzandlarni ko'plab tarbiyalab voyaga etkazish lozim, degan fikrni asoslab beradi.

Fitrat jamiyat a'zolarining fidoiyligi va ongliligi milliy taraqqiyotga, el-yurt obodligiga olib kelishiga ishongan. Fitrat XX asr boshlarida Turkistonda amal qilgan tarqoqlik xurofot va aqidalarni, mutelik va parokandalikni inkor etuvchi, jamiyatni sog'lomlantiruvchi kuch sifatida odamlarni oilaga yangicha bir ko'z bilan karashga undaydi. Ota-onaning birlamchi vazifasi-farzandini jamiyatga nafi tegadigan kilib hayotga tayyorlash, uni ongli va hushyor shaxs qilib jamiyatga qo'shishdan iborat, *“Xalqning harakat qilishi, davlatdmand bo'lishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xo'rlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi – bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyaga bog'liq”*, deb biladi u.²³

Demokratik jamiyat qurishning muhim tamoyillaridan biri bu - erkin fuqaro shaxsini shakllantirish bilan bog'liqdir. Erkinlik esa oiladagi ijtimoiy tarbiya yo'nalishining mahsulidir. Ana shu jarayon xalqimizning turmush tarzi, demografik holatiga ham bog'liqdir. Bu boradagi muhim muammo - o'zbek oilalarining ko'p farzandlilikidir. Chunki aholining ko'payib borishida, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oiladagi serfarzandlik muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda nikohdan o'tish, oila qurish hollarining yuqoriligi ham oila sonining ko'payishiga, bu esa, o'z navbatida, tug'ilishning o'sishiga bog'liq. 1960 yilda respublika bo'yicha oila a'zolarining o'rtacha soni 4,7 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1992 yilda-5,5, 1994 yilda 5,4 kishini tashkil etdi.²⁴ 2000 yil ma'lumotlariga ko'ra esa, oila a'zolarining o'rtacha soni 5,2 kishidan iboratdir.

Mamlakatimizda 1998 yilning “Oila yili” deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni amaliyotga tatbiq etilishi, respublikamizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, demokratik qadriyatlarining shakllanishida muhim o'ringa ega bo'lmoqda. Mustaqillik yillarida oila masalalarini ilmiy-amaliy o'rganishda milliy va diniy qadriyatlarimizning ahamiyatiga katta e'tibor berilishi esa bu boradagi katta imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda. Bu imkoniyat oila a'zolari ma'naviyatini yuksaltirishga, ularning huquqiy va tibbiy ongini shakllantirishga, sog'lom turmush tarzini yaratishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yoshlarimizda oilaviy hayotga bo'lgan hurmat oshmoqda.

Ayollarning ijtimoiy hayotdagi maqomini oshirishga qaratilgan barcha imkoniyat va sa'y-harakatlarni birlashtirish, ularni turmush sharoitlarini yaxshilash orqali jamiyatning yangilanishida ayollar ishtirokini kuchaytirish uchun sharoit yaratish ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, mamlakatimizda I.A.Karimov tashabbusi bilan 1999 yilni “Ayollar yili” deb e'lon qilingan edi. Ayollar yili munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida, bozor iqtisodiyotini shakllantirish hamda jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlashda ayollarning maqomi, o'rnini mustahkamlashga qaratildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov oila omiliga, imkoniyatlariga alohida to'xtalib “Vatan tuyg'usi oilaviy mehrdan boshlanadi” deb ta'kidlagan edilar.

Oilada vatan tarbiyasi muhim ahamiyatga egadir. Vatanga bo'lgan mehr dastavval ota-onaga, aka-ukalarga, yaqin qarindoshlarga, qo'shnilarga bo'lgan munosabatdan boshlanadi.

²³ Соғлом авлод бизнинг келажагимиз: туплам. Тахрир хайъати: М.Мухаммад Дўст, О.Мусурмонова, Т.Рисқиев ва бошқа. -Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашрети, 2000.- 272-б. Г.Хотамовнинг “Маърифатпарварлар армони” маколасидан.

²⁴ “аранг: Инсоний тараққиёт бўйича ҳисобот. -Т.: Ўзбекистон, 1995. 47-бет.

Tabiiyki, mustaqillikka erishilgandan so'nggi o'n uch yil yangi qadriyatlarga o'tish, o'zlashtirish va bu qadriyatlar asosida boshqacha yashashdan iborat murakkab jarayonlarni boshdan o'tkazish davri bo'ldi. Birgina madhiya misolini olaylik. Tarixiy manbalarning guvohlik berishiga ko'ra, gimnlar vatan yo'lida yakka-yolg'iz jonini tikib, qurbon bo'lgan fidoiy-qaxramonlar ruhiga alqov, bag'ishlov, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, tantanali marsiyadir. Tabiiyki, marsiya aytiladigan paytda arvohlar ruhining hurmati uchun odamlar o'z o'rinlaridan turib, jo'r bo'lib marsiyani ijro etishgan.

Amerika oilalaridagi erkin fuqaro shaxsini shakllantirishda demokratik qadriyatlarning qaror topishini quyidagi misolda ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, Amerika oilalarida gimn ijro etilgan paytda hamma o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, birga ixlos bilan jo'r bo'lishadi. Endi shu holatning ko'rinishini O'zbekistonda bir tasavvur qilaylik. Ertalabki nonushta yoki kechki ovqat paytida televizorda madhiya ijro etilib qolsa, biror kishi ham o'rnidan turishni xayoliga keltirmaydi. Agar masalaga shunday yondashaversak, befarqlik namoyish etadigan bo'lsak, gimn qadriyatini mustaqillik ramzi sifatida qalbimizga jo'etishimiz qiyin. Shu boisdan ham Amerika oilalaridagi kabi mazkur qadriyatlarning shakllanish o'chog'larini oilalarga ko'chirish Vatan tuyg'usini samaraliroq shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

Uzoq yillar mobaynida amalga oshirilgan kuzatishlar, xalqimiz tarixining sinchkovlik bilan qilingan tahlili shundan guvohlik beradi-ki, oilada ota-onaning farzandlar bilan qancha ko'p vaqt birga bo'lishi, o'zaro muloqotlar, o'rgatilgan bilim va kasb-korlar mehr tuyg'usining shuncha mustahklanishiga olib keladi. Mehr tarbiyasi o'zbek oilalarida turli darajada ekanligi o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar hamda kuzatuvlardan ravshan ko'rinadi. Shu narsa e'tiborga loyiq-ki, respublikamiz turli hududlarida istiqomat qiluvchi ziyolilarning (o'qituvchilar, vrachlar, injenerlar, boshqaruv tuzilmalari vakillari, oliy ma'lumotli tijoratchilar) o'z farzandlari bilan bir kundagi muloqotlari hajmi o'rtacha 10-15 minut atrofidagi ko'rsatkichni ifodalayotganligi tashvishlanarli holdir. Ma'lumki, hayotga endigina kirib kelayotgan o'smirda atrof-muhit, odamlarda yuz berayotgan o'zgarishlar borasida har kunda o'nlab savollar, jumbokli holatlar yuzaga keladi. O'smir bunday savollarni vaqt defitsiti sababli ota-onaga bera olmaganligi va malakali javobga ega bo'lmaganligidan jumboqlarning echimini tasodifiy shaxslardan, aksariyat hollarda o'z tengdoshlaridan izlashga majbur bo'ladilar. Natijada, kichik yoshdagi bolalar, o'smirlar har tomonlama to'g'ri, jamiyat va shaxs uchun ijtimoiy foydali bo'lgan malakali javoblarga ega bo'lmaydilar. Buning oqibatida esa yoshlar tarbiyasi muayyan izdan chiqib, umumiy axloq, milliy an'analar ruhiga zid bo'lgan holatlar yuzaga keladi.

Tarbiya tizimida oila tarkibi, tug'ilajak farzandlarning yosh farqlari ham muhim ahamiyatga egadir. Ko'p yillik kuzatishlar, huquqiy idoralar hujjatlari, voyaga etmagan yoshlar tomonidan qilingan jinoiy xatti-harakatlar, tartibbuzarlik holatlarining asl sabablarini o'rganish shundan guvohlik beradi-ki, oila muhitida tinchlik, totuvlik, o'zaro mehrga chanqoq bo'lganlik, ota-onalarning o'zaro adovati, aka-ukalar o'rtasidagi mehrsizlik tufayli aksariyat yoshlarning jinoyat ko'chasiga kirib qolishlari ma'lum bo'ldi. Aka-ukalar o'rtasidagi mehrsizlik dastavval ota-onalarning o'z farzandlariga e'tibor bermasliklari, bu ishga juda kam vaqt ajratishlari bilan izohlansa, ikkinchi tomondan esa farzandlar tug'ilishida biri va ikkinchisi o'rtasidagi yosh farqi masalasiga xalqimizda umuman ahamiyat berilmasligi ham jiddiy masaladir. Ruhiyatshunoslik ilmi nuqtai nazardan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, agar bola 1 dan 3 yoshgacha bo'lgan vaqtda ikkinchi farzand tug'ilsa, bolalar o'rtasida ona va otaga egalik qilish, suyuqli bo'lish, erkalik qilish borasida bir qarashda kichik fakt tuyulsa-da, ammo bu faktning ong ortida mujassamlashuviga ko'ra jiddiy hodisa-o'zaro raqobat holati tarkib topadi. Agar tug'iladigan bolalar o'rtasidagi farq 4-5 yosh bo'lsa, katta farzand tomonidan o'z ukasini himoya qilish ruhi shakllanib o'z ota-onasidan ukasini qizg'anmaslik holati tarkib topadi. Bu bilan esa, aka-ukalar o'rtasida juda nozik bo'lgan mehrning biologik omillar orqali rahna topishining oldi olinadi. Xalqimizda unchalik e'tibor berilmaydigan, ammo, mehr tuyg'usiga rahna soluvchi yana bir jihat - bu aka-ukalar o'rtasidagi o'zaro janjallar hodisasidir.

Aka va uka o'rtasidagi bahslar agar verbal darajada, ya'ni faqat so'z talashlari fikr-qarashlar tortishuvi tarzida yuz berish bilan cheklanilsa, mehri-tuyg'usi jiddiy zarar ko'rmaydi. Mobodo, bu

bahs musht tushirish darajasiga etgudek bo'lsa, kichiklarning kattalarga bo'lgan ukalik mehr ildiziga jiddiy zarba beriladi. Shu narsa e'tiborga loyiqki, musht urgan tomon mehrini saqlashi mumkin bo'lsa-da, tayoq egan tomon o'z akasiga nisbatan mehr tuyg'usini teran his eta olmay qoladi. Yaqin qarindoshlar, er va xotin o'rtasidagi munosabatlarda zo'ravonlik qilish, urish hodisasining nechog'li zararli ekanligi bois, mukaddas kitobimiz bo'lgan Qur'oni-Karimda ham zo'ravonlik qilmaslik, insonni o'z yaqinlariga va ayniqsa xotinlarga zinhor-bazinhor qo'l ko'tarmaslik zarurligi, to'g'risida alohida kayd etiladi. (Qur'oni Karim, G'oshiya surasi, 22-oyat).

Xalqimiz tarixidan ulug' va qudratli saltanatlarining asosan ichki omillarga ko'ra, oilaviy tarbiya muammolari, otalar va bolalar, akalar va ukalar, opalar va aka-ukalar o'rtasidagi mehrsizlik, o'zaro nifoqlar, yakdillik ruhining sustligi sababli zavol topganligini bilamiz. Taassufki, ayni shu sabablarga ko'ra Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar boshqa davlatlar inqirozga yuz tutgan edi. Shu boisdan ham yurtboshimiz mamlakatdagi umumiy barqarorlik biri-biriga bog'liq va tizimiy xususiyatga ega ekanligini ta'kidlab, "agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahalla tinch va hamjihat, agar mahalla mustahkam bo'lsa davlat osoyishta va barqaror bo'ladi" deb ta'kidlagan edilar. (I.A. Karimov. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag'ishlangan majlisdagi tabrik so'zidan, 1997 yil 5 dekabr).

Oila barqarorligi va vatan salohiyatini oshirishda ona omilining roli beqiyosdir. Darhaqiqat, ona mukaddas va cheksiz e'zoz-ehtiromga munosib zotdir. Xalqimiz onaga bo'lgan cheksiz hurmati, samimiy muhabbati borasida ko'pgina xalqlarga namuna bo'larli an'ana va odatlar, marosimlar tizimiga ega. Mushtipar onalarimiz farzandni hayotga keltirganidan so'ng, to o'z vafotiga qadar faqat jigarbandi taqdirini o'ylab, unga omonlik, tinchlik, rizq-ro'z, baraka tilab yashab o'tadi. Onalarning farzandlariga yaxshilik tilab, Yaratgandan panoh so'rashi, o'zi emay bolasiga beruvchilik, o'zi kiymay kiydirishi, o'zi ko'rmay o'tsa-da bolasi ko'rishiga orzumandligi ayni haqiqat va chuqur ta'zim, tahsinga sazovordir.

Ammo, bugun kun sur'atlari, shiddatkor zamon uchun farzandlarning faqat miqdoran ko'p bo'lishi, ularning sog'-omon yurishini ta'minlashning o'zigina etarli bo'lmay qoldi. Zamona shu shiddatkor sur'atlarga xos va mos yuksak ma'rifatli, bunyodkor, tinib-tinchimas avlodni tayyorlashni talab etmoqda. Bu esa davlat va jamiyat zimmasiga, eng avvalo oilaga, ona omiliga ko'p narsalarni bog'liq qilib qo'ymoqda. Onaning maqsadlari, turmush tarzi, hayot mantig'i mazmunida davr ruhiga mos bo'lgan tamoyillar ya'ni, farzandlarga ta'lim, tarbiya berishni tubdan yaxshilash, ularga yondashuv uslublarini o'zgartirish zarurligini kun tartibiga qo'ymoqda. Bu borada bugungi holat manzarasi o'zbek oilalarida turli daraja va ko'rinishlarda bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir.

Farzandlarini aniq maqsadlarni ko'zlab turli vositalar ko'magida hayotga faol tayyorlavchilar toifasi. Bu toifaga mansub oilalarda ona barcha o'zgarishlarning uyg'unlashtiruvchi va yo'naltiruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Farzandlar o'z vaqtida, aniq belgilangan reja va rejim asosida maktabda o'qiydilar yoki universitetlarda tanlagan ixtisosliklarini puxta o'zlashtirish ishlari bilan band bo'ladilar. Rejaviy ta'lim qo'shimcha bilim olishlar usuli (repetitsiya, to'garaklar, uyushmalar) bilan muntazam ravishda uyg'unlashtiriladi. Ta'lim olish holati va mutaxassislikni egallash muammolari oila muhitida muhokama etib boriladi, uyda dars tayyorlash qat'iy tarzda muntazam amalga oshiriladi. Urf-odat va an'analarga me'yor doirasida ratsional amal qilinadi.

Oila muhitida tarbiya, odob-axloq masalalariga ta'lim ishlaridan ko'ra ustunroq ahamiyat beruvchilar toifasi. Bunday toifa vakillari oilaviy muhitda tinchlik, osoyishtalik, o'zaro hurmat saqlanishi, mahalla-yurtda mavqe-e'tiborda bo'lish, an'ana va urf-odatlarga qat'iy amal qilish, uydagi gap ko'chaga chiqmasligiga jiddiy ahamiyat qaratib yashaydilar. Bunday oilalar farzandlarning ertangi kuni, ularni faol va bunyodkor shaxs sifatida hayotga tayyorlashning aniq rejalariga ega bo'lmasalarda, o'z bolalarini jamiyatga bezarar qilib o'sishidan ogoh bo'lib yashaydilar.

Oilada ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda masofa mavjud bo'lgan toifa. Mazkur toifaga mansub oilalarda ota va ona farzandlari tarbiyasi va ta'lim olish saviyasi uchun maktablar mas'ul va majbur hisoblaydilar. Maktablar va boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlik

qilmaydilar, ota-onalar majlislariga kelmaydilar. Farzandlarining ahloqiy va ma'rifiy holatlarini nazorat qilmaydilar. Bunday oilalarda har kim asosan o'zi uchun yashaydi.

Respublikamizdagi huquq tartibot idoralari ma'lumotlariga ko'ra, voyaga etmagan yoshlar o'rtasidagi tartibbuzarlik, jinoyatchilik ko'chasiga kirib qolish holatlarining o'ndan to'qqiz qismi ayni shunday toifadagi oilalar muhitida yuzaga chiqmoqda.

Mazkur tasnifga ko'ra, birinchi toifaga mansub oilalar miqdorining bugungi kun talablari darajasida faol ortib borishini ta'minlash o'ta muhimdir.

Oila muhitida ota va onalarning farzandlar taqdiri uchun favqulodda mas'ulligi masalasi rivojlangan barcha mamlakatlarda doimiy ravishda kun tartibida turadi. Xususan, Yaponiyada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, o'zaro tanish ayollarning bir-birlari bilan uchrashib, o'tkazadigan suhbat, muloqotlari majmuida o'ttiz foizgacha vaqt o'z farzandlarining o'qish va ishlaridagi ahvoli, yigirma foiz vaqt shaxsiy takomillashuv, ya'ni, o'zlashtirgan yangi kasb-korlari, o'qigan kitoblari, ko'rgan filmlari haqida va faqat yigirma foizgacha vaqt tanish-bilishlarning maishiy holati, kayfiyatlari, sog'ligi, turmush o'rtog'ining muammolari masalalari band etar ekan.

Taqqoslash uchun O'zbekiston ayollari o'rtasida Toshkent davlat Madaniyat instituti "Sotsiologiya" kafedrasida olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda esa ziyoli ayollar orasida 10 foiz, tijoratchilar o'rtasida 5-7 foiz, qishloq ayollari orasida 3-5 foizgina vaqt farzandlarning ta'lim borasidagi o'zlashtirishlari ahvoliga ajratilar ekan. Ayni chog'da, ayolarimiz suhbatlari majmuida 40 – 50 foizgacha vaqt maishiy hayot tashvishlari, qo'shnilar muammolari, dugona va tanish-bilishlar taqdiri singari masalalar tahliliga bag'ishlanishi aniqlandi.

Bir qarashda uncha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli tuyulmaydigan mazkur qiyosiy tahlil onalarning o'z farzandlari tarbiyasi, ularni katta hayotga maqsadli tayyorlab borish ishlaridagi o'rnini, pirovard natijada esa mamlakatning umumiy taraqqiyoti holatiga bo'lgan bevosita hamda bilvosita ta'sirini belgilab beradi.

Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda oila institutiga katta ijtimoiy ahamiyat berib kelinmoqda. Uning isboti sifatida mamlakatimizda an'anaga aylangan har bir yilga asosiy diqqat-e'tibor qaratilayotganligi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shuningdek, "Oila yili" deb e'lon qilinishi mazkur masalaga bevosita va "Sog'lom avlod", "Onalar va bolalar", "Obod mahalla" yillari mobaynida esa bilvosita tarzda doimiy e'tibor qaratib qelinmoqda. Ayniqsa, 2004 yilning «Mehr-muruvvat» yili deb e'lon qilinishi oilaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnining ortib borayotganligining yana bir isbotidir.

11 – mavzu. Demokratik jamiyat qurishda mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini-o'zini boshqarish organlarining roli.

REJA:

- 1.O'zini o'zi boshqarishning demokratik tamoyillari.
- 2.O'zini o'zi boshqarish organlari-fuqarolik jamiyatining asosi.
- 3.O'zini o'zi boshqarish huquqiy asoslarini demokratlashtirish jarayoni.

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda XX asring ikkinchi yarmidan boshlab davlat boshqaruvining nomarkazlashuvi natijasida o'zini o'zi boshqarish organlari jamiyatning asosiy institutlaridan biriga aylandi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish (g'arbda «munitsipal» deyiladi) deganda, u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklardagi aholi vakolatlarini ifodalovchi, shuningdek, saylangan organlar va ularning ma'muriyatlari tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarish tushuniladi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish demokratik tamoyillar asosidagi boshqaruvdir. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: mazkur organlarning fuqarolar tomonidan to'g'ridan to'g'ri saylanishi hamda mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan o'zini o'zi boshqaruvning nisbatan

mustaqilligidir. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari davlat boshqaruvining unsurlarini tashkil etadi. Shu bilan birga, ular joylardagi mahalliy davlat organlari tizimiga taalluqli bo'lmaydi.

G'arb jamiyatshunos olimlari mahalliy o'zini o'zi boshqarishga doir tushunchalarning nazariy jihatlarini ham ishlab chiqqanlar. Unga binoan, «mahalliy boshqaruv» deganda davlat boshqaruvidan quyidagi barcha darajalarni, «mahalliy hokimiyat» deganda esa «saylangan kengash va uning ijroiya organlari vositasida o'z saylovchilari manfaatlarini ifoda etuvchi va harakat qiluvchi tashkilotlar» tushuniladi. Shuningdek, «mahalliy o'zini o'zi boshqarish» esa «milliy boshqaruvdan quyi darajadagi demokratik avtonom birliklarning mahalliy aholi manfaatlari asosida jamoatchilik muammolarini aksariyat qismini muvofiqlashtirilishi va boshqarishi»dir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida o'zini o'zi boshqarish organlariga quyidagi huquqiy ta'rif berildi: "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi". Konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib, 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) Qonunning 1-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tushunchasi quyidagicha ta'riflandi: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi-fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir». Qo'rinib turibdiki, mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi tushunchasi va uning huquqiy maqomlari rivojlantirildi va ular ilg'or demokratik mamlakatlardagi huquqiy mezonlar darajasida ifodalana boshlandi.

Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida yildan-yilga takomillashib bormoqda. Shuningdek, mazkur organlarning boshqaruv tizimidagi ko'lamining kengayib borishi bilan huquqiy davlatning o'z vakolatlarini demokratik tamoyillar asosida amalga oshirishi uchun qulay va keng imkoniyatlar paydo bo'lmoqda.

«Mahalla» arabcha so'zdan kelib chiqib, "shahar ichidagi shahar" ma'nosini anglatadi. Tarixchi olim Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqning boshqaruvi ekanligini yozgan edi. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki, ma'muriy-hududiy tuzilma tarzida ham e'tirof etilgan. Alisher Navoiyning "Hayratul-abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi") asarida quyidagi band uchraydi: Shaharlar otini mahalot etib, Bo'ldi chu yuz shahar Hiri ot etib. Mahallaning "shahar ichidagi shaharcha" degan mazmuni yuqoridagi tashbehdan ko'rinib turibdiki, o'rta asrlarda Hiri deb atalgan Hirot shahri yuzta kichik "shaharcha"lar - mahallalardan tashkil topgan ekan.

Uzoq yillar mahalla tarixi va sotsiologiyasini tadqiq etgan amerikalik olim D.Karlayl quyidagilarni yozadi: "Oila va do'st-yoronlar mahalla turmushining bosh asosi bo'lib kelgan va shundayligicha qoladi. U shaxsiy munosabatlar tamal toshi sanaladi. Ular "sulola" deb ataluvchi, kishilarni birlashtiruvchi va ajratuvchi o'ta muhim tarmoq tuzilmasini yaratdi. Yaqinlik munosabatlariga asoslangan va nasl-nasab printsiplari bilan metinlashgan mahalla o'zbeklar dunyoga keladigan, tarbiyalanadigan va odatda o'zining butun hayotini o'tkazadigan joy hisoblanadi. Do'stlik barqaror tushuncha bo'lgan mahallada moyillik singdirilgan bo'ladi. Hamma mahalla tevaragida parvona bo'lar, shaxsiy sadoqat butun shahar bo'ylab tarqalar, ba'zan esa butun boshli mintaqani qamrab olar edi. Bunday an'anaparastlik sharoitida kimningdir tajribasi shaxsiy muloqotlar doirasi tasarrufidan tashqariga ham zudlik bilan tarqalib ketadi. Shaxs har qanday masofadan turib sulola a'zolarining nikoh tantanalari, marosimlarida qatnashishi mumkin. Rang-barang oilaviy-qarindoshchilik aloqalarining mahalladan tashqarida ham kundalik turmushda toshi bor, lekin ular mahallaniki singari tosh bosa olmaydi.

Sobiq SSSR davrida mahallaning mazmuni va vazifalari butunlay izdan chiqqan edi. Bu davrda mahallalar o'zining huquqiy maqomini yo'qotdilar. Ularning asosiy faoliyati sobiq kommunistik partiyaning mahalliy tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashdan, shuningdek, mahalliy an'ana va urf-

odatlar, odob-ahloq me'yorlarini tashviqot-targ'ibot qilish, oilalardagi marosimlar va boshqa tadbirlarni o'tkazishda kommunistik partiyaning "ko'z va qulog'i" bo'lib turish kabilardan iborat bo'lib keldi. Bu davrda qadimdan ma'naviyat, ta'lim va tarbiya masalalarini hal etib kelgan mahallalarning o'rni deyarli yo'qqa chiqarildi.

Mustaqillik davriga kelib fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi. O'zbekistonda mahallalar milliy mustaqillik davriga kelibgina, o'zini o'zi boshqarish organiga aylandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi mahalla maqomini fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatda shaharcha, poselka, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldilar. Jumladan, mustaqillik davrida mamlakatda 10 mingga yaqin o'zini o'zi boshqarish organlari shakllangan bo'lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi. Mahalla mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'zining qadimgi nomlarini va xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborlarini qaytadan tiklab oldilar.

Mustaqillik yillarida mahalla tarixiy va rivojlangan mamlakatlardagi tushunchada aniq belgilangan ijtimoiy-demografik, madaniy-ma'naviy va hududiy-ma'muriy birlik sifatidagi maqomga erishdi. U o'z hududidagi fuqarolar o'rtasida an'analar va urf-odatlar, insoniy, xo'jalik, huquqiy munosabatlar birligini tashkil etgani holda fuqarolarning o'zaro ijtimoiy munosabatlarini bog'lab turish vositasiga aylandi.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab Prezident I.A.Karimov mahallalarni fuqarolik jamiyatining asosi deb, bildi va ularni har tomonlama rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirib kelmoqda. Prezident I.A.Karimov 1995 yildayoq shunday fikrni bildirgan edi: "Ma'lumki, asrlar mobaynida mahallalarda ko'pdan-ko'p hayotiy muammolar o'z echimini topib keladi. To'y-ma'rakalar ham, hayitu hasharlar ham mahalla ahlisiz o'tmaydi. Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, otabobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o'zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko'p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi lozim".

Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rnini ko'tarishning muhim bosqichini boshlashning asosiy yo'nalishi bo'lgan quyidagi fikrni bildirdi: «Hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li - markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir»¹. Albatta, davlat tomonidan mahallalarga katta boshqaruv vakolatlarini berishda avvalo, ularning aholi faolligini oshirishdagi o'rnini yuksaltirish ko'zda tutildi. Chunki, mahalla fuqarolar yig'inlarida etarlicha huquq bo'lmasa, ular o'zini o'zi boshqarish funktsiyalarini bajarish qobiliyatiga ega bo'la olmas edilar. Shuningdek, mahallalarning aholi va davlat oldida mas'uliyat sezishlari uchun ham avvalo keng huquqlarga ega bo'lishlari lozim edi.

Hozirgi davrda jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish maqsadlaridan kelib chiqib, mahalla fuqarolar yig'inlariga boshqaruvning turli yo'nalishlariga etakchilik qilish vakolatlari berildi. Mahallalar o'z hududida yashayotgan fuqarolarning turli ijtimoiy muammolarini hal qilib berishda bevosita ishtirok etadilar: qariyalar, faxriylar, etimlar, baynalmilal-harbiylar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar manfaatlari himoya qilinadi; mahalla faollarining mazkur faoliyatda ishtirok etishiga boshchilik qiladi; insonni ma'naviy yuksalishi va amaliy tashabbuslarini namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi; fuqarolar moddiy va ma'naviy jihatlardan qo'llab-quvvatlanadi.

Mahalla fuqarolar yig'ini ijtimoiy ta'minot organlari va boshqa homiy tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy yordam, kam ta'minlangan oilalar va yolg'iz kishilarga beg'araz moddiy yordam ajratish ishining barcha tashkiliy jihatlarini o'zi mustaqil ravishda bajaradi. Shu bilan birga,

¹ Каримов И.А. Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. II. –Т.: Ўзбекистон, 2003. 29-б.

mahallalar o'z hududlarida ekologik muammolarni echish va aholi moddiy ahvolini yaxshilash, hashar yo'li bilan ko'kalamzorlashtirish, tozalash ishlariga jalb qilish, mahalliy aholi o'rtasida atrof-muhitni asrash yuzasidan tushuntirish va tarbiyaviy ishlar olib borishga ham mas'uldir. Albatta, bu kabi faoliyatlar fuqarolar faolligini oshirish vositasida amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ko'plab qonunlar loyihalari, Konstitutsiyaga kiritiladigan qo'shimcha va o'zgarishlarni o'zida ifodalagan umumxalq referendumlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish avvalo mahalla ahli va faollari tomonidan muhokama qilinmoqda va qo'llab-quvvatlanmoqda. Boshqacha aytganda, mahallalar siyosiy qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini faollashtirishning muhim vositasi ekanligini hayotning o'zi isbotlab berdi. Mamlakat siyosiy hayotida fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini ta'minlab beruvchi asosiy bo'g'in - bu mahalla fuqarolar yig'inlaridir. Shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan birdan-bir boshqaruv tizimi ham mahalla fuqarolar yig'inlaridir.

Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasi, uning viloyat, shahar, tuman bo'limlari bilan hokimliklar hamkorligida har yili «Eng yaxshi mahalla», «Eng ibratli oqsoqol», «Mahalla jonkuyari», «Eng tadbirkor mahalla oqsoqoli» shiori ostida muttasil ko'rik-tanlovlar o'tkazib kelindi. Ko'rik-tanlovlar g'oliblari har yili obro'li komissiyalar tomonidan maxsus nishonlar, qimmatli esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar. Mazkur tadbirlar mahallalarni obodonlashtirish, ozoda saqlash, ayniqsa yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillik davrida mahallalar fuqarolar yig'inlari oqsoqollari, «Mahalla» jamg'armasi va uning mahalliy tashkilotlari rahbarlarining sifat tarkibi yaxshilanib bordi.

Huquqiy demokratik davlatda saylov qonunlari va uni o'tkazish muhim o'rinni egallaydi. Buning yorqin isbotini «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish» organlariga saylov o'tkazish ham istisno emas. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 2001 yil 12 apreldagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylov o'tkazishni tashkil etish to'g'risida»gi qarorida tashkilotchilik qobiliyatiga hamda aholi o'rtasida yuqori obro'-e'tibor va hurmatga sazovar bo'lgan, davlat hokimiyati organlari vakolatlarining bir qismi bosqichma-bosqich fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga berilishi munosabati bilan, ushbu organlar oldida turgan vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan shaxslar orasidan fuqarolar yig'inlari rais va oqsoqollari va ularning maslahatchilari lavozimlariga nomzodlar tanlash maqsadi qo'yildi.

Saylov kampaniyalari davridagi tashkiliy ishlar va amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar ijtimoiy-siyosiy va tashkiliy jihatdan yuksak saviyada va fuqarolarning ijtimoiy faolligi o'sgan holda amalga oshdi.

Fuqarolar yig'inlarida saylovlar bilan bir vaqtda fuqarolar yig'inlari raislari va oqsoqollarining oldingi saylovdan boshlab o'tgan davr mobaynida qilgan ishlari to'g'risidagi hisobotlari eshitildi. Fuqarolar yig'inlari faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining olib bogan ishlari atroflicha va chuqur tahlil etildi. Qonunlar, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlarini amaliy jihatdan ro'yobga chiqarishda mahallalarning mahalliy davlat hokimiyati organlariga bergan yordamlariga muhim e'tibor berildi.

Mahalla fuqarolar yig'inlaridagi oqsoqollar saylovi millionlab fuqarolarni befarq qoldirmadi. Barcha saylovchilarda faol ishtirok, o'z nuqtai nazarini ifoda etishga intilishlar ochiq sezilib turdi.

O'zini o'zi boshqarish organlariga bo'lgan saylovlar natijasi shuni ko'rsatdiki, bu saylovlar aholining keng qatlamlari uchun ijtimoiy-siyosiy faollik bag'ishladi va o'ziga xos demokratiya maktabi vazifasini ham o'tadi.

Mustaqillik davrida o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida isloh etish o'zining samaralarini berdi. Mahallalar mamlakatdagi aholini o'zini o'zi boshqarish jarayonlarida ishtirok etishlari, qarorlar qabul qilishda fuqarolar xohish va istaklarini e'tiborga olishga imkoniyatlar yaratishi bilan fuqarolik jamiyati institutiga aylanib bormoqda. Shuningdek, hozirgi davrga kelib davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy himoyaga muxtoj oilalarni belgilash kabi vakolatlari ham deyarli mahallalarga berilgan.

Shu bilan birga, mahallalardagi tinch va osoyishta hayotni ta'minlash, oilalarni mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rish, etimlar va yolg'iz qolgan fuqarolarga mehr-muruvvat ko'rsatish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishga doir intilishlarini qondirish kabi serqirra jamoaviy boshqaruv

ham mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishini tashkil etmoqda. Lekin, shu bilan birga o'zini o'zi boshqarish organlarini demokratlashtirish jarayonlari hali davom etadi. Ayniqsa, aholi huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, siyosiy qarorlar qabul qilishda mahallalarning o'rnini yuksaltirish, mahallalarni mahalliy davlat hokimiyati organlaridan to'la mustaqil bo'lishini ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlar yaratish, fuqarolarni mahallalar vositasida qonunlar ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlaridagi umumxalq muhokamalarida faol ishtirok etishlarini ta'minlash yaqin istiqboldagi islohotlarning asosiy vazifasidir.

Mustaqillik davriga kelib fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga oshirildi. O'zbekistonda mahallalar milliy mustaqillik davriga kelibgina, o'zini o'zi boshqarish organiga aylandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi mahalla maqomini fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatda shaharcha, posyolka, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldilar. Jumladan, mustaqillik davrida mamlakatda 9971 ta o'zini o'zi boshqarish organlari shakllangan bo'lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi. Mahalla mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'zining qadimgi nomlarini va xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborlarini qaytadan tiklab oldilar.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini isloh etish, uni demokratlashtirish, rivojlangan mamlakatlar va xalqaro huquq normalariga muvofiq holda ularning huquqiy asoslarini rivojlantirilishi bu organlarni fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlanishini to'liq ravishda ta'minlay oladi. Bu jarayonlar mamlakatda «O'zbek modeli» asosida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning tarkibiy qismlaridan biri sifatida o'zini namoyon qila boshladi. Bu sohadagi islohotlar «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini hayotda o'z aksini topayotganligini anglatadi.

12 – mavzu. Demokratik jamiyat barpo etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining o'рни.

REJA:

1. Demokratik jamiyat barpo etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va birlashmalarining asosiy vazifalari.
2. O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va birlashmalarining ahamiyati.
3. Demokratik jamiyat barpo etishda jamoat tashkilotlari va birlashmalarining roli.

Nodavlat notijorat tashkilotlar dastlab jamiyatni o'zini o'zi boshqarishi va uni mustaqil ijtimoiy birlik sifatida yashashini ta'minlash ehtiyojlari va manfaatlari asosida paydo bo'ldi. XX asr o'rtalariga kelib esa nodavlat va notijorat tashkilotlar demokratik jamiyatning muhim va asosiy institutlaridan biriga aylandi. Shunga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotlar mazmun va mohiyatini chuqur anglash, ularning demokratik fuqarolik jamiyatining muhim va asosiy institutlaridan biri ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni o'rganishga ehtiyoj sezilmoqda. Shuningdek, demokratik jamiyat tushunchasi to'g'risidagi tasavvurlar nodavlat notijorat tashkilotlarni chuqur idrok etishga imkoniyatlar beradi.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasi (2002 yil 29-30 avgust) mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishni avj oldirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Sessiyadagi mamlakat Prezidenti

I.A.Karimov «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari»ga doir ma'ruzasi adolatli demokratik jamiyat qurishning kontseptual nazariy asoslarini yanada boyitdi. Ayniqsa, Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikr va mulohazalari mamlakatda fuqarolik jamiyati barpo etishning eng asosiy yo'nalishlari va maqsadlarini belgilab berdi: «Beshinchi ustuvor yo'nalish fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo'lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Yoki boshqacha qilib aytganda, bu - «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim»¹.

Mamlakatda XX asr boshlarida «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» kontseptual siyosiy dasturni amalga oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, markaziy davlat organlarining ayrim vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati, o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich berib borish asosida jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlari boshlandi. Bu sohada quyidagi yo'nalishlarda islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda:

- birinchidan, jamiyat a'zolarining ongi, irodasi, madaniyati, ma'naviyati va bilimi yuksak darajada bo'lishiga erishish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatiga alohida e'tibor berish;

- ikkinchidan, jamiyat a'zolarining manfaatlarini uyg'unlashuvi jarayonlarini shakllantirish, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan mushtarakligiga erishish;

- uchinchidan, jamiyatning takomillashuvi va yangilanishi uchun kuchli va real siyosiy, iqtisodiy, madaniy imkoniyatlarni shakllantirish;

- to'rtinchidan, jamiyat a'zolari va tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik asosida jamiyatning umumiy manfaatlarini uyg'unlashtirish;

- beshinchidan, jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalar ta'sirini kuchaytirish, ularga ongli ravishda bo'ysunish amaliyotini vujudga keltirish;

- oltinchidan, siyosiy hokimiyatning o'z vazifalarini to'liq bajarishiga kengroq va qulayroq imkoniyatlar yaratish, siyosiy hokimiyatga nisbatan jamiyat a'zolari ishonchini kuchaytirish, uning aholi tomonidan keng va faol qo'llab-quvatlanishiga erishish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatda kuchli demokratik jamiyat barpo etish maqsadlarida davlat hokimiyati vakolatlarini kamaytirish, ya'ni, davlat hokimiyati tasarrufida asosan konstitutsion tuzumni, mamlakatning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini, mulk egalari huquqlarini, iqtisodiy faoliyat erkinligini himoya qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, samarali tashqi siyosat olib borish kabi vazifalarni qoldirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, strategik ahamiyatga molik masalalar, muhim iqtisodiy va xo'jalik masalalari, pul va valyuta muomalasi bo'yicha qarorlar qabul qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish, ekologiya masalalari, umumrespublika transport va muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish masalalari davlat miqyosida hal etilishi, davlatning boshqa barcha vazifalarni bajarishga doir vakolatlari esa mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlariga berib borish jarayonlari boshlandi. Shuningdek, davlat organlari faoliyatini nazorat qilish vakolatlari ham asosan o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga berish belgilandi.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilingan dastlabki yillardan boshlab, mamlakat Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi hukumat fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat kurish

¹ Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари.. «Халқ сўзи», 2002, 30 август.

maqsadlaridan kelib chiqib, nodavlat notijorat tashkilotlarni demokratik tamoyillar asosida isloh etishga muhim e'tibor berib kelmoqda.

“-qonun ustuvorligini, hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tarmoqlari o'rtasida muvozanatni, ulardan har birining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash;

-xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan printsiplari va normalari asosida inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini ta'minlash;

-siyosiy hayotning, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini izchil erkinlashtirish;

-nodavlat notijorat, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa demokratik institutlari yanada mustahkamlanishi hamda rivojlantirilishi uchun kafolat va sharoitlarni ta'minlash;

-fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini har tomonlama mustahkamlash va davlat hokimiyati markaziy organlarining vakolatlarini joylardagi boshqaruv organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ijro etuvchi hokimiyat organlari, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlikni ta'minlovchi tuzilmalar faoliyati ustidan jamoat nazorati mexanizmini shakllantirish va kuchaytirish”.

Mustaqillik davrida mamlakatda demokratik jamiyat qurishning huquqiy asoslari yaratildi. Konstitutsiyaning g'oyalari, maqsadlari, ruhi, uning har bir qoidasi BMTning «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi», asrlar mobaynida ilg'or va etakchi mamlakatlarda shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan iëëëë va sharqona davlat va jamiyatni adolatli idora etish, mamlakatni boshqarishda xalqning ham bevosita ishtirok etishi an'analarini o'zida mujassamlashtirdi.

Milliy mustaqillikning dastlabki davridayoq mamlakatda fuqarolik jamiyati qurish va uning muhim institutlari bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarning erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Konstitutsiyaning alohida «*Jamoat birlashmalari*» bobi respublikada fuqarolik jamiyati va ko'p partiyaviylik tizimini qaror toptirish uchun ham huquqiy, ham amaliy jihatlardan shart-sharoitlar yaratdi. Unga binoan jamoat birlashmasi, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar kabi tushunchalarga huquqiy aniqliklar kiritiladi. Endi ular demokratik talqinlar asosida ta'riflana boshlandi. Ayniqsa, Konstitutsiyaning 58-moddasidagi “*Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi*”¹, 34-moddasidagi “O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas”, degan fuqarolik jamiyat mustaqilligini ta'minlashga doir huquqiy printsipti e'tirof etilishi respublikadagi jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynida tajribalaridan va sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini bildiradi. O'zbekistonda saylov tizimi uchun Konstitutsiyaning “**Saylov tizimi**” bobidagi 117-moddaga binoan respublika «fuqarolari erkin ravishda vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar»².

Hozirgi davrga kelib O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonuni (1991yil fevralda qabul qilingan, 1997 y. aprelda esa qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilgan), O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni (1992 y., iyul), O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonuni (1996 y., dekabr), O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonuni (1999 y., aprel), O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2000,16-бет.

² Ўша манба, 35-бет.

to'g'risida»gi Qonuni (1999 y., aprel), O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonuni (1998 y., may) kabilar bilan muvofiqlashadi.

Oliy Majlis tomonidan 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan «Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida»gi qonunga binoan «Nodavlat notijorat tashkiloti - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi kilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foyda) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi»³.

Shuningdek, O'zbekistondagi amaldagi qonunchilikka binoan nodavlat notijorat tashkilotlarga quyidagi huquqlar berilgan:

- o'z a'zolari va qatnashchilarining huquqlari va konuniy manfaatlarini himoya qilish;
- ijtimoiy xayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining karorlarini ishlab chikishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;
- o'z faoliyati to'g'risida axborot tarqatish;
- ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;
- ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;
- o'z ramziy belgilarini ta'sis etish;
- o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig'ilishlar, konferentsiyalar o'tkazish;
- qonun hujjatlariga muvofiq vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish.

Demokratik jamiyat qurishga doir Islohotlarni chuqurlashtirishning yana bir yo'nalishi, bu siyosiy partiyalarning mustaqil tashkilot sifatidagi maqomini yuqori ko'tarishdir. 2004 yil dekabrda bo'ladigan saylovlarda siyosiy partiyalarga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar ko'rsatishning to'la huquqlari berilishi, xalq deputatlari kengashlari - vakillik organlaridan esa bu kabi huquqning olib qo'yilishi partiyalarning jamiyatda tutgan o'rnini yanada yuksak ko'tarishga qaratilgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan siyosiy partiyalarning demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan barcha huquqiy asoslar Konstitutsiya va qonunlarda o'z ifodasini topdi. Jumladan, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunda siyosiy partiyalarni tuzish, ularning faoliyat ko'rsatish printsiplari, partiya a'zolik, siyosiy partiya faoliyatining kafolatlari, ustavi, ro'yxatga olish, partiyalarning mulkiy munosabatlariga doir barcha huquqiy maqomlarning mujassamlashgani O'zbekistonda ko'p partiyaviylik tizimini qaror toptirishning kafolatlaridan biriga aylandi. Mazkur qonunlarga binoan siyosiy partiylar fuqarolarning e'tiraf etilishi irodalari shakllanishini ta'minlash uchun erkinlik huquqiga ega bo'ldilar, partiylarning o'zaro huquqiy tengligi, shuningdek, ularning jamiyat oldidagi mas'uliyati qonunlashtirildi.

Hozirgi davrga kelib O'zbekistonda 4 ta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda. Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, o'tgan asrning 90-yillari o'rtasida O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi hamda 2003 yilning 17 noyabrida esa mulkdorlar va o'rta ijtimoiy qatlam siyosiy qarashlari ifodasi sifatida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi tashkil topdi. Hozirgi kunda Oliy Majlisda mazkur partiyalarning fraktsiyalari, mamlakatimizning qonun chiqarish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida O'zbekiston «Mahalla» xayriya jamg'armasi tashkil topdi. O'tgan davr ichida «Sog'lom avlod uchun» xalqaro nohukumat xayriya jamg'armasi, «Ekosan»

³ «Нодавлат нотижорат ташкилотлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг қонунига шарҳлар. –Т.: 2002, 14-бет.

xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasi, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi, Xalqaro Amir Temur jamg'armasi, Xalqaro Imom Buxoriy jamg'armasi, «Oltin meros» jamg'armasi, respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, «Xalq birligi» harakati, O'zbekiston faxriylarini qo'llab-quvvatlash «Nuroni» jamg'armasi, O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi (hozirda O'zbekiston jurnalistika ijodiy uyushmasi), O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakati, Jamoatchilik fikrini o'rganish «Ijtimoiy fikr» markazi, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasi, Milliy matbuot markazi, Baynalmilal madaniy markaz, respublika «Ustoz» jamg'armasi (hozirda «Iste'dod») kabi nodavlat tashkilotlari tuzildi. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi demokratik printsiplar asosida butunlay qaytadan tashkil etildi. Shu bilan birga, «O'zbekiston tadbirkor ayollar uyushmasi», «Ayol va salomatlik», ayollarning «Mehri» tashkiloti, «Ayollar resurs markazi», «Ayol va jamiyat» instituti kabi xotin-qizlar muammolarini echish va ular manfaatlarini ifodalaydigan nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda.

13– mavzu. Demokratik jamiyat qurishda kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari.

REJA:

1. Sharqda ijtimoiy adolat to'g'risidagi g'oyalarning shakllanishi.
2. Mustaqillik davrida adolat tushunchasining yangi mazmuni.
3. Ijtimoiy himoya g'oyasining adolat va demokratiya tamoyillari bilan bog'liqligi.

1. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijalaridan biri ijtimoiy himoya siyosatining demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rnini va ahamiyatining ortib borishi bilan belgilanmoqda. «Bugungi kunda ijtimoiy hayot soxasidagi salbiy holatlarni bartaraf etib, odamlar turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymasdan, axolining ximoyaga muxtoj qatlam va ijtimoiy muxofazasini taminlagan xolda, O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va fukarolar totuvliginn saqlab qolishga muvaffaq bo'ldik.» Darxaqiqat, bozor munosabatlariga o'tish davrida mamlakatimizda kuchli ijtimoiy ximoya tizimi shakllantirildi va Hozirda uni takomillashtirish muxim masala bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatdan yangi bosqichga o'tish extiyoji paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan axolini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy tizimi shakllantirilmoqda.

«Adolat» tushunchasining qolib chiqishi (sotsiogenezi) to'g'risidagi ta'limotni buyuk ajdodimiz Abu Nacp Forobiy ham yaratishga uringan. Buyuk mutafakkir adolat g'oyasini jamiyatning asosiy davrlariga tatbiqan qarab chiqqan. Bunda u insoniyat jamiyatining kelib chikishida tabiiy extiyojlar yotishini, bu extiyojlarni uyg'unlashtirish esa adolat tuyg'usini shakllantirishini ta'kidlagan edi. Sharq mutafakkiri Konfutsiyning g'oyalarini davom ettirgan holda Forobiy «adolat» tushunchasi insoniyatning ma'rifiy davriga to'g'ri kelganligini ta'kidlaydi. Bu davrda xususiy mulk o'rnatiladi va u kishilarning o'zaro tengsizligini keltirib chiqaradi. Shunisi muximki, teng taqsimlashni ifodalagan adolat tushunchasi endi mulk ta'snrida tengsnzlikni ifoda eta boshladn. Bu tushunchaning o'zi xycyciy mulkni o'rnatishda ishtirok etadi.

Demak, adolat to'g'risidagi tasavvurlar insoniyatning oddiy egalitarizm, ya'ni barcha baravar bo'lgan xoldagi darajasidan yuqori ko'tarila borishi natijasida yanada to'laroq shakllana borgan. Tenglashtiruvchi qoida bo'lgan, zo'rlikni aks zo'rlik bilai muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida da'volar tengligini o'rnatib kelgan «adolat» tushunchasi xycyciy mulkka asoslangan jamiyatda yangicha mazmun kasb eta boshlagan. Endi jamiyat ijtimoiy munosabatlarni muvozanatga keltirishning yangi tizimiga muhtojlik seza boshladi. Yuz bergan ulkan ijtimoiy o'zgarishlar kishilar ongida, dunyoqarashida, siyosiy huquqiy fikrda, axloqiy normalarda ijtimoiy adolat g'oyasining uzil-kesil shakllanishiga olib kelgan. Bu haqda Sharqning boshqa bir mutafakkiri — Abu Ali ibi Sino kiziqarli fikrlarni bayon qilgan. Uning fikricha, o'zaro bog'liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini kandaydir muhtojlikdan xoli etadilar. Buning uchun insonlar

o'rtasida o'zaro kelishuv zarur bulib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi.

Ijtimoiy hayotda adolatparvarlikni kat'iy turib himoya qilgan ta'limotlardan biri tasavvuf falsafasidir. Tasavviuf namoyondalari boshqa Sharq mutafakkirlari singari o'z umidlarini ma'rifatli va odil shohga bog'laydilar, u orqali barcha ijtimoiy illatlarni bartaraf etish mumkin, deb hisoblaydilar.

Tasavvuf namoyondalari hokim va xalq, shoh va saltanat munosabatlarida donolik bilan adolatli ish tutish, davlatni adolatli qonunlar orqali boshqarish, qabul kilinayotgan tadbirlarning xalq tomonidan qo'llanishi kabi ijtimoiy muammolarni ko'taradi, bu xalqparvar tuzum ideallarini ulug'lashtirdi.

Tasavvufning ko'pgina namoyondalari shoxlar, xokimlar, amaldorlardan adolatni kutib o'tirmay, O'z amaliy faoliyatlarida unga amal qilish bilan o'rnak bo'lganlar. Xasan Basriy, Abdulla Ansoriy, Abdulkasan Haraqoniy, Baxouddin Naqshband, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xo'ja Axror Valiy, Maxdumi A'zam Kosoniy kupincha shoh va xokimlar adolatsizliklariga qarshi chiqib, mazlumlarni dadil ximoya qilganlar, xaqiqat uchun kurashganlar

Sharq mutafakkirlari adolatni asoslashda lirik-ruhiy, manaviy-axloqiy jihatdan yondashganlar. Zero, sharqona jamiyatlarda azaldan adolat tushunchasiga hamoxapq tarzda «xaq», «me'yor». «haqiqat». «burch» tushunchalari ham qadrlanib kelingan. Shuningdek, jamoa manfaati, oiladan tartib-intizom. e'tiqod va manaviylik yuqori baxolangan.

G'arb mutafakkirlari esa ko'proq xukukni, amaliy, koidalpk hayot muammolari nuqtai nazaridan fikr yuritadilar. Shuning uchun ham Sharqdagidan ancha farqli tarzda «erkinlik», «teng huquqlilik», «erk» gushuichalariga ko'proq darajada ahamiyat berilgan. Shu bilan birga individualizm. individning tartib-intizomi, huquq adolatga olib boruvchi vositalar sifatida qadrlanadi, ma'naviylikdan ham ko'ra ratsionalizm mustaxkam o'ringa ega bo'lgan.

2. Prezident I.A. Karimov takidlaganidek, biz shunchaki demokratik davlat emas, balki adolatli demokratik davlat qurishga intilyapmiz. Adolatga intilish — xalqimiz ma'naviy-ruhiy dunyosiga xos eng muxim xususiyat. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmida o'z aksini topishi kerak. Darhaqiqat, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishda adolat omili muxim o'rin tutadi. Shu ma'noda adolat tushunchasi, uning erkinlik, demokratiya va barqaror taraqqiyot g'oyalari bilan mushtarak jihatlari bugungi kunda ham zamonaviy mazmun kasb etmoqda.

Lekin tarixan oladigan bo'lsak, ijtimoiy adolat g'oyasi insoniyatning butun tarixi orqali o'tib kelgan. Shu bilan birga jamiyatni adolatli tashkil etish opzusi va uning hayotdagi xaqqoniy mavjudligi o'rtasida doimo ziddiyat bulib kelgan. Shunga qaramay uni «naqd qilib qo'yishga» yinish to'xtamagan. Shu nuqtai nazardan insoniyat tsivilizatsiyasining butun tarixi ijtimoiy adolatni kengaytirish tarixi hamdir. Albatta, Sharq va G'arb jamiyatlaridagi bu kabi qadriyatlar bir-biriga zid emas, ular o'zaro uyg'unlikda umuminsoniy qadriyat darajasida jamiyat hayotida ijtimoiy adolat koidalarining barqaror bo'lishiga xizmat qiladi. Illapq va G'arb an'analari asrlar davomida shakllanib kelgan bu kabi tushunchalar hamda qadriyatlarning mustaqillik davrida jamiyatimizda umuminsoniy g'oyalar sifatida qayta shakllanishi shu jihatdan katta ahamiyatga ega. Zero, bu jamiyatimizda insonparvarlik, birdamlik, inson erki hamda masuliyatni manfaatlar uyg'unligi, qonun ruhi va demokratiya qadriyatlari asosida amalga oshirishga, shu tariqa ijtimoiy adolatni mustaxkamlashga xizmat qiladi. Umuman, mustaqillik davrida odamlarini ongida ijtimoiy adolatning yangicha tushunchasi shakllanishi mamlakatimiz kelajagi va islohotlar muvaffaqiyat garoviga aylanmoqda. Adolatli jamiyat qurish haqidagi umuminsoniy orzular va karashlarni yangi jamiyat barpo etish manfaatlariga bo'ysundirish muhim amaliy masala bo'lib turibdi. Biz barpo etayotgan jamiyat insonparvar bo'lmog'i zarur. Bunda demokratik modellarni ko'r-ko'rona ko'chirib olmasdan, balki ilg'or demokratik jamiyatlar tajribasini tanqidiy o'rganish asosida fuqarolik jamiyatini qurish yahtiyojlariga xizmat qildirish talab etiladi.

Aholining yordamga eng muhtoj qatlami — bolalar, yolg'iz qariyalar, nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash ishlarini aniq mo'ljalli tarzda amalga oshirish zarur. Shu bois,

islohotlarning Hozirgi bosqichida ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoyalashning ta'sirchan mexanizmini shakllantirish davom ettirilmoqda. Muayyan moddny yordam aniq onlarga etib borishi, jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlariga mo'ljallangan tabaqalashtirilgan yordam bo'lishi va haqiqatan ham bunday yordamsiz kun kechirolmaydiganlarga borib tegishi lozimligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Hozirgi paytda aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga davlat tomonidan shunchaki moddiy yordam ko'rsatishgina emas, balki jamiyat a'zolarining aksariyat qismini ehtiyoj va manfaatlarini qondirish, ro'yobga chiqarishda avvalo, ularning o'z tashabbusi, intilishi va ma'suliyatini kuchaytirish asosidagi ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish vaqti etdi. Aynan shu ma'noda ijtimoiy sohada amal qilib qolayotgan ustuvor tamoyillar, xususan, qonun ustuvorligi, islohotlarni bosqichma-bosqich joriy etish, kuchli ijtimoiy siyosat kabi tamoyillar ijtimoiy himoya tiziminn rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Har qanday demokratik jamiyat ma'lum ma'noda ijtimoiy asoslarni birlamchi manba sifatida qabul qiladp. Ijtimoiy asoslari bo'lmagan jamiyat o'z taraqqiyotnda sobit bo'la olmaydi. Shu ma'noda, demokratik jamiyat taraqqiyoti uchun kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari muximdir.

Umumiy ma'noda ijtimoiy himoya demokratik huquqiy davlat tomonidan fuqarolar, turli jamoalarning huquqlarini ta'minlash bilan chetlanib qolmay, ulardan amalda foydalanishni kafolatlash, amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishni anglatadi. Ya'ni, insonlar davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qiladi, bu inson va uning qadr-qimmatiga hurmat deb baholanadi.

3.«Ijtimoiy himoya», «ijtimoiy adolat» tushunchalarining shakllanib borishni insoniyatning demokratik tafakkuri bilan bog'liqdir. Xususan, Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida ifodalangan fozil jamiyat g'oyasi bugungi kundagi demokratik jamiyat kontsepsiyasiga hamohangdir.

Forobiyning fozil jamiyat kontsepsiyasiga ko'ra, baxt-saodatga intiluvchi jamiyatda qonun ustuvor bo'lib, butun ijtimoiy hayot ana shu ustuvor tamoyil asosida tuziladi. Shu ma'noda, fozil jamiyatda, avvalo, erkinlik mavjud bo'ladi. Unda adolat, erkinlik va tenglik tushunchalari kun tartibida bo'lib, bu me'yorlar fozil jamiyatning asosi bo'ladi. Shu bilan birga, Forobiy fikrancha, jamiyat davlat bilan kuchlidir. U etuklashgani sayin o'z a'zolarini himoyaga ola boradi. Shuni ham alohida aytish kerakki, agar o'tmish mutafakkirlari ijtimoiy kafolatlanish uchun inson faolligi masalasini ilgari surgai bo'lsalar, Forobiy qarashlarida insonni ijtimoiy kafolatlashda jam'iyatning roli alohida uqtnrila boshlandi. Demak, jam'iyat ham insoniyat vositasi bo'lishiga ma'sul, degan g'oya ilgari surilgan.

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya muammolarni siyosat darajasiga ko'tarildi. Buning uchun esa dastavval qonunlar tizimni yaratildi, keskin tabaqalanishdan xoli bo'lgan mulkdorlar sinfi shakllantirila boshlandi, shu asosda iqtisodiy taraqqiyot inson manfaatlariga yo'naltirilayapti. Bir so'z bilan aytganda, «davlatning ijtimoiy tizimi bilai xalq ehtiyojlari o'rtasidagi jarlik» bartaraf etildi. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda insonning jamiyatdagi o'rnini anglashi, o'zini-o'zi tarbiyalay olishi va o'zini-o'zi taraqqiy ettira olishiga mas'uliyatning kuchayib borishi ijtimoiy himoya tizimini amaliy jihatdan mustahkamlashga ko'maklashishi zarur.

Demokratik jamiyatning mohiyati shundaki, adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Jamiyatda mulkiy jarayonlarning ob'ektiv o'zgarishi yuz berayotgan bir paytda jamiyatning keskin tabaqalashishiga, ya'ni oshib-toshib ketgan boyvacharu kambag'al kashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'yilmaydi. Shu manoda, ijtimoiy himoya, muhofazaga muxtojlarini davlat ximoyasiga olishdir. Shu bilan birga, ijtimoiy ximoya insonning jamiyatdagi munosib o'rnini belgilovchi va faolligining yuksalishini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichdan biriga aylanadi.

XXI asr boshlarida demokratik tamoyillarning ustuvor kelishi ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy himoya tizimi ham hozirgi zamon davlatchiligining o'ziga xos demokratlashuvndagi asosiy ommillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Jam'iyatning kam ga'minlangan tabaqalarini ijtimoiy ximoya qilish tamoyili hozirgi zamon taraqqiyot kontsepsiyasida yangicha yo'ialishdir. Ma'lumki, hatto barqaror demokratik taraqqiyotga erishgan bugungi Evropa mamlakatlari ham o'z vaqtida bunday amaliyotni chetlab o'tgan edilar. O'zbekistonda ana ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun hukumat dasturlari ishlab chiqildi va

amalg oshirildi. Bu islohotlarning yanada kengaytirish uchun zarur edi. Hozirda, aytish mumkinki, O'zbekiston ijtimoiy siyosatida ana shu aniq natijaga erishildi. Bu real yo'nalishga ega bo'lgan amaliy bosqichdir. Ijtimoiy islohotlar kontsepsiyasi jamiyatda barqarorlik va xavfsizlik tizimining mustahkamlanishiga qaratildi. Natijada, O'zbekiston ijtimoiy siyosatida barqaror o'zgarishlarga erishildi. Jahon ekspertlarining xulosalariga ko'ra, aynan ushbu kontsepsiya O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot bosqichiga kirishiga asos bo'ldi. Xususan, yaqinda BMTning YUNISEF tashkiloti tomonidan turli davlatlarning ijtimoiy rivojlanish bo'yicha e'lon qilgan qiyosiy tadqiqot natijalari ham fikrimizni tasdiqlaydi.

O'zbekistonda yurtilayotgan ijtimoiy siyosatdagi o'zgarish jamiyat tabaqalarining manfaatlarini himoya qilishda amaliy ahamiyat kasb etishi zarur. Aynan ushbu ijtimoiy talab bajarilsagina, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning asoslaridan biri — ijtimoiy totuvlik shakllanadi.

Ijtimoiy totuvlik ustuvor bo'lgan jamiyatdagina kuchli ijtimoiy siyosat yuritish uchun imkoniyat yaratiladi. Ammo ijtimoiy totuvlik o'z-o'zidan keshib chiqmaydi. Zero, har qanday jamiyatda turli ijtimoiy tafovutlarning bo'lishi tabiiy holdir. Mutaxassislar fikricha, bu ijtimoiy tafovutlar quyidagi guruhlar orasida ma'lum ma'noda ijtimoiy farqlarning mavjudligida o'z ifodasini topadi: boylar va kambag'allar orasida; ko'p millatli davlatlarda aholining etnik guruhlari orasida; aholining diniy guruhlari orasida; markaz va mintaqalar orasida; erkaklar va ayollar orasida; turli avlodlarga mansub odamlar orasida.

Bu tafovutlar O'zbekiston jamiyatida ham ko'zga tashlanadi. Shu sababdan, imkon kadar aytib o'tilgan tafovutlar ko'rinishini kamaytirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirib borilish ijtimoiy siyosatning maqsadlaridan biridir.

3. O'zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki yillardayoq, kuchli ijtimoiy himoya tizimini yaratishdan maqsad, insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilangan edi. Mamlakat prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek «O'zbekistonning o'z yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan eng muhim qoidalardan biri bazor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazishdir».

Albatta, ijtimoiy himoya tizimining rivoji mamlakat iqtisodiyotining ahvoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Avvalo, nodavlat sektorining muayyan darajada taraqqiy etishi, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar mavqeining mustahkamlanishi iqtisodiy rivojlantirish uchun tayanch va asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, ijtimoiy siyosatni real amalga oshirish uchun zamin yaratadi, ijtimoiy himoya tizimining yanada takomillashib, zamon talabiga mos bo'lib borishiga olib keladi. Bu hol O'zbekiston ijtimoiy siyosatini tadbiriy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, ijtimoiy himoyaning davlat siyosatidagi o'rni g'oyat muhimdir. Buning bir qancha sabablari bor.

Birinchidan, O'zbekiston agrar mamlakat bo'lib, uning ko'pgina hududlarida ishlab chiqarishning texnologiyalashuvi endigina oyoqqa turmoqda;

Ikkinchidan, mamlakat aholisining 65 foizi qishloqda yashaydi. Agrar sohaning yaxshi rivojlanmaganligi aholining bu qismi orasida himoyaga muhtoj oilalarning ko'pligiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ularni ijtimoiy himoyalash vazifasini qo'yadi.

Uchinchidan, mamlakat aholisi orasida yoshlar katta salmoqqa ega, bu esa yoshlarni ijtimoiy himoya tizimi orqali muxofaza qilishni talab etadi.

Ijtimoiy adolatning mohiyati har bir shaxs o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qila olish uchun to'liq imkoniyatlar yaratish, bunda ularning farovon turmush kechirishlariga erishish jarayonida to'liq namoyon bo'ladi. Kishilarning jamiyatdan olayotgan ulushlari (ish xaki, daromadlari, mukofotlari, unvonu mansablari) ularning jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissalariga (mehnati, qobiliyati, zakovati, alohida xizmatlari, sarmoyasi va x.k.) mos kelishi shu ma'noda inson rivoji imkoniyatlariga bog'liq.

Albatta inson faqat non bilan tirik emas. Inson taraqqiyotini hayot darajasigina emas, hayot sifati ham belgilaydi. Hayot sifati esa inson yashaydigan, mehnat qiladigan va bo'sh vaqtini o'tkazadigan sohalarda shakllanadi. Ijtimoiy infrastruktura inson hayotida kuchli ta'sirga ega. Sog'liqni saqlash shunday sohalardan biridir. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab

Prezidentimiz tashabbusi bilan «Sog'lom avlod uchun» umumxalq harakati boshlangan edi. Sog'lom va barkamol avlod uchun kurash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va o'zining natijalarini bera boshladi.

Insonning jamiyatga foyda keltirishi ko'p jihatdan uning hayoti qanday ta'minlanganligiga bog'liq. Dastavval, har bir oila o'z turar joyiga ega bo'lishi kerak. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, qishloq joylarni gazlashtirish kabi murakkab muammolarning hal qilib borilishi ham insonga munosib hayotni ta'minlashga qaratilgandir.

Narxlarni erkinlashtirish, savdo tizimi va maishiy xizmat sohasining bir maromda xususiylashtirib borilishi ham inson manfaatlariga zid kelmaydigan tarzda amalga oshirilishi lozim. Istemol mollarning ko'pini o'zimizda etishtirishni ta'minlash uchun mahalliy ishbilarmonlarga har tomonlama yordam ko'rsatish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, qishloq joylarda savdo shaxobchalari va maishiy xizmat muassasalarini ko'plab barpo etish ana shu maqsadlarga olib boradigan yo'ldir. O'zbekistonda xususiylashtirish jarayonlarining borishi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi, iste'mol mollarni ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlar ana shunday yo'nalishga ega.

Hozirgi zamonda aholini ijtimoiy himoya qilishning qator modellari mavjud. Ulardan biri Skandinaviya mamlakatlarida (Finlyandiya, Shvetsiya) qo'llanilayotgan sotsial-demokratik model bo'lib, bunday modelga ko'ra davlat ijtimoiy himoyaning barcha mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Neoliberal modelga ko'ra esa (AQSh) ijtimoiy himoyaning aksariyat qismni tadbirkorlar va kasaba uyushmalari bajaradilar. Neokonservativ modelga ko'ra (Germaniya) ijtimoiy himoya davlat kafolatlari javobgarligida xususiy tadbirkorlar va davlat federal byudjeti asosida olib boriladi.

O'zbekistonda ijtimoiy ta'minot asosan davlat byudjeti hisobidan tashkil etilgan bo'lib, bu tizim qator rivojlangan chet el davlatlarining ijtimoiy tizimidan kolishmaydi.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy yordamdan tashqari respublikamizda norasmiy ijtimoiy yordam ko'rsatishning an'anaviy qadriyat turlari ham mavjudki, ularning negizini qarindoshchilik, qo'shnichilik, mahallachilik, yoru birodarchilik yordamlari, ya'ni xalqimizning milliy urf-odatlarini tashkil etadi. Mahalliy idoralar, korxonalar, jamoa va xo'jaliklar hamda boshqa tadbirkorlik tashkilotlaridan fuqarolar pensiyasiga qo'shib berilayotgan qo'shimchalar, muhtojlarga ko'rsatilayotgan otaliq yordamlari, bayram va xayit kunlari bemorlarni ziyorat qilish, turli xayr-ehsonlar ham milliy urf-odatlarimizning zamonaviy ko'rinishlaridir. Bulardan tashqari, ijtimoiy yordam ko'rsatishda nodavlat jamoat birlashmalari va xayriya tashkilotlari ham ishtirok etmoqda.

Albatta, muammolar ham mavjud. Jahon tajribasi bilan qiyoslaganda, avvalo, mehnatkashlar manfaatlarini himoya qiladigan nodavlat tashkilotlar faoliyatini qayta ko'rib chiqish lozim. Xususan, kasaba uyushmalari rivojlangan mamlakatlarda xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish uchun korxona egalari, ish beruvchilarga doimo tasir o'tkazib keladilar. Bizda esa hali bunday tajriba mavjud emas. Birinchi navbatda jamoat tashkilotlari, xususan kasaba uyushmalari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularni mehnatkashlar manfaatlarini himoya qiluvchi kuchga aylantirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Kezi kelganda mamlakatimizning ijtimoiy himoya tizimi rivojini umumiy tarzda qarab o'tish o'rinlidir. Ma'lumki, 1991 yilda sobiq totalitar tuzum inqirozga uchragach, uning o'rnida vujudga kelgan yangi mustaqil mamlakatlar demokratiyasiga asoslangan jamiyat barpo etishda turli yo'llarni tanladilar.

Birinchi, Evropa va Amerika davlatlari tajribasida sinab ko'rilgan "falaj qilib davolash" yo'li edi. Ko'pgina mamlakatlar ushbu "tezkor" yo'lni tanladilar. Bu mamlakatlarda mustahkam qonunlar majmui ishlab chiqilmasdan, jamiyatni keskin tarzda demokratlashtirishga o'tildi. Oqibatda, bu o'z navbatida ko'plab murakkab muammolarni keltirib chiqardi.

Ikkinchi yo'l — jamiyatni bosqichma-bosqich isloh qilib borish yo'li bo'lib, bunda O'zbekiston tashabbuskor bo'ldi. O'zbekistonda avval qonunlar majmui yaratildi, so'ng bozor infrastrukturasini tizimini shakllantirishga e'tibor qaratildi va iqtisodiyotni isloh qilishga kirishildi. Natijada, jamiyat keskin ijtimoiy larzalarni chetlab o'tdi. Bu, birinchi navbatda, ijtimoiy himoya tizimiga ham tegishli edi. Aytaylik, 1992 yilda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol tang holatda edi. Shunday sharoitda kam ta'minlangan fuqarolar davlat tomonidan ijtimoiy muxofaza qilinishi zarurligi qat'iy belgilab qo'yildi. Bu siyosat davlatning islohotchilik roliga tayangan holda amalga oshirildi. Shu tariqa bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlat nazoratining bo'lishi ijobiy natijalar berdi.

Birinchi bosqich. Narxlar islohoti va narxlarning erkinlashtirish. (1992 yil 10 yanvardan boshlab).

Ikkinchi bosqich. Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilishi. (1992 — 1994 yillar).

O'z o'rnida demokratiyaning sharqona shakli xususida fikr bildirib o'tish lozim. Yaxshi bilamizki, Sharq qadriyatlari "inqilobiy sakrash"dan ko'ra tadrijiylikni ustun biladi. Shu sababdan, azaldan Sharq jamiyatlarida iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy o'pirishlar nisbatan kam. O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish jarayoni Sharq va G'arb demokratiya tamoyillari o'zaro uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilishi sababli ham, taraqqiyotda bosqichma-bosqichlik, harakatda esa qonun ustuvorligi asosiy xususiyat kasb etdi va hozir ham shunday bo'lib qolmoqda.

Tan olish kerakki, O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini amalga oshirish uchun shunchaki qulay sharoit yo'q edi. Shunga ko'ra, 1994 yil 24 avgustda "Kam ta'minlangan onlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida" Prezident Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, 1994 yil oktyabrdan aholini ijtimoiy himoyalash tizimi takomillashtirildi. Negaki, ilgari faqat respublika byudjeti yo'li bilangina 30 ta turli soha va yo'nalishlar bo'ylab ijtimoiy himoya amalga oshirilardi. Bunday holat mablag'larning sochilib ketishiga olib keldi. Natijada yuqoridagi Prezident Farmoniga binoan 1994 yilda ijtimoiy himoyaning asossiz tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan tizimga o'tildi. Bu tizim bugungi kunga qadar o'zini oqlamoqda. Ana shu Farmonga muvofiq yoshlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida o'quv yurtlari talabalarining stipendiyalari muntazam ravishda oshirib borilmoqda. Zero, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi aholi soni jihatidan eng yirik mamlakat bo'lib, sanoat va makroiqtisodiyot tizimi bir yoqlama xususiyatga ega edi. Bu murakkablik jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmasa-da, ma'lum ma'noda undan chetlab o'tishga muvaffaq bo'lindi. O'zbekistondagi er usti va er osti boyliklari, salohiyat bunga imkon berdi. Undan unumli foydalanildi. Shunisi ham e'tiborliki, jamiyatni demokratlashtirish va ijtimoiy himoya tizimini yaratish o'zaro bog'liq jarayon sifatida rivojlandi.

Lekin O'zbekistonda ijtimoiy o'zini-o'zi himoyalash tizimi batamom yo'lga tushib ketgan emas. Boqimandalik kayfiyatidan ijtimoiy himoya iste'molchilari ham qutulishlari lozim. Fuqarolar endilikda o'zini o'zi ta'minlash usuliga o'tishlari kerak. O'zbekistonda xususiy mulkchilikning qaror topishi bu sohada qat'iy o'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi zarur. Shunisi ham muhimki, ijtimoiy himoyani doimiy jarayon sifatida tushunmaslik lozim. Aks holda boqimandalik kayfiyati battar kuchayishi mumkin. Ijtimoiy himoya ayrim fuqarolar uchun imkoniyat, xolos. Har qandan sharoitda ijtimoiy yordam jamiyat a'zolari uchun imtiyozga aylanmasligi lozim. Bu o'rinda jamiyatning o'zini-o'zi ijtimoiy himoyalash tizimiga o'ta borishini ta'minlash uchun ushbu tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-nodavlat, nohukumat tashkilotlar, jamg'armalar, uyushmalar va turli shakldagi mulk egasi bo'lgan tashkilotlarning moddiy ahvolini yaxshilashni qo'llab-quvvatlash;

-barcha turdagi korxonalar, muassasalar va uyushmalarni zamon talabiga javob beradigan xodimlar va ayniqsa huquqshunos, psixolog va sotsiolog mutaxassislar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berish lozim;

-nomi zikr etilgan muassasalarning xorijiy turdosh muassasalar bilan hamkorligini yo'lga qo'yishda ko'maklashish. Ular o'z yo'nalishlarida zarur tajriba orttirishlari talab etiladi;

-ijtimoiy himoya tizimida iqtisodiy muxofazalanishni asta-sekin ijtimoiy fondlar zimmasiga o'tkaza borish zarur. Bunday holatda odamlarni ijtimoiy muhofazalashning ta'sirchan vositasi yuzaga keladi;

-ijtimoiy muhofazalashda boqimandalik, mas'uliyatsizlik, befarqlik singari illatlarga barham beruvchi ta'sirchan vosita va usullarni qidirib topish hamda hayotga joriy eta borish talab etiladi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatda asosiy boylik inson bo'lib qoladi. O'tkazilayotgan islohotlarning mazmuni ham shu bilan bog'liq. Bu haqda Prezident I. A. Karimov shunday ta'kidlaydi: "Bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yo'ldagi asosiy tayanchimiz insondir. Yuksak malakali va yuksak ma'naviyatli insondir". Lekin shuni ham borki, islohotlar davrida ijtimoiy guruhlarning ham o'zining muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik jamiyat qurish sharoitida o'rta mulkdorlar qatlami katta saxmoqqa ega bo'ladi. O'rta sinf demokratik jamiyatni rivojlantirishda va uning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashda asosiy kuchga aylanadi. Zero, davlat bunday sharoitda kuchli muvofiqlashtiruvchi kuchga ega bo'ladi, o'rta sinf esa jamiyat taraqqiyotini texnologik, texnik, ilmiy va ma'naviy ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, O'zbekistonda islohotlar muqarrarligning g'oyat muhim sharti bo'lmish axolini ijtimoiy himoya qilish uzluksiz ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bu holat, o'z navbatida, quyidagi omillarni belgilab beradi:

kuchli ijtimoiy himoya siyosati istiqlol va taraqqiyot yo'liga ishonchni mustahkamlaydi, bu ishonch esa aniq moddny zamin asosida hosil bo'ladi;

kuchli ijtimoiy himoya siyosati eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratadi. XXI asr boshida dunyo taraqqiyotida munosib turmush darajasi inson omilining etuk sharti bo'lib qolayotganligi e'tiborga olinsa, mamlakatimizda bu masalani hal etishda ijtimoiy himoyalashdan unumli foydalanish masalasi nechog'li ahamiyatli ekani ayon bo'ladi;

kuchli ijtimoiy himoya siyosati fuqarolarning islohotlarning izchil kechishidan manfaatdorligini oshib borishini ta'minlaydi va bu yangalanish jarayonining orqaga qaytishiga imkon bermaydigan ijtimoiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda aholining kam ta'minlangan tabaqalariga, bolalar, qariyalar, nogironlarni, shuningdek sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat va san'at sohalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati o'zining muayyan tajribalariga ega bo'ldi. Ma'naviy, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash vazifalari dolzarb bo'lgan O'zbekiston uchun bu holat katga ahamiyatga ega. Bu tajriba fuqarolarning siyosiy faolligini yanada oshirish, mehnat resurslarini ijtimoiylashtirish, mintaqaviy rivojlanishni avj oldirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni barqarorlashtirish imkonini beradi.

Kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati jamiyatda yangicha fikrlash asoslarini yaratishga qodirligidan ham demokratik jamiyat barpo etishga ko'maklashadi. Zsro, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik yuzaga kelgach, fuqaralar fikrlashga, yangi zamon tartiblarini tuzishga ishtiyoq bilan intiladilar. Chunki fikrlovchi odam fuqarolik jamiyatiga ta'sir o'tkazish qobiliyatini mumkin qadar ko'proq ro'yobga chiqara olgan taqdirdagina, kuchli bo'la oladi.

O'z navbatida ijtimoiy sohaning ahvoli to'g'risida umumiy jahon standartlari nimadan iborat, degan savol tug'iladi. Mutaxassislar fikricha, bu sohada ham bir necha modellar amal qiladi. Ularni umumiy tarzda kuchli ijtimoiy himoya tizimining ayrim elementlarini o'zida ifoda etuvchi skandinavcha model. Nazarimizda, ushbu modellarning har biri o'z yutuq va kamchiliklariga ega. Ularni respublikamizda shunchaki tatbiq qilib bo'lmasligi aniq. O'zbekiston ijtimoiy ta'minot sohasida o'z modeliga ega hamda u ijtimoiy kafolat tizimining o'zgaruvchan xususiyatiga mos tarzda takomillashib boradi.

O'tish davrida ijtimoiy muammolarning yuki ortadi. Yo'lga tushgan karvon kabi bu sohaning muammolari ham borgan sari ortib boradi. Shuning uchun mazkur sohada yuzaga keluvchi muammolarning echimini modellashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda eng muhim muammolar rivojlanishi tendentsiyalari o'z vaqtida aniqlanishi katta ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekistonning ijtimoiy xastida yuz berayottan yirik o'zgarishlar asosidagi muammolarni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish muhim. Misol tariqasida yon tomonda keltirilgan jadvaldan ko'rinishda bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda hozirgi kunda ijtimoiy ta'limot tizimida boshqaruv idoralari hisoblangan I ta vazirlik, 12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda 153 ta tuman va 36 ta shaharda ijtimoiy ta'minot tizimlari mavjud. Shuningdek, yolg'iz nogironlarga va qariyalarga mo'ljallangan o'nlab internat uylari, nogironlik sababi va guruhini belgilovchi tibbiy-eksprtiza

komissiyalari, xususan, nogironlikni eksport qilish va nogironlarning mehnat qobiliyatini tiklashi bo'yicha 1 ta ilmiy-tekshirish instituti faoliyat yuritmoqda. pensionerlarning davolanishi va dam olishiga mo'ljallangan bir qancha maxsus sanatoriyalar ishlab turibdi.

Kam ta'minlangan hamda ko'p bolali muxtoj onalarga moddiy yordam to'lovlarini moliyalashtirishning asosiy manbai respublika va mahalliy byudjet vositalari hisoblanadi.

Ma'lumki, mustaqil taraqqiyotimizning ilk davridanoq inson — jamiyat — davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona echmini topish alohida ahamiyat kasb etdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Evropa mamlakatlari, Osiyoning Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlari aynan shu g'oya asosida taraqqiyot yo'lini belgilab, tarixan qisqa davr ichida yuksak taraqqiyotga erishgani edilar. Ikki asrlik demokratik rivojlanish tarixiga ega bo'lgan AQSh ham inson manfaatini taraqqiyotning asosi sifatida qabul qilgan edi. Ma'lum bo'ladiki, O'zbekiston demokratik taraqqiyotning jahon tajribasini sinchiklab o'rgandi. O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatni barpo etish va uning tayanchi sifatida insonparvar tuzumni shakllantirish yo'lida islohotlarni amalga oshirish inson — jamiyat — davlat tizimidek kuchli uyg'unlikni talab etmoqda.

Xullas, mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos tajribasi va an'analari to'plangan. Bunda inson — jamiyat — davlat munosabatlari, inson omili yuksak mavqeda turadi. Shu ma'noda, O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini zamon talablariga mos tarzda takomillashtirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud va ular mamlakatda demokratik jamiyatni qurishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

14– mavzu. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi.

REJA:

1. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.
2. O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan munosabatidagi huquqiy-siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.
3. O'zbekistonning MDH davlatlari bilan o'zaro hamkorligi.
4. ShHT, Markaziy Osiyodagi demokratik jarayonlar va o'zar hamkorlik.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng o'z tashqi siyosatimizni xalqaro hamjamiyatning to'laqonli sub'ekti sifatida amalga oshirish uchun real imkoniyatlarga ega bo'ldi. Endilikda tashqi siyosat mustaqil tarzda amalga oshirilmoqda.

Jamiyat va davlatlar tarixi shuni ko'rsatadiki, biron-bir mamlakat boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan taraqqiyotga erishgan emas. Sharq va G'arb mamlakatlarini bir-biriga bog'lagan «Buyuk Ipak» tarixiy yo'lining markazida joylashgan O'zbekiston bir necha asrlardan buyon dinlar, millatlar va madaniyatlarining tutashuv nuqtasi bo'lib kelmoqda.

Ayniqsa Amir Temur va Temuriylar davrida dunyodagi yirik davlatlar Samarqand bilan o'z aloqalarini o'rnatganlar. Amir Temurning Frantsiya, Angliya, Ispaniya qirollari, o'nlab qo'shni davlatlarning hukmdorlari bilan yozishmalari o'sha davrdagi jo'shqin siyosiy, madaniy va tijoriy aloqalardan guvohlik beradi.

Chor Rossiyasi bosqinidan so'ng 130 yildan ortiq davom etgan mustamlaka davri mamlakatimizning tashqi aloqalarini uzib qo'ydi. Xorij bilan barcha munosabatlar istilochilarning nazorati va ruxsati bilan amalga oshirilardi. Bir paytlar dunyoga dong taratgan o'lkamiz chekka bir viloyat darajasiga tushirib qo'yildi. Sovetlar davrida esa chetga chiqarilgan bir-ikki diplomat hamda vazifasi oliy rutbali xorijliklarni mehmon qilishdan iborat bo'lgan Tashqi ishlar vazirligidan boshqa hech narsa yo'q edi.

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq bevosita mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov rahbarligida tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari va asosiy tamoyillari belgilandi hamda og'ishmay amalga oshirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

-mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar, hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

-davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;

nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;

-kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;

-inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;

-ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;

-tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;

-davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik ustunligi;

-tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik va boshqalar.

Bu tamoyillarga davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari asos qilib olinadi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning Oliy Majlis ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida boshqa sohalar qatori tashqi siyosat borasidagi navbatdagi vazifalar ham ko'rsatib o'tildi. Jahondagi barcha mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga quyish, etakchi xalqaro iqtisodiy, moliyaviy hamda insonparvarlik tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish bundan keyin ham ustuvor yo'nalish bo'lib qolishi ta'kidlandi.

Bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining konstitutsiyaviy zamini yaratildi. Shunga mos ravishda inson huquqlari ham tiklanmoqda. Xalqimizning ma'naviy salohiyati, unga xizmat qiladigan tabiiy va texnikaviy zahiralari, mustahkamlanayotgan xalqaro munosabatlar demokratik rivojlanish va inson huquqlariga rioya qilish uchun barcha sharoitlarning bosqichma-bosqich yaratilishiga kafolat beradi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi «O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunda belgilangan konstitutsiyaviy an'analarni davom ettiradi. Mazkur an'analarga ko'ra xalqaro huquq davlatimiz qurilishining muhim manbai bo'lib, O'zbekiston o'zining xalqaro huquq normalariga sodiqligini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab, namoyish etmoqda.

Bu esa yosh mustaqil davlatimizning eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga qabul qilinishiga imkon berdi. Respublikamizning mustaqil davlat sifatida boshqa davlatlar tomonidan diplomatik tan olinishiga, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishishiga yo'l ochdi.

BMT ustavi, Inson huquqlari to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari haqidagi boshqa xalqaro paktlar, Xelsinki bitimlari, Parij va Madrid xartiyalari qoidalari Konstitutsiyamizdagi xalqaro huquq printsiplari va normalariga asos bo'ldi. Bunday konstitutsiyaviy yondashuv, ayniqsa Konstitutsiyaning muqaddimasida, 4-bobida, ikkinchi bo'limda 22,23 va 26-bobda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu boblarning tegishli ravishda, «Tashqi siyosat», «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari», «O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati», «Saylov tizimi», «Mudofaa va xavfsizlik» deb nomlanishi ham fikrimizning dalilidir.

XX asrning so'nggi o'n yilligi ijtimoiy dunyoqarash va jahon hamjamiyatining jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishida tub o'zgarishlar davri bo'lib tarixga kirdi. Jahon hamjamiyati yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davr o'zining ikki jihati bilan ajralib turadi. Birinchidan, bu davlatlar, xalqlar o'rtasidagi yaqinlashuv jarayonlari va har tomonlama hamkorlikning kuchayishi, yaxlit bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy makonlarning vujudga kelishi, hozirgi zamon xalqaro huquq normalarining

yaratilishidir. Ikkinchidan, «sotsialistik lager»ning emirilishi, totalitar tuzumdagi davlatlarning tugatilishi, ular o'rnida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir.

Prezidentimiz «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyoti yo'li» kitobida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining kontseptsiyasi to'g'risida, tashqi siyosiy yo'l, bu yo'lning huquqiy negizi va uni amalga oshirish vositalari haqida to'xtalib o'tgan. O'zbekiston tashqi siyosatining strategik yo'li, asosiy qoidalari va maqsadlari, uning ustuvor va mintaqaviy yo'nalishlari, xususiyatlari negizida respublikaning milliy manfaatlarini joy olgan. Har qanday siyosat aql-idrok bilan ish tutishni taqozo etadi. Rivojlanayotgan, tez taraqqiy etish uchun kuchli ilmiy, sanoat kuch-quvvatiga ega bo'lgan mamlakatning tashqi siyosati ehtirolardan xoli bo'lishi lozim. Respublikamiz ana shunday davlatlar sirasiga kiradi. Yangi xalqaro iqtisodiy tartib uchun harakat qilish qoidalari O'zbekiston uchun ham diqqatga molik masaladir. Bu xom ashyo va sanoat mahsulotlari narx-navolarining adolatli bo'lgan nisbati, rivojlanayotgan davlatlarning fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo'lish imkoniyati va hokazolardir.

Tashqi siyosat faoliyat uchun huquqiy negiz yaratish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagilar amalga oshirildi:

- yangi xalqaro huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi:

- sobiq Ittifoq ishtirokchi bo'lgan xalqaro huquqiy hujjatlar majmuasi respublika manfaati nuqtai nazaridan o'rganildi:

- O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos tushadigan hujjatlar ratifikatsiya qilindi:

- mamlakat xalqaro faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish. «Qabul qilingan xalqaro shartnomalar to'g'risida»gi qonun, «Konsullik ustavi» shular jumlasidandir. Ulardan tashqari bojxona xizmatining huquqiy asoslarini yaratuvchi qonunlar, Havo kodeksi ham qabul qilindi. Yurtboshimiz I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» kitobining tashqi siyosatga bag'ishlangan bobida ushbu faoliyat yo'nalishlari aniq-ravshan ifodalab berilgan. Jumladan, kitobda milliy manfaatlar O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadi ekanligi qat'iy bayon etilgan.

Manfaat, bu zaruriy ehtiyojdir. Ehtiyojlar esa birinchi galda O'zbekiston uchun taraqqiyotning muayyan jug'rofiy va tabiiy, iqlimiy, demografik holatimiz, xalqimizning ko'p millatli tarkibi, uning tarixiy va madaniy merosi, ma'naviyat omili, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasi, xom ashyo va zamonaviy texnologiya bilan ta'minlanganlik, davlatning xalqaro munosabatlardagi o'рни va hokazolardir. Bu omillar O'zbekistonning ehtiyojlarini belgilaydi. Ehtiyojlar esa manfaatlarda o'z ifodasini topadi. Davlat manfaatlarini uning tashqi siyosiy faoliyatini belgilaydi. Shu jihatdan, O'zbekistonning tashqi siyosiy manfaatlarini xalqaro aloqalarni rivojlantirayotgan, uning tuzilmalari va faoliyatini belgilab berayotgan kuchdir.

Barcha davlat va xalqaro tashkilotlar bilan aloqa qilishda davlatimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqiladi. Tabiiyki, bunda sheriklarimiz manfaatlarini, ular tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisobga olinishi zarur. Zero, o'zaro uzviy bog'liqliksiz tashqi siyosatni tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va davlatlararo uyushmalar faoliyatidagi ishtiroki respublika tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu tashkilotlar jahon hamjamiyatiga kirish, xo'jalik aloqalarini o'rganish, ekologiya, tabiiy muammolarni hal etish, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirishda katta yordam bermoqdalar.

Respublika Prezidenti davlatimiz o'z qiyofasini yo'qotmasdan xalqaro talablarga rioya etishga tayyorligini qat'iy tasdiqladi. Bu talablarga rioya etmasdan, xalqaro jahon hamjamiyatiga kirib bo'lmaydi. Bu erda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosidagi kafolatlar, BMT Nizomi va Xelsinki kelishuvi qoidalari, hujum qilmaslik, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish, xalqaro huquq qonunlarining milliy qonunlardan ustuvorligi va hokazolar to'g'risida gap bormoqda. Jahondagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar xuddi shunday yondashuv tarafdoridir.

Bugungi kunda o'z mustaqil tashqi siyosatini konstitutsiyaviy qoidalarga tayanib yuritayotgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi-yu kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Mamlakatimiz Asosiy qonunining 17-moddasida ochiq-ravshan aytilgan.

O'zbekiston butun dunyo ko'z o'ngida tashqi siyosiy va madaniy aloqalarining boy tarixiga ega bo'lgan, mustaqil ravishda zamonaviy diplomatik aloqalarni amalga oshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro huquq jihatidan O'zbekiston uchun asrlar osha buyuk bo'lib kelgan davlatlar ham, davlatchilik tarixi biznikiga o'xshash yosh mamlakatlar ham bab-baravardir.

O'zbekiston taraqqiyotning konstitutsiyaviy asosi sifatida inson huquqlari tiklanmoqda. Xalqimizning ma'naviy imkoniyati, uning katta tabiiy va texnik zahiralari, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalari demokratik taraqqiyot va inson huquqlariga rioya etilishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar mavjudligiga ishonch tug'diradi. Natijada mamlakatimiz amalda yalpisiga diplomatik tan olinishiga va xalqaro iqtisodiy aloqalarga tortilishiga yo'l ochib berildi.

XX asrning ohirida dunyoning siyosiy makoni sifat jihatidan o'zgardi. Sovet Ittifoqi xalqlari hamda sobiq «sotsialistik hamdo'stlik»dagi boshqa davlatlar bir partiyaviylik tizimi va markazdan turib rejalashtirish iqtisodiyotidan voz kechishdi. Bu holat dunyoda antogonistik ijtimoiy-siyosiy tuzumlarning global qarama-qarshiligi barham topdi va dunyo siyosatida demokratik jamiyatlar salohiyati ancha oshdi. Evroosiyo hududida, jumladan, Markaziy va Sharqiy Evropa davlatlari, shuningdek, sobiq sovet ittifoqi davlatlarining roziligi orqali ijtimoiy-siyosiy tuzumning demokratik shakliga o'tildi. Agar bunday davlatlarda, eng avvalo, Rossiyada amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni muvaffaqiyatli yakunlansa, Shimoliy yarim sharining kattaroq qismi - Evropa, Shimoliy Amerika, Evroosiyoda bir-biriga yaqin ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tamoyillar asosida yashovchi, bir-biriga o'xshash qadriyatlarga e'tiqod qiluvchi, shu jumladan, global dunyo siyosati jarayonlariga bir xilda yondashuvchi xalqlar hamjamiyati shakllanadi.

«Birinchi» va «ikkinchi» dunyolar o'rtasidagi qarama-qarshilikka barham berilgandan so'ng avtoritar tuzumlar Afrika, Lotin Amerika, Osiyodagi o'z tarafdorini qo'llab-quvvatlashdan to'xtadilar. Negaki, bu davlatlar mafkuraviy ittifoqdosh sifatida o'z qiymatlarini yo'qotishdi va natijada moddiy hamda siyosiy yordamdan maxrum bo'lishdi. Oqibatda Somali, Liberiya, Afg'onistonda bo'linish vujudga keldi va fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Boshqa davlatlarning ko'pchiligi esa, masalan, Efiopiya, Nikaragua, Jazoir avtoritarizmdan voz kecha boshlashdi.

«Sovuq urush» bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan barcha qit'alarda kechgan keng miqyosli demokratiyalashtirish jarayoni 80-yillarning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Braziliya, Argentina, Chili boshqaruvning harbiy-avtoritar shaklidan fuqarolik-parlamentar shakllariga o'tishdi. Bunday tendentsiya Markaziy Amerikada sal kechroq tarqaldi. Ushbu jarayonning e'tiborli natijalaridan biri shuki, 1994 yil 14 dekabrda Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlari boshliqlarining uchrashuvida qatnashgan 34ta davlat rahbari o'z davlatlarining demokratik yo'l bilan saylangan liderlari edilar. Shunga o'xshash demokratiklashtirish jarayonlari Osiyo Tinch okeani hududi - Filippin, Tayvan, Janubiy Koreya, Tailandda kuzatildi. 1998 yilda Pokistonda harbiy tuzum o'rniga saylangan hukumat keldi. Janubiy Afrika respublikasining aparteid siyosatidan voz kechishi demokratiyaga qarab yo'l olinganligini ko'rsatdi. Afrikaning boshqa joylarida avtoritarizm jarayoni anchagina sekin kechdi. Biroq inqirozga uchrashi, Gana, Benin, Keniya, Zimbabveda demokratik islohotlarning ma'lum darajada oldinga siljishi demokratiyalashuv to'liqini bu qit'aga ham ta'sir qilmasdan o'tmaganini ko'rsatadi.

Aytib o'tish lozimki, demokratiya etuklikning bir necha darajasiga ega. Bu frantsuz hamda amerika inqilobi davrlaridan boshlab, bugungi kungacha demokratik jamiyatlarning rivojlanishida yaqqol namoyon bo'ldi. Qator Afrika mamlakatlarida yoki sobiq ittifoq o'rnida paydo bo'lgan yangi mustaqil davlatlarning ayrimlarida muntazam ko'ppartiyaviylik saylovlari ko'rinishiga ega bo'lgan demokratiyaning ilk shakllari, aytaylik, G'arbiy Evropa tipidagi etuk demokratiya shakllaridan anchagina farq qiladi. Agar Linkolnning demokratiyaga bergan «xalq tanlagan

saylagan va xalq manfaatlariga muvofiq amalga oshiriladigan xalq boshqaruvi» ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, eng ilg'or demokratiyalar ham mukammal emasdir.

80-yillar oxiri - 90-yillar boshlarida ijtimoiy-siyosiy modellarning global almashinuv jarayoni turli davlatlarda turlicha kechgan bo'lsa-da, uning er yuzini yarmidan ko'pini qamrab olganligi bois, jahon hamjamiyati ijtimoiy-siyosiy maydonining sifat o'zgarishi to'g'risida xulosa qilish mumkin bo'ladi. Jamiyatlarni tashkil etishning demokratik shaklli tafovutlar, ba'zan esa muayyan davlatlar o'rtasida keskin ziddiyatli vaziyatlardan ham xoli emas. Masalan, bugungi kunda Hindiston va Pokiston, Gretsiya va Turkiyada parlamentar boshqaruv joriy etilgan bo'lsa-da, ular o'rtasidagi munosabatlarda xavfli keskinlik mavjud. Rossiya kommunizmdan demokratiyaga qarab ancha yo'l bosib o'tgan bo'lsa-da, baribir, aytaylik, NATOni kengaytirish yoki Saddam Husayn, Slobadan Miloshevich tuzumlariga qarshi harbiy kuchni ishlatish masalalari bo'yicha Evropa davlatlari va AQSh bilan oralarida kelishmovchilik bor. Lekin muhimi shuki, tarixda demokratik davlatlar bir-birlari bilan urush qilishmagan.

Albatta, ko'p narsa «demokratiya» va «urush» tushunchalarining qanday ta'riflanishiga bog'liq. Olamda davlat, qachonki uning ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyatlari saylovlar yo'li bilan shakllantirilgan bo'lsa - demokratik hisoblanadi. Bu degani, ana shunday saylovlarda eng kamida bir-biridan mustaqil ikkita partiya ishtirok etsa, katta yoshdagi axolini kamida yarim ovoz berish huquqiga ega bo'lsa va hokimiyatning bir partiyadan ikkinchisiga o'tishi kamida bir marta tinch konstitutsion yo'l bilan amalga oshirilgan bo'lsa.

Jahon tarixining tadqiq etilishi shuni ko'rsatmoqdaki, demokratiyalar avtoritar tuzumlar bilan urush olib boradilar va juda ko'p boshqa demokratik davlatlar bilan ziddiyatlarga borsalar ham, xech qachon bu narsa urushgcha etib bormagan. Vestfal tizimi mavjud davr mobaynida demokratik davlatlar o'trasidagi munosabatlar tor doira bo'lganligi va ularning hamjixat bo'lishlariga avtoritar davlatlar ta'sir etganligini ko'rsatuvchi tanqidchilarda bunga ma'lum bir asos bor ekanligini tan olish zarur. Avtoritar davlatlar tomonidan tahdidning yo'qolishi yoki kamayishi bilan demokratik davlatlar bir-birlari bilan munosabatda o'zlarini qanday tutishlari ham noma'lum.

Agar XXI asrda ham demokratik davlatlarning o'zaro tinch munosabatlaridagi qonuniyat buzilmasa, unda hozir dunyoda ro'y berayotgan demokratiyani kengayishi dunyo global zonasining ham kengayishini anglatadi. Ehtimol, yangi shakllanayotgan xalqaro munosabatlar tizmining Vestfal tizimidan birinchi va asosiy farqi aynan mana shundadir.

Global miqyosda demokratiya va avtoritarizm o'trasidagi nisbatning o'zgarishi amerikalik tadqiqotchi F.Fukuyamaning demokratiya g'alabasini ovoza qilishiga hamda shu ma'noda tarixiy formatsiyalar o'rtasidagi kurash sifatida «tarixning yakunlanganligi» tug'risida e'lon qilishga asos bo'lib xizmat qildi. Biroq, demokratiyaning keng miqyosda yoyilib borayotgani uning to'liq g'alabasi degani emas. Kommunizm biroz o'zgartirilgan ko'rinishda bo'lsa-da, Xitoy, Vetnam, Shimoliy Koreya, Laos, Kubada saqlanib qolindi uning izlarini Sobiq Ittifoqning ayrim davlatlarida, Serbiyada sezish mumkin.

Shimoliy Koreyadan tashqari boshqa barcha sotsialistik mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti elementlari paydo bo'lmoqda, ular u yoki ma'noda jahon iqtisodiy tizimiga jalb etilmoqda. Saqlanib qolgan ayrim kommunistik davlatlarning boshqa mamlakatlar bilan munosabatlari «sinfy kurash» tamoyilidan ko'ra, «Birga tinch yashash» tamoyiliga asoslanadi. Qisman amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va xalqaro iqtisodiy aloqalar uchun ochiq bo'lishlik siyosiy erkinliklarni kengaytirishni talab etuvchi ijtimoiy kuchlarni yuzaga chiqaradi. Biroq, bir partiyaviylik tizimi teskari tomonga qarab ish olib bormoqda. Natijada liberalizmdan avtoritarizmga, avtoritarizmdan tiberalizmga qarab harakat qiluvchi «argimchoq» effektini kuzatish mumkin. XX asr tajribasi ko'rsatmoqdaki, kommunistik tizim muqarrar ravishda shunday tashqi siyosatni ishlab chiqardiki, u demokratik jamiyatlar siyosatiga zid bo'ladi. Bunday ziddiyatning mavjudligi ular o'rtasidagi harbiy mojaroni keltirib chiqarishi mumkinligi va ular o'rtasidagi munosabatlar bo'la olmasligi xususidagi fikrlar asoslagandir.

Hozirgi kunda dunyoda avtoritar tuzumdagi bir qancha davlatlar mavjud. Avtoritar tuzumda bo'lgan davlatlar orasida alohida o'rinni ekstremistik mazmundagi «islomiy» mamlakatlar - Eron, Sudan, Afg'oniston egallaydi. «Islom fundamentalizmi» nomi bilan ataluvchi islom ekstremizmi

xalqaro siyosiy harakati dunyo siyosatiga bu davlatlar o'z ta'sirini o'tkazish uchun imkon bermoqda.

G'arb demokratiyasini inkor etuvchi hamda zo'ravonlikka yo'l qo'yuvchi ushbu mafkuraviy oqim so'nggi yillarda Yaqin Sharqning ko'pgina mamlakatlari axolisi va musulmon aholisi yuqori bo'lgan boshqa davlatlarda keng tarqalgan.

Demokratik davlatlar bilan hamkorlik qilishga intilayotgan kommunistik tuzumdagi davlatlardan farqli o'laroq, islom siyosiy ekstremizmi dinamik va Saudiya Arabistoni, Fors ko'rfasi mamlakatlari, Pokiston, Turkiya, Markaziy Osiyo davlatlari barqarorligiga katta xavf tug'dirmoqda.

Avtoritar davlatlarning saqlab qolinishi yoki ular sonining ortishi, extimol, ular o'rtasidagi, shuningdek, demokratik dunyo bilan o'rtalarida harbiy to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Albatta, xalqaro munosabatlarning kelgusidagi rivojini tadqiq etishda demokratiya o'rtasidagi munosabatlar qonuniyatlarini, demokratiyaning avtoritar tuzumlarga ta'sirini yaxshilab tahlil etish lozim bo'ladi.

Xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan demokratik qadriyatlar, xalqaro huquq asosida o'zlashqi siyosatini yuritish, munosabatlarda kuch ishlatmasdan muzokaralar yordamida muammolarni hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralmashmaslik va davlatlarning suvereniteti hududiy yaxlitligini hurmat qilish muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston o'z diplomatiyasini yuqoridagi qadriyatlar asosida olib bormoqda.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlashda Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik ijobiy samara bermoqda. O'zbekiston xalq xo'jaligidagi aniq loyihalarga sarflanayotgan xorijiy sarmoyalar miqdori yildan-yilga ortib borayapti. Keyingi yillarda qad ko'tarayotgan zamonaviy inshootlar va yirik korxonalar bunga misol bo'la oladi.

O'zbekistonda investitsion muhitni shakllantirish, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot vujudga keltirish bo'yicha aloqalar rivojlanib bormoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish jarayoni izchillik bilan davom ettirilmoqda. Ayni paytda mamlakatni jahon bilan bog'lovchi kommunikatsion tizimlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berilayapti. Chet ellardagi taniqli iqtisodchilar, xorijiy kompaniyalar vakolatxonalari rahbarlari va mutaxassislari, yozuvchilar va jurnalistlar bu tadbirlar tufayli O'zbekiston yaqin kelajakda mintaqadagi eng ilg'or davlatlardan biriga aylanishini bashorat qilmoqdalar.

Mamlakatimizning boy er osti va usti resurslari, malakali mutaxassislari, Markaziy Osiyodagi etakchi mavqei ham jahon davlatlarini hamkorlikka undamoqda. O'zbekiston hozirgi paytda 130dan ortiq xorijiy mamlakatlar bilan savdo-sotiq qiladi. Yurtimizdagi 15 mingga yaqin korxona mahsulotlar eksport-importi bilan shug'ullanmoqda. Xalqaro munosabatlar ravnaqi mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikning, aholi turmush darajasini yuksaltirishning o'ziga xos kafolati ekanligi hech kimga sir emas.

O'zbekiston bir qator xalqaro tashkilotlar- Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT), Iqtisodiy hamkorlik tashkildoti (EKO) bilan teng huquqli a'zo sifatida, Evropa Ittifoqi, NATO bilan esa maxsus bitimlar asosida samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Jumladan, NATO bilan «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasidagi aloqalarimiz mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga munosib hissa qo'shmoqda. AQSh va boshqa etakchi davlatlar askarlari bilan birgalikda har yili o'tkazilayotgan harbiy mashqlar qurolli kuchlarimiz uchun o'ziga xos mahorat maktabi bo'layapti.

Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari va hukumat boshliqlarining Istanbul shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi davrimizning eng muhim anjumanlaridan bir bo'ldi. Respublikamiz Prezidentining mazkur anjumandagi nutqi, aniq takliflari va mulohazalari bilan yig'ilganlar e'tiborini qozondi. Ayniqsa terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz tashkil etish borasidagi taklif ko'plab davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida ana shunday markazning ta'sis etilishiga ham O'zbekiston rahbariyatining taklifi sabab bo'ldi.

O'zbekiston o'zining tashqi aloqalarini ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Bugungi kunda er yuzining turli chekkalarida ishonchli va manfaatdor sheriklarimiz bor. Ularning doirasi muntazam kengayib bormoqda. Shu o'rinda Amerika Qo'shma Shtatlari bilan munosabatlarimizni tilga olishimiz mumkin. Bu munosabatlar ikkala davlatlar uchun ham muhim bo'lgan yo'nalishlarda izchillik bila rivojlanib bormoqda. O'zbekiston rasmiy hay'atining 2002 yilda AQShga tashrifi, strategik hamkorlikni vujudga kelishi va imzolangan hujjatlar, bir qator xalqaro anjumanlarda ikki davlat rahbarining o'zaro muloqotlari, samimiy yozishmalar o'zaro aloqalar darajasidan dalolat beradi. Dunyoning etakchi davlati, juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan AQSh bilan har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Evropa Ittifoqi bilan 1996 yilda imzolangan sheriklik va hamkorlik haqidagi shartnoma 1999 yilning 1 iyulida kuchga kirdi. Mamlakatimizning Evropa davlatlari bilan keng miqyosli aloqalari uchun qulay imkoniyat vujudga keldi. Tabiiyki, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya kabi ilg'or davlatlarning demokratik jamiyat qurish borasidagi tajribalari, ishlab chiqarishdagi ilg'or texnologiyalari biz uchun muhim ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari- Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy va boshqa davlatlar bilan aloqalarimiz kengaydi. O'zaro manfaatli hamkorligimiz samaralarini birga qurilayotgan korxonalarda, qad ko'tarayotgan inshootlarda, bozorlarimizdagi xilma-xil mahsulotlarda ko'rish mumkin.

Albatta, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar, shu jumladan, Markaziy Osiyo respublikalari bilan hamkorlik tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunga sabab, Hamdo'stlik mamlakatlarimizning hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'langanligigina emas, balki chuqur tarixiy ildizlar, madaniy va ma'naviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning mushtarak taqdirga ega bo'lganligidir.

Rossiya Federatsiyasi bilan mustaqillik yillarida shakllangan o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik yaxshi samara berayotganligini alohida ta'kidlash zarur. Ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan 1992 yildan buyon siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarida jami 150 dan ortiq hujjat imzolangan. 1998 yil may oyida I.Karimovning Rossiyaga va o'sha yil oktyabrida B.Eltsinning mamlakatimizga rasmiy tashriflari, safar davomida qabul qilingan hujjatlar, ayniqsa, 1998-2007 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma o'zaro aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. V.Putin prezident sifatida ilk safarni O'zbekistondan boshlaganligi ham Rossiya rahbariyati mamlakatimizni o'zining strategik sheriklaridan biri, Markaziy Osiyodagi etakchi davlat deb bilishidan dalolat beradi.

O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon tashkil etish haqida imzolangan shartnoma Markaziy Osiyo integratsiyasi yo'lidagi ilk qadam bo'lgan edi. 1998 yili bu shartnomaga Tojikiston ham qo'shildi. Hozirgacha o'zaro hamkorlik haqida 150 dan ortiq hujjat imzolandi. Endilikda Davlatlararo kengash ishlab turibdi, Hamdo'stlik dasturlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ijroiya qo'mita, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etilgan. Mazkur integratsiya xalqimizning manfaatlariga to'la mos keladi, mintaqamizda barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga yordam beradi. 2000 yil 20-21 aprel kunlari O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston prezidentlarining Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvi chog'ida imzolangan terrorizmga, siyosiy va diniy ekstremizmga, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash yuzasidan birgalikdagi harakatlar to'g'risidagi shartnoma bunga misol bo'la oladi.

Mamlakatimiz rahbari o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasida hamkorlik va ishonch olg'a harakatlantiradi, deb ta'kidlagan edi. O'zbekistonning keng miqyosli xalqaro aloqalari ana shu fikrning amaliy ifodasidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda demokratik jarayonlarni shunchaki e'tirof etish emas, balki uni har tomonlama rivojlantirishga e'tibor berilmoqda. Chunki demokratik qadriyatlarning qanchalik rivojlanishi, davlatni, xalqni shunchalik taraqqiyotiga olib keladi. Demokratik qadriyatlarni himoyalash esa muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun

O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri - minataqviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, xalqlar tinchiligiga rahna soluvchi terrorizmning har qanday ko'rinishiga qat'iy kurash olib borishdan iborat. Davlatimiz ana shu maqsad yo'lida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, bir qator davlatlararo va nohukumat xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli aloqalarni izchil rivojlantirib bormoqda, ayni vaqtda bu tashkilotlar ishida faol ishtirok etmoqda. Jahon hamjamiyati O'zbekistonning mintaq xavfsizligini ta'minlash, nizolarni siyosiy choralar bilan bartaraf etish, Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan holi xudud deb e'lon qilish, narkobiznesga qarshi kurashda sa'yi harakatlarini muvofiqlashtirish, Afg'onistondagi mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish borasidagi konstruktiv tashabbuslarini qo'llab-quvvatlamogda.

1997 yil 19-20 iyul kunlari «6+2» guruhining Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvi bunga misol bo'la oladi. Unda birinchi bor muxolif tomonlarning yuzma-yuz muzokara olib borishlari uchun imkon yaratilganligini andjuman yakunida «Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan hal etishning asosiy printsiplari» haqida Deklaratsiyaning qabul qilinishini xalqaro jamoatchilik afg'on zaminida tinchlik o'rnatish qaratilgan jiddiy qadam sifatida baholadi.

Mazkur anjuman O'zbekiston rahbariyatining ko'p yillik sa'yi-harakatlari natijasi bo'ldi. Afg'onistondagi urushning o'z vaqtida tinch yo'd bilan hal etilmasligi mintaqaviy va global xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1993 va 1995 yillardagi sessiyalarida, Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti sammiti va boshqa qator muhim anjumanlarda xalqaro hamjamiyat diqqat e'tiborini afg'on xalqini urush dahshatlaridan xalos etish, mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish masalalariga jalb etgan edi.

O'zbekiston rahbarining Afg'on muammosini hal etish va mintaq xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan konstruktiv tashabbuslari BMT shafeligidagi «6+2» guruhining (Eron, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Xitoy hamda AQSh va Rossiya) tashkil etilishiga asos bo'ldi. Guruhning birinchi uchrashuvi Nyu-York shahrida 1997 yilda bo'lib o'tgan edi.

Afg'onistondagi qarama-qarshi tomonlar «6+2» guruhning Toshkent uchrashuvidan keyin ham jangovor harakatlarini davom ettirganligi xalqaro jamoatchilikda keskin noroziliklar uyg'otdi. BMT Xavfsizlik Kengashi 1999 yil 15 oktyabrda «Tolibon» harakatiga qarshi cheklangan jazo choralarini joriy etish haqida rezolyutsiya qabul qildi. Unda o'zini Afg'oniston islom amrligi deb atayotgan afg'on guruhi tomonidan xalqaro terrorchilar va ularning tashkilotchilariga boshpana berilib, qo'llab-quvvatlanayotganligi qat'iy qoralanib, xalqaro terrorchilikda ayblanayotgan Usama Bin Ladenni odil sud hukmiga topshirish talab qilingan edi.

Afsuski, Afg'oniston zamini hamon qarama-qarshi kuchlar janggohi, xalqaro terrorchilarga boshpana beruvchi markaz, narkotik moddalar va qurol-yaroq tarqatish manbai bo'lib qolmoqda. Xalqaro terrorchilar zo'ravonlikning dahshatli usullarini qo'llab, begunoh kishilarning hayotiga zomin bo'lmoqda, xalqlarning tinchligi va osoyishtaligini buzmoqda.

BMT Xavfsizlik Kengashi raisi Bosh Assambleyada «Afg'onistondagi vaziyat» masalasi ko'rib chiqilishi munosabati bilan 1999 yil 22 oktyabrda Kengash a'zolari nomidan Bayonot e'lon qildi. Unda afg'on mojarosini tinch yo'l bilan hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan Toshkent Deklaratsiyasi qo'llab-quvvatlandi.

Xavfsizlik Kengashi 1999 yil 19 iyulda «6+2» guruhning Toshkent uchrashuvida qabul qilingan «Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan hal etishning asosiy printsiplari» haqidagi Deklaratsiyani, ayniqsa, guruh a'zolarining Afg'onistondagi qarama-qarshi tomonlarga hech qanday harbiy yordam ko'rsatmaslik va o'z hududlaridan bunday maqsadlar uchun foydalanishning oldini olish borasidagi kelishuvini qo'llab-quvvatlaydi. Xavfsizlik Kengashi BMTning afg'on muammosini tinch yo'l bilan hal etishdagi sa'yi harakatlari yo'lida mazkur guruhning barcha a'zolarini va Afg'onistondagi qarama-qarshi kuchlarni ushbu printsiplarga amal qilishga chaqiradi», - deyiladi Bayonotda.

Ushbu Bayonot orqali jahon hamjamiyati terrorchilik va ekstremizm o'chog'iga, narkobiznes markaziga aylanib qolgan insonning eng oliy huquqi - yashash huquqi butunlay poymol etilayotgan,

ayollar inson o'rnida ko'rilmayotgan, balog'at yoshiga etmagan bolalar askarlikka olinayotgan, bema'ni urush tufayli oilalar barbod bo'layotgan voqealardan qattiq tashvishda ekanligini yana bir bor izhor etib, «Tolibon» guruhidan ularning barchasiga chek qo'yishni talab etadi.

Ikkinchi jahon urushining oxirida portlatilgan yadro bombalari insoniyat tarixiy taraqqiyotida sifat jihatidan yangi, yadroviy davr boshlanganligidan dalolat berdi. O'ta dahshatli kuchga ega bo'lgan bu qurol insoniyat taraxida misli ko'rilmagan ilmiy-texnik qudratni namoyish etish bilan birga, jahon xatarli chegaraga yaqinlashganligini, erdagi barcha mavjudodlarning va umuman, er qurrasining halokati xavfi tug'ilganligini ko'rsatdi.

Hozirgi paytda to'plangan ilmiy ma'lumotlar va taxminlar yadroviy portlashlar vujudga keltiradigan ekologik fojeaning butun miqyosini namoyon etadi. Agar er yuzida yadroviy urush ro'y beradigan bo'lsa, u qurramizdagi eng so'nggi urush bo'ladi. Chunki, atrof-muhitda ro'y beradigan falokatli o'zgarishlar insoniyatning er yuzida yashash imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

Jahondagi ayrim davlatlar o'rtasidagi harbiy-siyosiy ziddiyatlar ba'zi davlatlarda ommaviy qirg'in qurollarining katta miqdorda to'planib qolishi o'zaro nizolar chog'ida yadroviy qurollarni qo'llash ehtimolini kuchaytiradi. Shu sababli yadro qurollarini cheklash, yadro sinovlarini ta'qiqlash, er yuzining turli nuqtalarida yadroviy quroldan holi hududlar barpo etish harakatlari jahon jamoatchiligi tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48 sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoning yadrosiz zona, deb e'lon qilish tashabbusini ilgari surdi. «Hozirgi zamon voqeligi shundayki, bir mamlakatning xavfsizligi boshqa davlat hisobidan ta'minlanishi mumkin emas, - dedi yurtboshimiz o'z nutqida, mintaqa xavfsizligini butun jahon xavfsizligi muammolaridan ajratgan holda ko'rib bo'lmaydi. Shunga asoslanib, O'zbekiston yadro qurolining batamom tugatilishi uchun, yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomaning samarali harakat qilishi va uning hech bir muddatsiz uzaytirilishi uchun harakat qiladi.... O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining yadrosiz zona, deb e'lon qilinishining qat'iy tarafdoridir».

Mazkur tashabbus Prezidentimizning 1996 yil dekabrda bo'lib o'tgan EHXT Lissabon uchrashuvida so'zlagan nutqida yana bir bor yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi. Anjuman qatnashchilari Markaziy Osiyoni yadrosiz zona, deb e'lon qilish haqidagi fikrini katta qoniqish bilan kutib oldilar.

1997 yil aprel oyida Jeneva shahrida Markaziy Osiyodagi besh davlat ekspertlari mintaqaviy guruhining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'sha yili iyun oyida O'zbekiston hay'ati birinchi bor atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) boshqaruvchilari kengashining Vena shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi sessiyasida ishtirok etdi. O'zbekiston hay'ati rahbarining rasmiy bayonotida O'zbekiston Respublikasi va mintaqadagi boshqa davlatlarning yadrosiz zona tashkil etish borasidagi qarashlari bayon etildi.

1997 yil 14-16 sentyabr kunlari Toshkentda «Markaziy Osiyo - yadro qurolidan xoli zona» mavzuida xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi. Unda 56 mamlakatdan va 16 xalqaro tashkilotdan 200 dan ortiq kishi ishtirok etdi. Islom Karimovning mazkur anjumandagi nutqida bayon etilgan yadroviy xavfsizlikni ta'minlash choralari haqidagi fikrlari anjuman qatnashchilari tomonidan to'la qo'llab-quvvatlandi.

Xo'sh, «Yadrosiz zona»ning qanday mezonlari bor? Xalqaro amaliyotda bunday hududlarni belgilashning yagona mezoni yo'q. Chunki, har bir mintaqa o'z xususiyati va ahamiyatiga ega. Ammo, tadqiqotchilar yadrosiz zona tushunchasini shunday izohlaydilar: «Yadrosiz zona qurol-yarog'larni cheklash, yadroviy nizo chiqishi xavfini kamaytirish, mazkur zonaga kiradigan mamlakatlar xavfsizligini mustahkamlash va 1968 yilda imzolangan yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnomaning hayotga tatbiq etilishiga ko'maklashish vositasidir. Xalqaro shartnoma

asosida yadro qurolini sinash, ishlab chiqarish va joylashtirish taqiqlangan, shuningdek, uning hududida va unga qarshi yadro qurolini qo'llash taqiqlangan zona - yadrosiz zona hisoblanadi».

Hozirgi paytda to'rtta yadrosiz zona mavjud - Antarktida (shartnoma 1961 yil 23 iyunda kuchga kirgan), Lotin Amerikasi (shartnoma 1969 yil 25 aprelda kuchga kirgan), Tinch okeanining janubiy qismi (shartnoma 1986 yil 11 dekabrda kuchga kirgan), Afrika qit'asi. Barcha zonalar haqidagi shartnomalar O'zbekiston Respublikasi tomonidan e'tirof etilgan.

Shimoliy Evropada, Markaziy va Janubiy Osiyoda, Yaqin Sharqda yadrosiz zonalar barpo etish g'oyalari mavjud. Bundan maqsad, yadro quroli mavjud bo'lgan hududlarni cheklash, yadro urushi xavfini kamaytirishdir.

Markaziy Osiyoda yadrosiz zona barpo etish haqidagi O'zbekiston tashabbusi BMT va jahon jamoatchiligi tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu taklif BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida muhokama qilindi va maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish faqat mintaqadagina emas, balki jahonda ham tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida iqtisodiy, harbiy qudrat bilan birgalikda mamlakatdagi demokratik jarayonlarning xarakteri bilan davlatlarning obro'-e'tibori belgilanmoqda. Shu jihatdan olganda, O'zbekistonda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar jahon hamjamiyatida mustahkam o'rin egallashga va milliy manfaatlarimiz asosida tashqi siyosat yuritishga imkoniyat yaratmoqda.

XX asrning oxirida. Inqiloblar yuz yilligi jahon sahnasida sotsialistik tuzumning emirilishi bilan yakun topdi. Sobiq «qizil imperiya» hududida xalqaro munosabatlar va xalqaro huquqning to'laqonli sub'ektlari - yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Shular qatori, uzoq davlatchilik tarixiga ega O'zbekiston Respublikasi ham o'z milliy taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan yurtimiz yana jahon hamjamiyati va uning ajralmas qismiga aylandi.

Istiqlol qo'lga kiritilgach, yosh davlatimiz oldida tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni yo'lga qo'yish va shu maqsadda yangi davlat tuzilmalarini tashkil etish masalasi ko'ndalang turardi. Chunki, busiz xalqaro hamjamiyatga kirib borish mumkin emas. Zero, O'zbekiston faol tashqi siyosat yuritish bilan xalqaro huquqning teng huquqli a'zosi sifatida o'z davlatchiligini qurishi, mustaqillikni mustahkamlashi, dunyoda o'zining munosib o'rnini egallashi lozim edi. «O'zbekiston yo'li - jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'li» shiori ilgari surildi.

1944 yilda tashkil etilgan respublika Tashqi ishlar vazirligi faoliyati tubdan isloh qilindi. 1992 yili Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, 1991 yili Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tashkil topdi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida diplomatiya, xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida malakali kadrlar tayyorlashning davlat tizimi yaratildi. Tashqi aloqalar sohasi uchun milliy kadrlar tayyorlash maqsadida 1992 yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil qilindi. Tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyatni tartibga soluvchi «Chet el investitsiyalari to'g'risida» Qonun (1998), «O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida» Qonun (2000), «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to'g'risida» Qonun (1996), «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida» Qonun (1995), shuningdek, Konsullik Ustavi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasi kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.

Mana shunday nazariy va amaliy qadamlar natijasi o'laroq, bugungi kunda davlatimiz mustaqilligini 170 ga yaqin mamlakatlar tan oldi. Ularning 120 nafari bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. O'zbekistonda 43 davlat va 20 ta yirik xalqaro tashkilot missiyalari akkreditatsiya qilingan. O'z navbatida, O'zbekiston 40 dan ortiq yirik tashkilotlar hamda 500 dan ortiq xalqaro huquq sub'ektlari bilan hamkorlik qilmoqda. O'zbekistonning xorijiy davlatlarda 200ga yaqin korxona va vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston 40 ga yaqin davlat bilan «Investitsiyalarni himoyalash va rag'batlantirish to'g'risida» shartnoma imzolagan.

Shunday qilib, hozirgi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o'rin egalladi va Markaziy Osiyodagi etakchi davlat sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday obro'-e'tibor tarixiy

davlatchiligimiz, ma'naviyatimiz va oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga hamohangdir. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, barqarorlikka asoslangan tashqi siyosatini davom ettiradi. Buning uchun etarli siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy imkoniyatlari mavjud.